

**X. S. MUXITDINOVA, Ya. I. AVLAKULOV,
D. A. NURIDDINOVA**

O‘ZBEK TILI

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan
maktablarning 6- sinfi uchun
darslik sifatida tasdiqlagan*

TOSHKENT
«YANGIYO‘L POLIGRAPH SERVICE»
2013

UDK: 811.512.133(075)
81.2.O'zb.
M-92

MUXITDINOVA X.S., O'zbek tili: ta'lim rus va qardosh til-
larda olib boriladigan maktablarning 6- sinfi uchun darslik/
X.S.Muxitdinova, Ya.I.Avlakulov, D.A.Nuriddinova. - T.:
«Yangiyo'l poligraph service», 2013. - 144 bet.

I. Muxitdinova X.S.

KBK 81.2O'zb-922

Taqrizchilar:

1. **O'. Lafasov** — TDSHI «O'zbek tili» kafedrasi muduri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
2. **L. Yunusova** — Toshkent shahar Hamza tumanidagi 145- maktab o'qituvchisi;
3. **K. Ahmedova** — Sirdaryo shahridagi 11- maktab o'qituvchisi.

***Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan
ijara uchun chop etildi.***

Shartli belgilar:



— Bilib oling



— Savol va topshiriqlar



— Adabiy o'qish

I MAVZU. OBOD O'LKAM

(Aniq va mavhum otlarning qo'llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Rasmlarni kuzating va berilgan savollar asosida suhbatlashing.

- Rasmlarda qaysi binolar tasvirlangan?
- Poytaxtimizda yana qanday yangi inshootlar barpo etildi?
- Siz yashayotgan shahar yoki qishloqda-chi?

1- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor qiling.

Obod o'lka

Bizning Vatanimiz — O'zbekiston Respublikasi. **Vatanimiz** tinch va farovon **o'lka**. **Diyorimizda** juda ko'p **millatlar** ahil va inoq yashaydilar. Respublikamizda **shahar va qishloqlar** juda ko'p. O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahridir. Mustaqillikdan so'ng Toshkent yanada go'zal va obod shaharga aylandi. Barcha shahar va qishloqlarimizda **bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda**. Juda ko'p yangi turar-joy **binolari, litsey va kollejlari** qurilmoqda. Keng **ko'chalar, ko'priklar, sport majmualari** barpo etilmoqda. Vatanimiz yanada obod bo'lmoqda.

tinch — мирный

farovon — благополучный

bunyodkorlik — творение

obod bo'lish — становиться благоустроенным

ahil, inoq — дружный

majmua — комплекс

barpo etilmoq — создаваться

2- topshiriq. Berilgan savollarga javob bering va suhbatni davom ettiring.

1. Biz qanday o'lkada yashaymiz?
2. Diyorimizda qanday millatlar yashaydilar?
3. Matndagi qaysi so'zlar **yurt** so'ziga ma'nodosh bo'la oladi?
4. Shahar va qishloqlarimizda qanday ishlar olib borilmoqda?



Otlar aniq va mavhum bo'ladi. **Aniq otlar** biz ko'ra va seza oladigan narsa-buyumlarni bildiradi. Ular birlik va ko'plik sonda keladi. Masalan: *shahar* — *shaharlar*, *musiq* — *musiqalar*, *bino* — *binolar* kabi. **Mavhum otlar** his-tuyg'ular, shaxs-narsaga xos belgi nomlarini bildiradi. Masalan: *vijdon*, *mehr*, *ishonch*, *saxiylik*, *go'zallik* kabi.

2- mashq. Matnlarni o'qing. Aniq otlarni daftaringizga ko'chiring.



Men G'ijduvon shahridanman. Shahrimiz tuman markazi hisoblanadi. U unchalik katta emas, lekin ozoda va ko'rkam. Shahrimizda katta do'konlar, shifoxonalar va maktablar bor. Shahrimizda har yili obodonchilik ishlari olib boriladi. Bu yil shahrimizda katta qo'shma korxona qurildi. Maktabimiz qayta ta'mirlandi.

Men qishloqda yashayman. Bizning qishlog'imiz tog' etagida joylashgan. Uning tabiati go'zal, havosi toza. Qishlog'imizdan katta soy oqib o'tadi. Qishlog'imiz atrofida oromgohlar ko'p. Bu yil qishlog'imizda yangi stadion qurildi.

3- topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

Men tug'ilgan o'lka

Men tug'ilgan hur o'lka
Ozod Sharqda nur o'lka.
Ko'rkam qishloq, shahari,
Shod o'tar har mahali.

Metall berar Bekobod,
Farhod GESdan el obod.
Nur olar har xonamiz,
Gullagan Farg'onamiz.

Xalqqa ust-bosh pillamiz,
Bebaho oq tillamiz.
Mevazor bog'-u bo'ston —
Serquyosh O'zbekiston.

(Qudrat Hikmat)

3- mashq. Matnni o'qing. Aniq va mavhum otlarni aniqlab, ikki guruhga bo'lib yozing.

Dam olish kuni o'qituvchimiz bizni yangi uylar qurilayotgan turar-joy dahasiga olib bordilar. Qurilish boshlig'i bizga quruvchilik kasbi haqida so'zlab berdi. Avval uylarning loyihasi chizilar, so'ng moliyachilar moliyaviy xarajatlarni hisoblab chiqar ekanlar. Shundan keyin uy-joy qurilishi uchun zarur mablag' va qurilish mollari ajratilib, quruvchilar ish boshlashar ekan. Ko'p qavatli uyning devorlari bizning ko'z o'ngimizda qad ko'tardi. Men quruvchilik kasbiga qiziqib qoldim.

Men kelajakda albatta mohir quruvchi bo'laman.

turar-joy — местожительство
qurilish — строительство
bunyodkorlik — созидание

loyiha — проект
daha — квартал

Uyga vazifa. Shahar (qishloq, tuman)ingizda qanday obodonchilik ishlari olib borilayotgani haqida yozib kelish.

2 - dars

4- topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bering.

Muqaddas zamin

Jahon keng, dunyoda mamlakatlar ko'p. Lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagona. Bu go'zal yurt, bu muqaddas **zamin** faqat bizga atalgan. Mana shu ulug' **tuyg'u** har birimizning hayotimiz mazmuniga aylanishini istardim. Biz shunday ma'naviy **muhit** yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha **shahar** va **qishloqlarimiz** qiyofasida Vatandan faxrlanish **hissi ko'zimizni, qalbimizni** yashnatib tursin.

(I. Karimov. «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asaridan)

zamin — земля
his-tuyg'u — чувство
faxrlanish — гордость
mazmun — содержание

muhit — среда
qalb — сердце
muqaddas — священный



Mavhum otlar asosan birlik shaklda qo'llanadi. Ular **-lik, -chilik, -ch, -inch** qo'shimchlari yordamida yasaladi. Masalan: **mardlik, shifokorlik, uchuvchilik, ishonch** kabi.

4- mashq. Berilgan soʻzlarga *-lik* yoki *-chilik* qoʻshimchalaridan mosini qoʻyib mavhum otlar tuzing.

1. Mustaqil ... , tinch ... , obod ... , doʻst ... , ezgu ... , qoshni ... , bunyodkor ... , bilimdon ... , farovon ... , sev ... , ahil ... , inoq

5- mashq. Nuqtalar oʻrniga foydalanish uchun berilgan mavhum otlardan mosini qoʻyib koʻchiring.

1. ... insonning fazilatlaridan biri. 2. Shahar va qishloqlarda ... ishlari olib borilmoqda. 3. ... — sogʻlik garovi. 4. Har birimiz oʻlkamizning ... uchun masʼulmiz. 5. Mahallalarda ... ishlariga katta eʼtibor qaratilmoqda. 6. Har doim ... boʻlsin! 7. ... taraqqiyotga yoʻl ochadi.

Foydalanish uchun soʻzlar: tejamkorlik, bunyodkorlik, obodonchilik, ishonch, tinchlik, tozalik, osoyishtalik.

6- mashq. Gaplarni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlardan mavhum otlar yasab, fikrni davom ettiring.

Namuna. **Doʻst** boshga kulfat tushganda sinaladi.

Doʻstlik oltindan qimmat.

1. Oʻzbekistonda barcha millatlar **ahil** yashaydilar.
2. Oʻlkamiz kundan-kunga **obod** boʻlmoqda.
3. Oʻzbek xalqi — **bunyodkor** xalq.
4. **Odobli** bolalarni barcha yaxshi koʻradi.



Adabiy oʻqish

Vatanni yashnataylik

Ona Vatanimizga
Tip-tiniq osmon kerak.
Biz yashagan zaminga
Pokiza bogʻbon kerak.

Yuksak tog‘lar bizniki,
Tog‘larga yo‘l olaylik,
Chaman, bog‘lar bizniki,
Bog‘larga yo‘l olaylik.

Buloqlar ko‘zin ochib,
Gulzorlar yarataylik.
Vatanning har bir qarich
Yerini yashnataylik.

Ummon-u irmoqlarni,
Daryolarni asraylik.
Avlod meros bebaho —
Dunyolarni asraylik.

Kimki desa Vatanim
Bir umr bo‘ston bo‘lsin,
Ona xalqqa mard, jasur,
Chiniqqan posbon bo‘lsin.

(Qambar Ota)

tiniq — прозрачный
ummon — море, океан
chiniqqan — закалённый
bir qarich yer — клочок земли
mard, jasur — отважный
irmoq — ручей, приток реки

zamin — земля
posbon — стража
buloq — родник
pokiza — чистый
yuksak — высокий

Uyga vazifa. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.

II MAVZU. OROMGOHDA

(O‘rin-joy otlari, ularning yasalihi va qo‘llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Savollarga javob bering va rasm asosida suhbatni davom ettiring.

1. Yozgi ta'tilda qayerda dam oldingiz?
2. Oromgoh qayerda joylashgan ekan?
3. Oromgohda nimalar qildingiz?
4. Shahringiz (qishlog'ingiz)da qanday oromgohlar bor?

1- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

«Quyoshli» oromgohi

Biz yozda «Quyoshli» **oromgohida** dam oldik. Oromgoh Oqtosh tog'i etagidagi xushmanzara yerda joylashgan. **Atrof** ko'm-ko'k **daraxtzor** va keng **adirlardan** iborat. Tog' yonbag'irlaridagi **o'tloqlar** esa yam-yashil **archazorlar** bilan qoplangan. Oromgoh etagidan katta soy oqib o'tadi. Biz har kuni erta tongda tog' yonbag'irlariga chiqdik. Tush vaqtida muzdek suvda mazza qilib cho'mildik. Bolalar bilan turli o'yinlar o'ynadik, musobaqalar o'tkazdik. Men oromgohda ko'p do'stlar orttirdim. Bu yilgi yozgi ta'til mazmunli va xushchaqchaq o'tdi.



O‘rin-joy ma’nosini bildiruvchi so‘zlar **turdosh va atoqli** bo‘ladi. Turdosh otlar **o‘rin-joy otlari, atoqli otlar esa o‘rin-joy nomlari deb ataladi**. O‘rin-joy otlari bosh harf bilan yoziladi. Masalan: gulzor, mahalla, qishloq — o‘rin-joy otlari. *Toshkent, Zomin, Buxoro*. Korxona, tashkilot, oromgoh, mahallalar, to‘garaklar nomlari qo‘sh tirnoq bilan yoziladi. Masalan: «*Turkiston*» saroyi, «*Oqtosh*» oromgohi, «*Gulzor*» mahallasi, «*Yosh ijodkor*» to‘garagi kabi.

2- mashq. O‘zingiz bilgan shahar, tuman, qishloq, mahalla va oromgohlarning nomlarini yozing.

Shaharlar	Tumanlar	Qishloqlar	Mahallalar	Oromgohlar
.....				

3- mashq. Qavs ichidagi so‘roqlar o‘rniga mos o‘rin-joy otlari yoki o‘rin-joy nomlarini qo‘yib yozing.

Men (qaysi?) viloyatda yashayman. Viloyatimizda (qanday?) oromgohlar bor. Yozgi ta’tilda singlim bilan (qaysi?) oromgohida dam oldim. Bu oromgoh (qaysi?) daryo bo‘yida va (qaysi?) toq‘ etagida joylashgan. Men oromgohda (qanday?) to‘garagiga qatnashdim. Murabbiyimiz bilan har kuni sayohatlarga chiqdik, turli shifobaxsh o‘simliklar bilan tanishdik. Singlim esa (qanday?) to‘garagiga qatnashdi. U kiyimlarni tikish va to‘qishni o‘rgandi. Biz oromgohda ham dam oldik, ham yangi narsalarni o‘rgandik.

2- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.

Oromgohda

Oromgohim xush havo,	Ariqcha, anhor go‘zal,
Bulbuli bor xush navo.	Suv oqar o‘qib g‘azal.
Anhorda suv hayqirar,	Uchsang, ana arg‘imchoq
Ko‘m-ko‘k o‘tlar barq urar.	Yayratar keng havoda.

Ana kezsang, katta bog‘,
Ne istasang bor bunda,
Tengdoshlaring undan mo‘l,
Cheksiz gulzor o‘ng-u so‘l.

Karavotda yonboshlab
Damin olar yaxshilab.
Qo‘lida kitob-roman,
Mag‘zini chaqar har on.

Ota-onangdek dildor,
Mehribon murabbiylar.
Ana bizning Karimjon
Oromgohda xo‘p shodon.

Mana bugun Olimjon
Oromgohdan qaytadi.
Tarozi tarozida tortsalar
Naq besh kilo ortadi.

(O. Nizomova)

barq urmoq — расцветать
hayqirmoq — бушевать
murabbiy — воспитатель
chaman — цветник
dildor — красавица
chaqmoq — колоть

hovli — двор
shodon — веселый
arg‘imchoq — качели
mag‘iz — ядро, смысл
na (nima) — что-то
tarozi — весы

3- topshiriq. Quyidagi savollarga javob bo‘ladigan gaplarni o‘qib bering.

1. Yuqoridagi she‘rda kimlar haqida gap boryapti?
2. Ayting-chi, ular o‘z vaqtini qanday o‘tkazibdi?
3. Nimalar bilan mashg‘ul bo‘libdi?
4. Nuqtalar o‘rnini to‘ldirib o‘qing:
U oromgohdan naq besh kilo ... ?

Uyga vazifa. Shahringiz (qishlog‘ingiz, tumaningiz)dagi oromgohlarning nomlarini yozing va ular haqida ma‘lumot bering.

2 - dars

4- topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.

Oromgohdagi uchrashuv

Doniyor: — Do‘stlar, keling, tanishamiz. Mening ismim Doniyor, Namangan shahridanman. Namangan gullar shahri deb ataladi.



Jahongir: — Men esa Shahrissabz shahridan kelganman. Shahrissabz — buyuk Amir Temur bobomiz tug‘ilgan yurt.

Nozima:



O‘rin-joy otlari va o‘rin-joy nomlari tub va yasama bo‘ladi. Masalan: *vodiy, maktab, hovli* — *tub otlar*; *gulzor, oromgoh, Guliston* — bular yasama otlardir. Yasama o‘rin-joy otlari va o‘rin-joy otlari *-loq, -zor, -iston, -goh, -xona, -obod* qo‘shimchlari bilan yasaladi. *Masalan:*

turdosh otlar

daraxtzor

o‘tloq

shifoxona

sayilgoh

atoqli otlar

Bodomzor

Guliston

Yangiobod

Yusufxona

4- mashq. Berilgan so‘zlarni ikki guruhga ajratib, avval tub, so‘ng yasama o‘rin-joy nomlar yoki o‘rin-joy otlarini yozing.

Toshkent, maktab, gulzor, vodiy, Samarqand, qishloq, tog‘, oromgoh, Oqtepa, shahar, Chimyon, Xiva, ko‘cha, o‘tloq, Bodomzor, daraxtzor, Olmaliq, Chinoz, Chinobod.

5- mashq. Berilgan so‘zlardan o‘rin-joy otlarini yasang, so‘ngra ular ishtirokida gap tuzing.

Namuna: Gul — gulzor: Maktabimiz hovlisida katta gulzor bor.

Archa, tosh, ziyorat, ish, olma, meva.

5- topshiriq. Guruhlarga bo'lining. Atoqli va turdosh o'rin-joy otlari bo'yicha «Kim ko'proq biladi?» o'yinini tashkil eting.

Namuna: Samarqand — dovon — Namangan — Norin — Nukus — sahro....



Adabiy o'qish

Oromgohdagi voqea

Jasur bu yil yozgi ta'tilni oromgohda o'tkazdi. Oromgoh tarbiyachisi Mahmud aka bolalarni tog' bag'riga sayohatga olib bordi. Ular ko'l bo'yidagi o'rmon yoqasida to'xtashdi. Jasur chanqab ketgani uchun olma sharbatini bir ko'tarishda ichib tugatdi. Sharbatdan bo'shagan qutichani va mineral suvning idishini olib ko'l yoqasiga bordi. Ko'l o'rtasini mo'ljalga olib, quticha va suv idishini birin-ketin otdi. Buni ko'rib Jasurning orqasidan kelayotgan Mahmud aka:

— Jasur, bu ko'l baliqlar va boshqa bir qancha jonivorlarning uyi. Sen har xil chiqindilarni otib u yerni iflos qilsang, jonivorga jabr bo'ladi. Yashab turgan uyingni kimdir kelib iflos qilsa, senga yoqadimi? — dedi.

Jasur indamay nari ketdi. Cho'ntagidagi gugurtni aylantirib o'ynay boshladi. Shunda qurigan shoxlarni yig'ib gulxan yoqish fikri keldi. Bu bilan baliqlarga ham, o'rdaklarga ham ziyon yetmaydi, deb o'yladi Jasur. Atrofda ko'zga ko'ringan mayda shox-shabbalarni yig'ib kichkina do'nglik ustiga to'pladi. Qurib yotgan shoxlar tezda alanga olib yona boshladi. Jasur alangaga shox tashlab uning yonishini tomosha qildi. Shu payt do'nglikning har tomonidan birdaniga chumolilar yugurib chiqib ketishdi. Ular har tomonga tarqalib, Jasurning oyoqlariga ham chiqib ketishdi. Jasur oyoqlarini yerga urib, ularni tushirmoqchi bo'ldi. Qoqilib ketib yiqilib tushdi va qo'lini kuydirib oldi. Og'riqdan baqirib yig'lay boshladi. Uning ovozi

eshitib Mahmud aka va bolalar yugurib kelishdi. Mahmud aka tezda olovni o'chirdi. Bolalar chelakda ko'ldan suv olib kelib gulxan ustiga sepishdi. Shoxlar tutay boshladi. Tutayotgan nam shoxlar orasidan chiqayotgan chumolilar og'izlariga tuxum va g'umbaklarni tishlagancha ularni qayerga olib borishni bilmay zir yugurishar edi.

Mahmud aka Jasurning qo'liga dori qo'ydi. Uning qo'li achishib og'rir, yig'idan o'zini zo'rg'a tiyib turar edi. Shunda Mahmud aka Jasurning oldiga kelib:

— Chumolilarning uyi tutunga to'lganida qanday azob tortganlarini tabiat senga mana shu tarzda bildirib qo'ydi. Shuni bilginki, hayotda hech narsa javobsiz qolmaydi. Biz tabiatning bir bo'lagimiz. Uni asrasak ham, unga zarar yetkazsak ham, natijasini tezda ko'ramiz. Bu sayohat senga yaxshigina saboq bo'ladi, degan umiddaman, — dedi.

(«Diktantlar to'plami»dan)

6- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Jasurning xatti-harakatlarini qanday baholaysiz?
2. Tabiatga, jonivorlarga zarar yetkazish qanday oqibatlarga olib keladi?
3. «Biz tabiatning bir bo'lagimiz» deyilgan fikrni siz qanday tushunasiz?
4. Siz bu hikoyaga qanday sarlavha qo'ygan bo'lar edingiz?

Uyga vazifa. «Oromgoh taassurotlari» mavzusida kichik matn tuzing.




III MAVZU. BILIM — XAZINA

(Kasb-hunar otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi)



1 - dars



Bo'lay desang bog'bon,
Yo Vatanga posbon,

Nimaki qilsang tilak,
Bariga o'qish kerak.

Yo osmonda uchuvchi,
Yo dengizda suzuvchi,

(Quddus Muhammadiy)

1- topshiriq. Savollar asosida suhbatlashing.

- Siz kelajakda qaysi kasbni egallamoqchisiz?
- Bu kasbni egallash uchun qaysi fanlarni chuqur o'rganishingiz kerak?
- Sizning oilangizda qanday kasb egalari bor?
- Kelajakda kimga o'xshashni istar edingiz?

1- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Bilim — xazina

Bizning oilamizda turli kasb egalari bor. Dadam **quruvchilik** sohasida ishlaydilar. Onam esa **zardo'zlik** bilan shug'ullanadilar. Katta akam duradgorlik kasbini tanlagan. Opam **o'qituvchilik** kasbiga o'qiyaptilar. Meni esa **tarjimonlik** sohasi qiziqtiradi. Bobom bizga hamisha: «Sizlarning yoshlik davringiz juda ham baxtli zamonga to'g'ri keldi. Bilim va hunar — chinakam xazina. Qaysi kasbda bo'l-sangiz ham o'z kasbingizning ustasi bo'ling. Shunda hech qachon kam bo'lmaysiz, bolalarim», — deb uqtiradilar.

duradgor — столяр
tarjimon — переводчик
muqaddas — священный
zardo'zlik — золотошвейка

kasb — профессия
xazina — клад
hunar — ремесло



O'zbek tilida kasb-hunar, sohalarni bildiruvchi otlar **-lik, -chilik** qo'shimchalari bilan yasaladi.

-lik qo'shimchasi

duradgor**lik**
quruvch**ilik**
zardo'z**lik**
ganchkor**lik**
gilamdo'z**lik**

-chilik qo'shimchasi

dehqonch**ilik**
hunarmandch**ilik**
kulolch**ilik**
me'morch**ilik**
beshikch**ilik**

2- mashq. Berilgan so'zlarga **-lik, -chilik** qo'shimchalaridan mosini qo'shib, avval **-lik** qo'shimchali so'zlarni, so'ng **-chilik** qo'shimchali so'zlarni yozing.

Dehqon, sotuvchi, kon, quruvchi, rassom, paxta, san'atkor, shifokor, to'quvchi, nonvoy, dorboz, suvchi, gilamdo'z, ovchi, haydovchi, qandolatchi.

3- mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardan kasb otlari yasab, fikrni davom ettirib yozing.

Namuna: — Men kelajakda **o‘qituvchi** bo‘lmoqchiman.
O‘qituvchilik — eng sharaflı kasb.

1. Do‘stim dadasi kabi **shifokor** bo‘lmoqchi.
2. Mening akam **quruvchi** bo‘lib ishlaydi.
3. Amakim mohir **oshpaz** bo‘lganlar.
4. Madhiyamiz musiqasini **bastakor** Mutal Burhonov yozgan.
5. Bu go‘zal binolarni usta **me’morlar** qurishgan.

2- topshiriq. Suhbat matnini o‘qing, so‘ng shu mavzuda suhbatni davom ettiring.

- Aziz, qayerdan kelyapsiz?
- Maktabimiz ustaxonasidan.
- U yerda nimalarni o‘rganasiz?
- Mehnat fani o‘qituvchisidan duradgorlikni o‘rganyapman.

O‘zing qayerdan kelyapsan?

— Men ham to‘garakdan kelyapman. Yozgi ta’tilda o‘ymakorlik to‘garagiga borgan edim. Hozir ham darslardan so‘ng shu hunarni o‘rganishni davom ettiryapman. Juda qiziqarli ekan...

Uyga vazifa. Ilm haqidagi maqollardan 3—4 tasini yozing va ma’nosinin tushuntirib bering.

2 - dars

3- topshiriq. Rasm asosida matn tuzing. Tuzgan gaplaringizda kasb-hunar otlaridan foydalaning.



4- mashq. Matnni o'qing. Kasb-hunar otlarini ko'chirib yozing va yasalishini tushuntiring.

Zardo'zlik fabrikasida

Buxoro zardo'zlik fabrikasi jahonga mashhur. Fabrikada so'zanachilik, do'ppichilik, kashtachilik sexlari mavjud bo'lib, ularda yuzlab xotin-qizlar ishlaydilar. So'zana, do'ppi va kashtalarning minglab turlari mavjud. Biz darsdan keyin sinfdoshlarimiz bilan fabrikaga borib, kashtachilarning ishlarini kuzatamiz. Menga ko'proq so'zanachilarning ishlari yoqadi. Sinfdoshim Madina esa zardo'zi kashtalar tikishga qiziqadi. Kelajakda milliy zardo'zligimizning nozik sirlarini o'rganish uchun mohir chevarlarga shogird tushmoqchimiz.

5- mashq. Ilm haqidagi maqollarning davomini 2 ustundan topib yozing.

Ilmli ming yashar,	ishsiz kishiga osh yo'q
Ilm olish	ilmsiz bir yashar
Ko'p so'zning ozi yaxshi,	bilmagan barmog'in tishlar
Bilgan bilganin ishlar,	igna bilan quduq qazishdir
Bilmas kishiga ish yo'q,	oz so'zning o'zi yaxshi

4- topshiriq. Matnni o'qing va savollarga javob bering.

Xayolparastlar ikki xil bo'ladi. Bir xil xayolparastlar ulkan ishlar, zo'r jasoratlar, ajoyib kashfiyotlar haqida xayol surib, bunday o'ylaydilar: «Hali biz yoshmiz, avval katta bo'lib olaylik, keyin kashfiyotlar qilamiz, yangiliklar yaratamiz».

Ikkinchi xil xayolparastlar esa o'zgacha o'ylaydilar: «Nima uchun katta bo'lishni kutib turishimiz kerak? Nahotki hozir bizga mos ishlar topilmaydi? Qo'lni qovushtirib o'tirishni xohlamaymiz». Bunday bolalar yoshligidan bilim olishga beriladilar, yangiliklarni bilish uchun intiladilar.



Sizningcha, qaysi bolalar to'g'ri o'ylashyapti?
Siz o'zingizni qaysi guruhga mansub deb bilasiz?

xayolparast — фантазёр
kashfiyot — изобретение
intilmoq — стремиться
sarguzasht — приключение

jasorat — храбрость
ulkan — громадный
mohir — умелый
tikuvchi — портной,
портниха



Adabiy o'qish

Hamma hunar sevimli

Hunarning yomoni yo'q,
Biri biridan ulug'.
O'qitmasa ustozlar
Yo bo'lmasa oshpazlar,
Davolamasa doktor,
Rol o'ynamasa aktyor,
Qo'shiq yozmasa shoir,
Kitob bitmasa noshir
Kasblar ko'p, xullas kalom,
Sanab bo'lmas nomma-nom.
O'ylang hayot ne bo'lar?!
Biri bo'lmasa agar,

Novvoylar non yopmasa,
Yo dehqon yer chopmasa,
Bastakor yozmasa kuy,
Yo cho'pon boqmasa qo'y,
To'qimasa to'quvchi,
Yo tikmasa tikuvchi,
Quruvchilar qurmasa,
Sportchi yugurmasa...
Biri biriga eshdir,
Shu sabab ishlar «besh»dir.
Yigitga oz yetmishi,
Yuz hunarli er kishi.

Yoshlik yugurib o'tar,
Kasb egallang, yosh do'stlar!

(Olqor Damin)

quduq — колодец
qazimoq — копать
nomma-nom — поимённо
kosibchilik — кустарное дело
tasviriy san'at — изобразительное искусство

Uyga vazifa. She'rni yod oling va mazmunini so'zlab bering.

IV MAVZU. SINIF RAHBARI

(Narsa-buyum otlari, ularning
yasalishi va qo'llanishi)

1 - dars

1- topshiriq. Berilgan tayanch so'zlar va so'z birikmalaridan foydalanib, rasm asosida suhbatlashing.



Tayanch so'z va so'z birikmalari: yangi o'quv yili, sinfdoshlar, guldastalar bilan, maktab binosi, sinf rahbarimiz, o'z sinfxonamiz, to'planmoq, sovg'a qilmoq.

1- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan gaplarni daftaringizga ko'chiring.

O'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi. Ma'rifatpavar bobolarimizning fikrlarini davom ettirib, «Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir», desak yanglishmagan bo'lamiz. **O'qituvchi o'z oquvchilariga hayot maktabini beradigan mo'tabar zotdir.**

(I. Karimov. «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asaridan.)



Narsa-buyum otlari *nima?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Ular tub va yasama bo‘lishi mumkin. Masalan: *kitob, sinf, gul* – tub narsa-buyum otlari; *guldona, o‘chirg‘ich, supurgi* — yasama narsa-buyum otlaridir. Yasama narsa-buyum otlari fe‘llarga *-k, -q, -g‘ich, -kich, -qich, -gi, -ki, -qi, -g‘i, -qin, -qun, -g‘in, -ma, -m* qo‘shimchalarini qo‘shish yordamida yasaladi.

2- mashq. Gaplarni narsa-buyum otlari bilan to‘ldirib yozing.

Yozuv stolim ustida ...lar turadi. Stol tortmasiga...larni joyladim. Darsga kerak bo‘ladigan ... larni portfelimga soldim. Kitob javonida ... lar turadi. Zamira ... bilan ko‘chani supurdi. Jamila saryog‘ va qaymoqni ...ga joyladi.

3- mashq. Maktab uchun zarur bo‘ladigan o‘quv qurollarining ro‘yxatini tuzing. Tub va yasama otlarni guruhlariga ajratgan holda yozing.

2- topshiriq. «Menda nima bor?» o‘yinini tashkil qiling. Portfelingizdagi narsalar nomlarini, ular nima maqsadda ishlatilishini yozing.

Namuna: Menda qalamdon bor. U yozuv qurollarimni solish uchun kerak bo‘ladi.

3- topshiriq. Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

Sinf rahbarimiz

Bizga 5- sinfdan beri o‘zbek tili o‘qituvchisi Malika opa Niyozova rahbarlik qiladilar. Malika opa juda muloyim, kamtar ayol. Ular o‘z kasbining haqiqiy ustasi, bilimdon inson. Sinf rahbarimiz bizga hamisha g‘amxo‘rlik qiladilar, yaxshi maslahatlar beradilar. «Yolg‘on gapirish, birovni aldash — eng yomon odat», — deb uqtiradilar.

Maktabda sinf rahbarimizni barcha juda hurmat qiladi. Biz o‘z sinf rahbarimiz bilan faxrlanamiz va ularga o‘xshashga intilamiz.



Sizning sinfingizga qaysi ustoz rahbarlik qiladi?
Ayting-chi, sizga ulardagi qaysi fazilatlar ko‘proq
yoqadi?

Uyga vazifa. Berilgan tayanch so‘zlardan foydalanib, sinf rahbaringiz haqida kichik matn tuzing.

Tayanch so‘zlar: mehribon, aqlli, shirinso‘z; o‘qish, yozish, rasm chizish; tartibli, ahil, do‘st, maslahat; o‘rgatmoq, bermoq.

2 - dars

4- topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing.

Muhlisa: — Qizlar, qayerdan kelyapsizlar?

Ziyoda: — Shanbalikdan. Shanba kuni sinfimizda tozalik kuni deb e‘lon qilingan.

Diyora: — Sinf rahbarimiz har birimizga alohida-alohida ish taqsimlab berdilar. O‘g‘il bolalar maktab bog‘ida ishlashdi. Ular belkurak va ketmon bilan daraxtlarning tagini yumshatishdi, gullarni sug‘orishdi.

Aziza: — Bizlar sinfdagi yumushlarni bajardik. Men supurgi bilan xonani supurdim. Adiba bilan Ziyoda deraza oynalarini artishdi.

Jamila: — Men gul tuvaklari va guldonlarni artib tozaladim. Sinf rahbarimiz javondagi o‘quv qurollari va kitoblarni tartibga keltirdilar.

4- mashq. Suhbat matnidan tub va yasama narsa-buyum otlarini aniqlab, daftaringizga ikki guruhga bo‘lib ko‘chirib yozing.



-ma qo‘shimchasi ko‘p ma’noli bo‘lib, quyidagi ma’nomlarni anglatuvchi otlarni yasaydi:

1) aniq narsa-buyumlar nomlarini: *tugma, qo‘llanma* kabi;



2) atamalar nomlarini: *isitma, uyushma, yuklama, birikma* kabi;

3) taomlar nomlarini: *qatlama, dimlama, suzma* kabi.

-**ma** qo'shimchasi fe'llardagi bo'lishsizlik qo'shimchasiga shakldosh bo'lib qo'llanadi. Misollarni qiyoslang:

tug**ma** (ot) — tug**ma** (fe'l); bos**ma** (ot) — bos**ma** (fe'l) kabi.

5- mashq. Berilgan fe'llarga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'shib, narsa-buyum otlari yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Ochmoq (-gich, -kich, -qich, -g'ich): Men do'kondan qalam ochqich sotib oldim.

Chizmoq, o'chirmoq, tutmoq, yelpimoq (-gich, -kich, -qich, -g'ich); kuramoq, bo'yamoq, taramoq (-k, -q); yutmoq, chopmoq (-uq, -iq); supurmoq, turtmoq, chopmoq (-gi, -ki, -qi, -g'i); to'lmoq, uchmoq, yonmoq (-qin, -qun, -g'in).

5- topshiriq. Ushbu she'riy topishmoqlarni o'qing va narsa-buyum otlarini yasovchi qo'shimchalarning qo'llanishini bilib oling.

«Yut» so'zi — «iq»ni olar,

«Uch» so'zi — «qin»ni olar.

Imloda qo'shimchalar

O'ylang, qanday yozilar?

Bilak bo'lar bilagi,

Qishloq bo'lar qishlog'i.

Toping-chi, ne sababdan

Qarmoq bo'lgan qarmog'i?

Bosqich, tortqi, g'ildirak,

Chiziq, o'sma, pirpirak

So'zlaridan so'z yasovchi

Qo'shimchani toping-chi

Paxta, osh, suv, bog' so'zlar

Kasbni bildirar qachon?

Qaysi qo'shimchalarni

Qo'shsak bo'lar namoyon?

6- mashq. Qavs ichida berilgan savollarga javob bergan holda matnni ko'chiring.

Biz ta'til kunlarida (kim bilan?) tog'ga chiqmoqchi bo'ldik. Kechqurun safar anjomlarini tayyorlab qo'ydim. Yelkaga osib yuradigan (nimaga?) tog'da kiyib yurish uchun (nimalarni?) soldim. Biz

tog‘da albatta (qayerga?) boramiz, (nimalarni?) teramiz. Ko‘rgan narsalarni yozib borish uchun (nimalarni?) oldim. Biz sayohatdan juda katta taassurotlar bilan qaytdik.



Adabiy o‘qish

Ustozlar

Mehr nuri yog‘ar doim
Ko‘zingizdan, ustozlar.
Yursam deymen shu tabarruk
Izingizdan, ustozlar.
Chin insonlik kitobiga
Baxt-u hikmat bitibsiz.
Odob bilan bilim oldim
So‘zingizdan, ustozlar.
Qalbingizning yo‘q g‘ubori,
Mehribonsiz shunchalar.

(Po‘lat Mo‘min)

minnatdor — благодарный
qiyoslamok — сравнивать
imorat — постройка, здание
to‘plam — сборник
yanglishmoq — ошибаться
ma‘naviyat — духовность
umumxalq — общенародный
yengilmas — непобедимый
azaliy — давнишний
mo‘tabar zot — священная личность
ma‘rifatparvar — просветитель

baland — высокий
kuch — сила
fikir — мысль
kasb — профессия
sharaf — честь, слава
asl — подлинный
maslahat — совет
yaqqol — явный
uchrashuv — встреча

Uyga vazifa. She’rni yod oling.

V MAVZU. ADABIYOT MUZEYIDA

(Otlarda *-day, -dek, kabi, xuddi*
shakllarining *qo'llanishi*)

1 - dars



1- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyida bo'lganmisiz?
2. Muzeyda qanday ko'rgazma zallari bor?
3. Adabiyot muzeyidagi qaysi eksponat sizning diqqatingizni tortdi?
4. Yana qanday muzeylarda bo'lgansiz?
5. Qaysi yozuvchi va shoirlarning uy-muzeylarini bilasiz?

1- mashq. Matnni o'qing va o'zaro suhbatlashing.

Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi

Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi 1940- yilda tashkil topgan. Muzey 40 ta xona, 8 bo'limdan iborat. Undagi barcha ko'rgazmalar soni 30 mingdan ortiq. Muzeyda o'zbek mumtoz adabiyotiga oid qo'lyozma va toshbosma kitoblar, naqqoshlik san'atiga doir ko'rgazmalar mavjud. Ayniqsa, Navoiyning «Xamsa» asariga bag'ishlab to'qilgan zar gilam barchaning diqqatini tortadi. Gilamda

Farhod va Shirin, Layli va Majnunlarning siymosi aks ettirilgan. Zahiriddin Muhammad Boburga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar orasida «Bobur haykali» hamda ipak bilan tikilgan «Bobur portreti» alohida o‘rin tutadi. Muzeyda «XX asr o‘zbek adabiyoti», «Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti» ekspozitsiyalari ham bor.

tavallud — день рождения

ko‘rgazma — выставка

tinimsiz — беспрестанно

bag‘ishlanmoq — посвященный

bo‘lim — отдел

sopol buyum — керамическое изделие

siymo — образ

qo‘lyozma — рукопись

davr — период, время

dastxat — подпись

diqqat — внимание



2- topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor bering.

O‘qituvchi: — Bolalar, mana siz Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyini ko‘rib chiqdingiz. O‘zingizga kerakli ko‘p ma‘lumotlarni oldingiz. Qiziqqan savollaringiz bo‘lsa, marhamat, berishingiz mumkin.

Doniyor: — Nazarimda, biz go‘yo Navoiy davriga qaytgandekmiz. Men juda hayajondaman.

Mushtariy: — Men esa o‘zimni **xuddi vorislardek** his qildim. Ayniqsa, Navoiy bobomizning o‘z dastxatlari bilan yozilgan kitoblarni ko‘rganda nihoyatda hayratlandim.

Jasur: — Ustoz, shunday ajdodlarimiz borligidan ko‘nglim **tog‘dek** ko‘tarildi.

O‘qituvchi: — Ha, albatta, **bobomiz kabi** insonlar hamisha barhayot. **Navoiydek** bo‘lish, **Navoiydek** nom qoldirish uchun tinimsiz o‘qish kerak.



O‘zbek tilida o‘xshatish-qiyoslash ma’nolarini bildirish uchun *-day, -dek, go‘yo, kabi, xuddi, singari* vositalardan foydalaniladi. *-day, -dek* qo‘shimchalari so‘zlarga qo‘shib yoziladi. Masalan: *oyday, Navoiydek, haykaldek*.

2- mashq. Berilgan so‘zlarga avval o‘xshatish-qiyoslash ma’nolarini bildiruvchi qo‘shimchalar va so‘zlarni qo‘shib yozing, so‘ng ular ishtirokida so‘z birikmalari tuzing.

Namuna. Kun — kundek — kundek ravshan.

Kun, gul, tosh, kitob, daraxt, bino, asal, zahar.

3- mashq. Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘zlarga o‘xshatish-qiyoslash ma’nolarini bildiruvchi qo‘shimchalarni qo‘shib ko‘chiring.

1. Men she‘r yozishni yaxshi ko‘raman. Kelajakda ... shoir bo‘lmoqchiman.

2. Yaxshi kitob quyosh ... inson qalbiga kirib boradi.

3. Senga ... bilak berdim, dushmani yanchsin deb.

4. Bilim ... yo‘llarimizni yoritadi.

5. Non — rizq-ro‘zimiz. Hech narsa ... aziz bo‘la olmaydi.

Foydalanish uchun: Navoiy, nurlari, tog‘, mash‘ala, non.

4- mashq. Nomi berilgan shaxslarni ta’riflang. So‘ngra o‘xshatish-qiyoslash ma’nolarini bildiruvchi vositalar yordamida fikrni davom ettiring.

Namuna: Alisher Navoiy — o‘zbek adabiy tilining asoschisi. Biz xuddi bobomizdek bo‘lishni orzu qilamiz.

1. Yulduzlar ilmining asoschisi — ...
2. Erkin kurash bo‘yicha o‘zbekistonlik jahon chempioni — ...
3. O‘zbek romanchiligining asoschisi — ...
4. Nomiga Davlat mukofoti belgilangan o‘zbek shoirasi — ...
5. Shaxmat bo‘yicha jahon chempioni — ...
6. O‘zbek bolalar yozuvchisi, o‘nlab qissalar muallifi — ...

Uyga vazifa. Berilgan reja asosida «Adabiyot muzeyi» mavzusida ijodiy matn yozing.

1. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyining tashkil etilishi.
2. Muzey ekspozitsiyalari va bo‘limlari.
3. Muzeyda alohida o‘rin tutadigan eksponatlar.

2 - dars

3- topshiriq. Matnni o‘qing va so‘zlab bering.

Muzey haqida

Ensiklopedik lug‘atlarda «Muzey — san’at yodgorliklari, texnik asboblari, ilmiy kashfiyotlar buyumlarini to‘plash, ularni saqlash va namoyish qilish muassasasidir», — deb ta’rif beriladi. Har bir mamlakatda, shahar va katta qishloqlarda ham shu mamlakat va xalqning tarixi, san’at va madaniyati, ilm-fani bilan bog‘liq barcha ma’lumotlar muzeylarda saqlanadi. Muzeyda qancha ko‘p eksponat saqlansa, ular qanchalik qadimiy va noyob bo‘lsa, muzeylar shunchalik boy hisoblanadi va jahonga mashhur bo‘lib boradi. Ushbu muzeylarni har yili minglab odamlar borib tomosha qiladilar. Har bir mamlakatda tarix muzeyi, san’at muzeyi, tabiat muzeyi, shuningdek, buyuk shaxslar hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan muzeylar, uy-muzeylar, muzey-shaharlar ham mavjud.

faoliyat — деятельность
san'at — искусство
tabiat — природа

ma'lumot — сведения
noyob — антиквар
muassasa — учреждение

4- topshiriq. Savollar asosida suhbatlashing.

- Siz shahrimizdagi qanday muzeylarni bilasiz?
- Jahonga mashhur qaysi muzeylar haqida eshitgansiz?
- Qaysi mashhur shaxslarning uy-muzeylari bor?
- Sinfdoxlaringiz bilan qaysi muzeylarga borgansiz?
- Qanday shaharlar muzey-shaharlar hisoblanadi?



-dek, -day qo'shimchali so'zlar go'yo, *xuddi, kabi* so'zlar bilan qo'llansa, o'xshatish ma'nosi kuchaytiriladi. Bunda *go'yo, xuddi* so'zlari otlardan oldin, *kabi* esa keyin keladi va ular ajratib yoziladi. Masalan: *oyday — go'yo oyday — xuddi oyday — oy kabi; quyoshdek — go'yo quyoshdek — xuddi quyoshdek — quyosh kabi.*

5- mashq. Gaplarga o'xshatish-qiyoslash vositalarini qo'shib yozing.

1. Jahonda bizning mamlakatimiz ... boy tarixga ega mamlakatlar ko'p emas. 2. Bizning o'lkamizdan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Ahmad al-Farg'oniy... buyuk allomalar yetishib chiqqan. 3. Menga sohibqiron Temur ... bo'lsin deb ism qo'yishgan. 4. Biz ham bobomiz Navoiy... ona tilimizga muhabbat bilan qarashimiz kerak.



Adabiy o'qish

Bola Alisher

G'iyosiddin Kichkina bir qisim pista holva bilan o'g'ilchasini mehmon qildi. To'rt yoshlar chamasidagi Alisher kelishgan, xipcha gavgdali, ko'zlarida teran aql ko'rinar edi.

— Otni yaxshi ko‘rasanmi, Alisherbek? — deya so‘radi kulimsirab sipohilardan biri.

— Juda yaxshi ko‘raman, lekin... — dedi Alisher, — ot choptirishdan fikr yugurtirish yaxshiroqdir, chamamda.

Hamma hayratda qotib qolgan edi.

— Ofarin! — dedi keksa barlos. — O‘qiting o‘g‘lonni. Ilmning cho‘qqisiga arziydi o‘g‘lingiz.

G‘iyosiddin Kichkinaning yuzi quvonchdan yorishib, ko‘zlarida tabassum bilan javob berdi:

— Niyatimiz xuddi shunday, o‘qitmoqni orzu qilamiz. Ziyrak bola, picha sho‘xligi bor...

— Qani jiyan, bir g‘azal o‘qib yubor, — dedi tog‘asi Mirsaid Alisherga.

Alisher otasiga o‘qisam maylimi, deganday yalt etib qaradi.

— O‘qi, o‘g‘lim, o‘qi, — dedi otasi uning yelkasiga qoqib.

Alisher darrov cho‘kka tushdi va muloyim ohangda she‘r o‘qidi.

Majlis ahli maroq bilan jim quloq soldi. Qizarib ketgan Alisher bir oz sukut qilgach, dedi:

— Mavlono Lutfiy hazratlari yozganlar, bu she‘rni. Men juda yoqtiraman ota. Siz nima deysiz? — so‘radi otasiga termulib.

— Juda yaxshi, o‘g‘lim, menga ham ma‘qul. Mavlono Lutfiy nihoyat hassos, nozik tafakkurli shoirdirlar.

Majlis ahli zavq, maroq to‘lqinida, ajoyib hayratda edi....

(Oybek)

cho‘qqi — вершина

maroq — удовольствие

ziyrak — чуткий

sukut — молчание

tafakkurli — мыслящий

hayrat — удивление

cho‘kka tushmoq — сесть на колени

fikr yugurtirish — думать, мыслить

Uyga vazifa. Matnning mazmunini so‘zlab bering.

VI MAVZU. MEN SEVGAN KO'RSATUV

(Egalik qo'shimchalari bilan kelgan o'zlik
olmoshlarining qo'llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Berilgan tayanch so'zlardan foydalanib, rasmlar asosida suhbatlashing.

Foydalanish uchun so'zlar: Toshkent teleminorasi, barpo qilinmoq, eng katta, shahar manzarasi, salobatli, ko'p qavatli, sayohat qilmoq.

1- mashq. Matnni o'qing. O'z so'zi ifodalayotgan ma'nolarga e'tibor bering.

Toshkent — televideniye vatani

1928- yilda Toshkent shahrida V.G.Grabovskiy va I.Belyanskiylar tasvirlarni bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan va qabul qiladigan moslama yaratdilar. Shu tariqa televideniye asos solindi va bu ixtiro juda tez tarqaldi. 1936- yilda Buyuk Britaniya va Germaniya, 1941- yilda Amerika Qo'shma Shtatlari o'zining ko'rsatuvlarini

namoyish qila boshladi. O'rta Osiyo hududida televideniye 1956-yilda birinchi bo'lib O'zbekistonda ishga tushirildi. Hozirgi kunda O'zbekiston televideniyesi bir nechta kanallari orqali kecha-yu kunduz o'z teleko'rsatuvlarini jahonning juda ko'p mamlakatlariga uzatadi. O'zbekiston televideniyesi Markaziy Osiyodagi eng zamonaviy va boy texnikaga ega bo'lgan telemaskandir.

tasvir — изображение

moslama — прибор

ixtiro — изобретение

muntazam — постоянный

takomillashtirish — совершенствование

teleko'rsatuv — телепередача

2- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Nima uchun «Toshkent — televideniye vatani» deyiladi?
2. Televideniye qayerda va qachon o'z faoliyatini boshlagan?
3. O'zbekistonda o'z teleko'rsatuvlarini qachon ko'rsata boshladi?
4. Hozirgi kunda O'zbekiston televideniyesining qanday kanallari mavjud?



O'z so'zi o'zlik olmoshi bo'lib, qarashlilik ma'nosini ifodalaydi. Masalan: *O'z uyim — o'lan to'shagim*. U egalik qo'shimchalari bilan qo'llanib kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanishi mumkin. Qiyoslang:

o'zim — men

o'zimiz — biz

o'zing — sen

o'zingiz — siz

o'zi — u

o'zlari — ular

2- mashq. Maqollarni o'qing. O'zlik olmoshlarini o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring va ma'nosini tushuntiring.

1. O'rinsiz g'azab — o'zingga azob.
2. O'zga yurtda sulton bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l.
3. O'zingni o'zing maqtama, seni birov maqtasin.

3- mashq. Nuqtalar o'rniga mos olmoshlarni qo'yib yozing.

Nonushtani har doim mening ... (o'zim, o'zing) tayyorlayman. Bu topshiriqni sening ... (o'zim, o'zing, barchamiz) bajarasan. U uyda bir ... (o'zim, o'zing, o'zi) qolgan edi. Maktabga bugun Bahodir bir ... (o'zim, o'zi, hammamiz) ketdi. Sinfimizning tozaligiga bizning ... (o'zimiz, har qaysingiz, barchasi) javobgarmiz.

3- topshiriq. Ertakni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

Manmanlik

Bir bog'da o't-o'lanlar va dala gullari orasida atirgul ochilibdi. Atrofida barcha o'simliklar uning go'zalligi va hididan hayratga tushib, atirgulni olqishlay boshlashibdi. Atirgul bu maqtovlarni eshitib, hech kimni nazarga ilmay qo'yibdi. Bir kuni atirgul tush ko'ribdi. Tushida bir o'zi cho'lda o'sayotgan emish. Atrofida na bir o't-o'lan, na bir daraxt bor ekan. Issiqdan rosa chanqabdi, lekin suv ko'rinmas emish. Tez orada so'lib, gul barglari qovjiray boshlabdi. Shunda bog'dagi soya solib turadigan daraxtni, uni shamol va issiqdan asraydigan o't-o'lanlarni, yonginasidan oqib o'tadigan ariqchani eslabdi. Ularga bu yaxshiliklari uchun biror marta ham minnatdorchilik bildirmaganini eslab qattiq afsuslanibdi. Ularsiz bir o'zi halok bo'lishini tushunib dahshatga tushibdi. Shu payt qattiq shamol turib, qum uyumlarini atirgulning ustiga tashlabdi. Atirgulning tanasi qumning og'irligini ko'tara olmay sinib ketay debdi. Qo'rquvdan ovozinig boricha baqirib yuboribdi. Ko'zini ochib qarasa, o'z bog'ida o'z daraxti soyasida, o'z atrofidagi o't-o'lanlar orasida ekan. Atirgul unga hayron bo'lib qarab turgan o'tlar va daraxtlarga birinchi marta jilmayib qarabdi va cho'chitib yuborgani uchun ulardan uzr so'rabdi.

(«Tarbiya» kitobidan)



1. Ertakni «Oqshom ertaklari» ko'rsatuvi boshlovchisi sifatida o'qing.
2. Ertak mazmunini so'zlab bering.
3. O'zlik olmoshlarini aniqlab, ma'nolarini tushuntiring.

Uyga vazifa. Bolalar teleko'rsatuvlari ro'yxatini tuzing va ushbu ko'rsatuvlar haqida ma'lumot bering.

2 - dars



4- topshiriq. Rasm asosida suhbatlashing.

- Sizga qaysi ko'rsatuvlar yoqadi?
- Ko'rsatuvda nimalar haqida ma'lumot beriladi?
- Ko'rsatuv muallifi va boshlovchisi haqida nimalarni bilasiz?

5- topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing. O'zlik olmoshining ma'nolariga e'tibor bering.

Aziza: — Diyora, senga qaysi kanal ko'rsatuvlari yoqadi?

Diyora: — Men «Sport» kanali ko'rsatuvlarini yoqtiraman.

Aziza: — Sen ham shu ko'rsatuvlarda ishtirok etganmisan?

Diyora: — Ha, men o'z o'rtoqlarim bilan «Chaqqonlikda bellashamiz» ko'rsatuviga qatnashganman.

Aziza: — Sen bu ko'rsatuvga o'zing borganmisan?

Diyora: — Yo'q, «Suv parisi» sport musobaqasida g'olib chiqqanligim uchun taklif etishgan.

Aziza: — Ko'rsatuvni tasvirga olish jarayonlari juda qiziq bo'lsa kerak-a?

Diyora: — Ha, albatta, har bir ko'rsatuv juda ko'p odamlarning mehnati bilan yuzaga kelar ekan. O'zing-chi, qaysi ko'rsatuvlarni yoqtirasan?

Aziza: — Men, ayniqsa, «Yoshlar» kanalidagi «O‘yla, izla, top!» ko‘rsatuvini sevib tomosha qilaman.

Diyora: — Men ham bu ko‘rsatuvga juda qiziqaman.



O‘zlik olmoshi nutqda kishilik olmoshi yoki bir so‘zi bilan, shuningdek, qaratqich kelishigi qo‘shimchasi bilan qo‘llanganda ma‘noni ta’kidlab keladi. *Masalan: Ko‘rsatuvni mening o‘zim olib boraman. Bu gapni sen o‘zing aytding. U bir o‘zi keldi. U o‘zining uyiga ketdi kabi.*

4- mashq. Berilgan maqollar va gaplarni kishilik olmoshlari yoki bir so‘zini qo‘shib ko‘chiring. Ma‘nodagi o‘zgarishga e’tibor bering.

Namuna. Birovga chuqur qazisang, o‘zing yiqilasan. —
Birovga chuqur qazisang, sen o‘zing yiqilasan.

1. O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil.
2. Bu masalani o‘zim mustaqil bajardim.
3. O‘zingga yaxshilik tilasang, o‘zgaga yomonlik qilma.
4. Bu uyda o‘zimiz yashaymiz.

5- mashq. Berilgan gaplardagi kishilik olmoshlarini o‘zlik olmoshlari bilan almashtirib o‘qing. Ma‘nosidagi farqlarni tushuntiring.

Namuna. — Men bu ishga astoydil kirishdim. — Bu ishga o‘zim astoydil kirishdim.

1. Men bu ishga astoydil kirishdim. 2. Sen bu ishni mustaqil bajara olasanmi? 3. Biz barcha ishlarni uddaladik. 4. Siz bu haqda o‘ylab ko‘rganmisiz? 5. Tadbir ssenariysini biz yozdik. 6. Ko‘rsatuvni sen olib bora olasanmi? 7. Sahn ko‘rinishlarini biz ijro etdik. 8. Sahnani bezatish ularga yuklatildi.

6- mashq. Matnni o‘qing. O‘zlik olmoshini o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirib yozing va ma‘nolarini tushuntiring.

Bolalarning sevimli ko'rsatuvi

O'zbekiston televideniyesida bolalarga bag'ishlangan bir qator ko'rsatuvlar bor. Bular orasida «Qo'shig'im, jon qo'shig'im» ko'rsatuvi alohida o'rin tutadi. Bu ko'rsatuv bir oyda ikki marta namoyish qilinadi. Ko'rsatuv muallifi va boshlovchisi O'zbekiston xalq artisti, «Bulbulcha» bolalar ashula va raqs ansambli rahbari bastakor Shermat Yormatovning o'zidir. «Bulbulcha» ansambli nafaqat respublikamizning shaharlarida, balki Yugoslaviya, Turkiya, Fransiya, Finlyandiya, Kongo kabi o'nlab xorijiy mamlakatlarda gastrollarda bo'lib, xalqaro festivallar laureati bo'lgan. «Qo'shig'im, jon qo'shig'im» ko'rsatuvi orqali biz yangi-yangi qo'shiqlar o'rganib boramiz.



Adabiy o'qish

Ko'rsatuvni ko'rib

Bilim umr chirog'i,
Yaxshiliklar bulog'i.
Bizga kuch-qanot berar
Ustozlarning sabog'i.
Tinmay ilm izlagan,
O'z ustida ishlagan
Maqtovlarga loyiqdir,
Tanlovlarda g'olibdir.
«O'yla, izla, top!» degan
Ko'rsatuv xo'b soz ekan.
Bilimdonlar bahsi u,
Chin ma'rifat darsi u.
Ko'rib qayta-qayta man,
O'z-o'zimga aytaman,
Rost donolar so'zlari:
Ko'p o'qigan o'zadi.

(Dilshod Rajab)

Uyga vazifa. «Men yoqtirgan ko'rsatuv» mavzusida so'zlab bering.

VII MAVZU. KUZGI NE'MATLAR

(Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan bo'lishsizlik
olmoshlarining qo'llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Rasmlar asosida kuz faslida tabiatda ro'y beradigan o'zgarishlarni so'zlab bering.

2- topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

G'ir-g'ir shamol yeladi
Buni hamma biladi,
O'giradi yelga yuz.
— Marhamat! Kel, oltin kuz!
Qo'lda kitob hamda gul.
Oltin oqar daladan,
Tong yorishgan palladan

Quyosh tushar taftidan,
Qo'rqib qishning aftidan.
Sarg'ayadi ko'katlar,
Barg to'kadi daraxtlar.
Maktab borar qiz-o'g'il,
Hosil yig'ib olinar,
Qishga zamin solinar.

(Shukur Sa'dulla)

quyosh tafti — солнечное тепло
yuz o'girmoq — разворачиваться
tong yorishmoq — рассветать
sarg'aymoq — желтеть

yel — ветерок
aft — лицо
dala — поле
palla — время

parvarish qilmoq — ухаживать
yetishtirmoq — выращивать
zamin solmoq — создать основу

qo'rqmoq — бояться
poliz — огород, бахча
ko'kat — зелень

1-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'no-lariga e'tibor bering.

Oltin kuz

Kuz fasli **hech qaysi** mamlakatda bizning yurtimizdagidek to'kin-sochin bo'lmaydi. Kuzda bog'larda mevalar, polizlarda sabza-vot mahsulotlari, qovun-tarvuzlar pishadi. Bozor rastalari kuz ne'-matlari: uzum, anjir va anorlarga, qovun-tarvuzlarga to'lib ketadi. Sahovatli diyorimizni **hech bir** mamlakatga tenglashtirib ham, **hech qaysi** yurtga almashtirib ham bo'lmaydi.



Bo'lishsizlik olmoshlari so'roq olmoshlariga hamda bir, narsa so'zlariga hech so'zini qo'shish orqali hosil qilinadi. *Masalan: **hech bir, hech narsa, hech kim, hech nima, hech qaysi, hech qancha, hech qanday, hech qayer** kabi.* Hech narsa, hech kim, hech nima shaxs va narsa-buyumni; hech bir, hech qaysi, hech qancha, hech qanday olmoshlari narsa-buyumning belgisi yoki miqdorini; hech qayer, hech qachon so'zlari esa o'rni yoki paytni inkor qilish uchun ishlatiladi.

2- mashq. Berilgan so'zlarga avval har, keyin hech so'zini qo'shib, yangi so'zlar hosil qiling va shu so'zlar asosida matn tuzing.

Kim, nima, qanday, bir, qancha, narsa, qachon, qayer.

3- mashq. Matnda berilgan mevalarning nomini ajratib yozing.

Kuz ne'matlari

Sahovatli kuz. Mevalar g'arq pishgan. Bir yoqda anjir, shafto-lilar, ikkinchi tomonda esa uzum pishib yotibdi. Hasharchilarning

bir guruhi olma, nok va olxo'ri terishmoqda, ikkinchi guruhi esa terilgan mevalarni qutilarga joylamoqda. Mevalar sotish uchun bozorlar va do'konlarga, sharbat tayyorlash uchun zavodlarga yuboriladi. Polizlarda ham ish qizg'in. Dehqonlar qovun, tarvuz, kartoshka, sabzi, sholg'om, pomidor kabi mahsulotlarni uzib, bozorlarga yetkazmoqdalar.

3- topshiriq. Guruhlarga bo'lining va «Kim ko'p biladi?» o'yinini tashkil qiling. 1- guruh poliz ekinlarini, 2- guruh mevalarning nomlarini topishi va doskaga to'g'ri yozib chiqishi kerak.

Uyga vazifa. Kuz ne'matlarining nomlarini va ularning foydali xususiyatlarini yozing.

2 - dars

4- topshiriq. She'rini ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Kuz

Marvarid kuz
Qildi ko'z-ko'z
Bisotida borini.
Bog'da xil-xil
Meva hil-hil,
Sanab bo'lmas barini.
Istasangiz
Saylab-saylab
Husaynidan uzasiz.
Nok, shaftoli,
Anjir boli
Hudi qaymoqmi deysiz...

Ko'ngil ochar,
G'ashlik qochar
Oralasang pushtani.
Chindan arzir
Ta'riflasang,
Kuzdagi nonushtani.
Shunday go'zal,
Shunday asal
Ehson tutgan o'zi kim?
Dehqon og'am,
Dehqon tog'am,
O'sha dehqon amakim!

(Yo'ldosh Sulaymon)

bisot — приданое
arzimoq — быть равным
hil-hil — зрелый

in'om etmoq — дарить
marvarid — жемчуг
quchoq — объятие

ehson — дар	pushta — грядка
poliz ekinlari — огородные растения	
savdo rastalari — торговые ряды	



Bo'lishsizlik olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi mumkin. *Masalan:*

hech kim	}	+ -ni, -ning, -ga, -da, -dan
hech nima		
hech narsa		

Ayrim olmoshlarga avval egalik qo'shimchalari, so'ngra kelishik qo'shimchalari qo'shilib keladi. *Masalan:*

hech qaysi	}	+ imiz + -ni, -ning, -ga, -da, -dan
hech bir		
hech qayer		

4- mashq. Olmoshlarni berilgan so'zlar bilan almashtirib, namuna-dagidek gaplar tuzing.

Har birimiz, hech biringiz, hech qaysingiz
Namuna. Biz qovunlarni uzdik.

Biz	qovunlar	}	-ni	uzmoq
	uzumlar			
	tarvuzlar			

Siz	anorlar	}	-ni	termoq
	olmalar			
	xurmolar			

5- mashq. Qavs ichida berilgan so'zlardan mosini qo'yib yozing.

Hosil bayrami

Kuz faslida (har yili, hech qachon, yil bo'yi) yetishtirilgan mo'l hosil yig'ib-terib olinadi. (Har yili, hech qachon) kech kuzda respublikamizning (barcha, har bir) shaharlarida hosil bayrami o'tkaziladi.

Hosil bayrami kunlari shirin-shakar mevalar va poliz ekinlari savdosi tashkil etiladi. Savdo rastalarida (turli, hech qaysi, hech qancha) viloyatlardan olib kelingan uzum, anor, olma, nok, anjir, qovun, tarvuz, kartoshka, piyoz, sabzi, turp kabi mevalar va poliz ekinlari arzon narxlarda sotiladi. Dehqonlar yetishtirgan hosillarini (barcha, har bir, har qaysi) shaharliklarga in'om etadilar.



Adabiy o'qish

O'zbekiston

Bog'laringmi chiroying, yurtim?

Chamaningmi, ey go'zal diyor?

Unday desam, ko'p yurtlar ko'rdim:

Har o'lkada bor bog'-u gulzor.

Yo quyoshning yorug' manzili

Osmoningmi ochgan husningni?

Yo tog'laring chiroy azmimi

Mag'rur qilib bezagan seni?

Shaftolizor, olmazorlarning,

Gul faslimi yo xirmoningmi?

Yoki tengsiz so'lim chiroying

Ishkomlaring xiyobonimi?

Go'zalliging, yurtim, kamoling

Daryolaring, irmoqlaringmi?

Yoki porloq yorug' jamoling

Yulduzlaring, chiroqlaringmi?

(Mamarasul Boboyev)

batafsil — полностью

haqiqiy — реальный

chaman — цветочный сад

ishkom — виноградник

tengsiz — бесподобный

bezatmoq — украшать

teskarisi — обратный

mag'rur — гордый

kamol — зрелость

Uyga vazifa. She'rni yod oling.



VIII MAVZU. KUTUBXONADA

(Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarining qo'llanishi)



1 - dars



1- topshiriq. Suhbatni o'qing va berilgan rasm asosida davom ettiring.

Kutubxonada

O'quvchi: — Assalomu alaykum!

Kutubxonachi: — Vaalaykum assalom! Keling.

O'quvchi: — Kutubxonaga a'zo bo'lsam bo'ladimi?

Kutubxonachi: — Albatta, mana bu kitobxon daftarchasini to'ldiring.

O'quvchi: — Xo'p. Mana, marhamat.

Kutubxonachi: — Qaysi sinfda o'qiysiz?

O'quvchi: — 6- «A» sinfida.

Kutubxonachi: — Juda yaxshi. Bugun kitob olmoqchimisiz?

O'quvchi: — Ha, albatta.

Kutubxonachi: — Qaysi kitobni beray?

O'quvchi: — Menga...

1- mashq. Matnni o'qing. Ajratib yozilgan so'zlarga e'tibor bering.

Men kitob o‘qishni yaxshi ko‘raman. Darsdan keyin sinfdoshlarim bilan maktab kutubxonasiga kiramiz. U yerda juda ko‘p kitoblar bor. **Kimdir** hikoya va ertaklarni o‘qishni, **kimdir** she’riy asarlarni, yana **kimdir** sarguzasht asarlarni sevadi. Biz kitoblardan turli mamlakatlar va xalqlar hayotiga oid qiziqarli ma’lumotlarni bilib olamiz.

Kitob o‘qiyotganda o‘zimizni asar qahramonlaridek his qilamiz. **Qaysidir** mamlakatda **kimlarningdir** qilgan qahramonliklarini xuddi o‘zimiz qilayotgandek bo‘lamiz. Kitob o‘qish kishining bilimini oshiradi, o‘ylashga, fikrlashga o‘rgatadi. Kitoblar bizning so‘z boyligimizni ham oshiradi.

sarguzasht — приключение
fikrlash — мыслить

qahramonlik — героизм
boylik — богатство



Gumon olmoshlari shaxs va narsa-buyum, ularning belgi, miqdori, o‘rni, payti noaniqligini ifodalovchi so‘zlardir. Ular so‘roq olmoshlari oldidan *-alla* yoki ulardan keyin *-dir* qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilinadi. *Masalan: allakim - kimdir, allanima - nimadir, allaqaysi - qaysidir, allaqancha - qanchadir, allaqanday - qandaydir, allaqachon - qachondir* kabi.

2- mashq. Berilgan so‘zlarga *-alla* yoki *-dir* qo‘shimchasini qo‘shib, gumon olmoshlarini hosil qiling.

Kim, nima, qanday, qancha, qaysi, qachon, qayer.

3- mashq. Qavs ichida berilgan olmoshlardan mosini qo‘yib gaplarni to‘ldiring.

1. Kutubxonada ... (har qancha, allaqancha) kitoblar bor.
2. O‘quvchilardan biri ... (nimadir, allanima) dedi.
3. ... (Qaysidir, allaqancha) yurtda konfet daraxti bor ekan.
4. Qadim zamonlarda bir podshohning ... (qanchadir, allaqancha) xazinasi bor ekan.

4- mashq. Gaplarni o'qing. Gumon olmoshlarini topib, qo'llanishini tushuntiring.

1. Kutubxonada o'quvchilar ko'p edi: kimdir berilib kitob o'qi-yapti, kimdir yozib o'tiribdi. 2. Bu gap qachondir oshkor bo'lishini bilar edim. 3. Ikkovi bir-biriga nimalarnidir uqtirardi. 4. Akamga allakim qo'ng'iroq qildi. 5. Bir bor ekan, bir yo'q ekan, allaqaysi mamlakat podshohining sehrli qushi bor ekan. 6. Qaysidir maktabning 6- sinf o'quvchisi olimpiadada g'olib bo'libdi.

2- topshiriq. «Bilasizmi?» ruknini o'qing. Kim nimani o'rgan-ganligini yozib chiqing.

Namuna: al-Xorazmiy matematikani o'rgangan.

BILASIZMI?

* Al-Xorazmiy X asrda yashagan buyuk matematik olim edi. Uning «Al-Jabr va al muqobala» kitobi algebra faniga asos solgan.

* Abu Ali ibn Sino 980- yilda tug'ilgan. U «Tib qonunlari» kito-bida juda ko'p kasalliklarni davolash yo'llarini yozgan.

* Al Beruniy X asrda yashab o'tgan buyuk tarixchi va matematik olim edi. U dunyo xaritasini chizgan, Hindiston tarixini yozgan.

* Mirzo Ulug'bek (XV asr) ham shoh, ham astronom edi. U o'z yurtida birinchi bo'lib observatoriya (rasadxona) qurdirgan va yulduz-lar ilmini o'rgangan.

Uyga vazifa. Maktabingiz kutubxonasidan olgan kitoblaringiz ro'yxatini tuzing va kutubxona haqida so'zlab bering.

2 - dars

3- topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

- Aziz, qayerdan kelyapsan?
- «Bolalar ijodiyoti uyi» dan. O'zing-chi?
- Men «Ma'rifat markazi» dan kelyapman.



- U yerda nima qilding?
- U yerdagi elektron kutubxonadan turli mamlakatlar haqida ma'lumot olmoqchi edim.
- Elektron kutubxonaning boshqa kutubxonalardan qanday afzalliklari bor?
- Bu eng tezkor kutubxona. Bir necha daqiqada istalgan ma'lumotni olish mumkin.
- Men ham elektron kutubxonaga yozilsam bo'ladimi?
- Albatta.
- Keyingi safar borganingda men ham birga boraman.
- Bo'пти, kelishdik.

5- mashq. Matndagi olmoshlarni aniqlang va ma'nosini izohlang.

Ma'rifat markazi

Poytaxtimizning Alisher Navoiy ko'chasida «Ma'rifat markazi» majmuasi barpo etildi. Bu nihoyatda go'zal va salobatli majmuada elektron kutubxona ham mavjud. Yakshanba kuni akam bilan ushbu kutubxonaga bordik. Elektron kutubxonada barcha sohaga oid ma'lumotlar bor ekan. Akam menga kerakli ma'lumotni topish uchun qaysi fayllarga qanday kirish kerakligini o'rgatdilar. Jahonning qaysi mamlakatida nimalar kashf qilinganini bilish uchun men bu kutubxonaga tez-tez borib turaman.

majmua — комплекс

kashf qilmoq — изобретать

salobatli — видный, авторитетный

mavjud — есть, существующий

6- mashq. Gaplarni ko‘chiring. Gumon olmoshlari qaysi kelishik qo‘shimchalari bilan kelganligini aniqlang.

1. Dadasi allamahalda ishdan qaytdi. 2. Uzoqdan kimningdir sharpasi ko‘rindi. 3. Birovlarning gapi bilan ish tutma. 4. Tashqaridan allakimning ovozi eshitildi. 5. Pufak allanarsaga tegib yorildi. 6. Go‘zal dugonasiga nimalarnidir aytmoqchi bo‘ldi. 7. Allaqayerdan bulbulning sayrashi eshitildi.



Gumon olmoshlariga ko‘plik qo‘shimchalari kelishik qo‘shimchalaridan oldin qo‘shiladi. *Masalan:* **kimdir** — **kimlargadir**, **nimadir** — **nimalarni**, **birovlarning** kabi. birov, biron, biror so‘zlari gumon olmoshlari bo‘lib, ular bir so‘ziga **-ov**, **-on**, **-or** qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilingan Biron, biror so‘zlari biron-bir, biror-bir shaklida ham qo‘llanadi.

4- topshiriq. Matnni o‘qing. Gumon olmoshlarini toping va qanday qo‘shimchalar bilan qo‘llanganini ayting.

Men kutubxonadan kitob olib, sinfga kirdim.

— Sen kutubxonadan biron-bir kitob oldingmi? — deb so‘radi Nargiza.

— Ha, juda qiziq kitob — Xudoyberdi To‘xtaboyevning «Shirin qovunlar mamlakatida» asarini oldim. Sen bu kitobni o‘qiganmisan?

— Yo‘q, kimdandir bu kitob haqida eshitgan edim, — dedi Nargiza.

— Qaysi biringiz bu kitobni o‘qigansiz? — deb so‘radim men Munira va Nigoradan.

— Yo‘q, biz ham o‘qimaganmiz. Mayli, desang, sen bilan birga o‘qiymiz.

Darsdan keyin ular biznikiga kelishdi. Biz allamahalgacha «Shirin qovunlar mamlakatida» asarini o‘qidik.



Kitob o'qishning hikmati

Ibn Sino har kuni tong otarda kutubxonaga kelib, ba'zan nonush-tani ham shunda qiladigan bo'ldi. Erta-yu kech kitob mutolaasi bilan band bo'lar, dilida esa bitta orzu, lekin uni Xojaga aytishga negadir tili bormas, bunga «ziqna» kutubxona sohibi rozi bo'lmasligini ham bilardi. Oqibat shunday bo'ldiki, bir kuni Ibn Sino mutolaaga berilib ketib, kech bo'lganini ham bilmay qolibdi. Xoja esa uni allaqachon ketib qolgan deb o'ylab, eshikni qulflab uyiga jo'nagan. Ertalab kelib, eshikni ochib kirsam, Ibn Sino kitob mutolaa etib o'tirgan ekan.

— Ma'zur tuting, taqsir, bilmay eshikni qulflab keta beribman.

— Sizga ko'p rahmat bu ishingiz uchun, — dedi kulib Ibn Sino.
— Bunday keyin ham ustimdan qulflab keta bering. Ming-ming ro-zidurman. Zero, men bu kecha xazina ichida yotdim ...

— Bunday qilishga mening haqqim yo'q. Darvoqe, shuni ham aytib qo'yayki, bittayam kitobni uyingizga berolmayman.

Gap tamom. Endi hamma narsa ravshan. Kutubxona ishonchli qo'lda. Ibn Sino buning uchun dildan xursand. Axir jahonda tengi yo'q bu kutubxonani saqlash, avaylab kelajak avlodlarga yetkazmoq kerak. Axir bu ma'naviyat xazinasini to'plash uchun allaqancha yil-lar kerak bo'lgan-ku!

(Maqsud Qoriyev)

mutolaa etmoq — читать

ma'zur tut(moq) — извинять

haq — право

tengi yo'q — неподобный

rozi bo'lmoq — быть довольным

ishonchli qo'l(da) — в надёжных руках

ziqna — скупой

yillar — годы

darvoqe — кстати

ravshan — яркий,
ясный

Uyga vazifa. Matndan gumon olmoshlari qatnashgan gaplarni aniq-lab daftaringizga yozing.

IX MAVZU. QADIMIY VA NAVQIRON SHAHARLAR

(Ozaytirma darajadagi sifatlarning qo'llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Savollar asosida o'zaro suhbatlashing.

- Rasmda qaysi tarixiy obida tasvirlangan?
- U qaysi shaharda joylashgan? Siz bu shaharga borganmisiz?
- Yana qaysi qadimiy shaharlarni bilasiz?
- Siz yashaydigan shaharda qanday qadimiy me'moriy obidalar bor?

1- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Samarqand

Samarqand jahondagi eng qadimiy shaharlardan biridir. Arxeologlar Samarqandning **salkam 3 ming yillik** tarixga egaligini aniqlashgan. U qadimda Marokand, Afrosiyob nomlari bilan atalgan. Samarqandning dunyoga tanilishida bobomiz Amir Temurning xizmatlari katta bo'lgan. Ular Samarqandda juda ko'p madrasalar, maqbaralar qurdirganlar, bog'lar barpo etganlar. Ayniqsa, Registon

maydonidagi bir-biridan **salobatliroq** madrasalar, **ko‘kish** gumbazlar, **sarg‘ish**, **qizg‘ish** ranglar bilan sirlangan serhasham ustunlar barchani o‘ziga maftun etadi. Jahonning biror mamlakatida qadimiy obidalar jamlangan bunday go‘zal maydon yo‘q.

salkam — почти
gumbaz — купол
ustun — колонна
tanilmoq — быть знаменитым

ko‘kish — синеватый
maftun et(moq) — очаровывать
jamlangan — собранный



Sifatlarning ozaytirma darajasi **-mtir**, **-imtir**, **-ish** qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilinadi va belgining kamligi, kuchsizligini bildiradi. *Masalan: qoramtir, ko‘kimtir, sarg‘imtir, oqish, ko‘kish, sarg‘ish* kabi. Ushbu qo‘shimchalar qo‘shilganda, ayrim tovush o‘zgarishlari yuz berishi mumkin. Shuningdek, **-roq** qo‘shimchasi ham belgini ozaytirib ifodalaydi. *Masalan: sariq+ish = sarg‘ish, qizil+ish = qizg‘ish* kabi.

Belgi bildiruvchi so‘zlarning darajalanishini yodda tuting!

Oddiy daraja

qizil
katta
qora
pushti
kichik
nordon



-roq

Ozaytirma daraja

qizilroq
kattaroq
qoraroq
pushtiroq
kichikroq
nordonroq

qizg‘ish

qoramtir

2- mashq. Berilgan rang-tus bildiruvchi so‘zlarga **-mtir**, **-imtir**, **-sh**, **-ish** qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib so‘z birikmasi tuzing.

Namuna. Qora - qoramtir: qoramtir mato.

Qizil, sariq, oq, ko‘k.

3- mashq. Nuqtalar o‘rniga otlarga mos sifatlar qo‘yib, so‘z birikmalari tuzing.

... minora	... bino	... shahar
... osmon	... qal’a	... ko‘cha
... obida	... qasr	... madrasa
... maydon	... maqbara	... mehmonxona

2- topshiriq. Foydalanish uchun berilgan so‘zlar yordamida savollarga javob bering.

1. Registon maydonidagi madrasalar qanday nomlanadi?
2. Mirzo Ulug‘bek qaysi madrasani qurdirgan?
3. Ushbu madrasalarda kimlar tahsil olganlar?

Foydalanish uchun: Sherdor, Tillakori, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ali Qushchi, Bibixonim, Go‘ri Amir.



Mirzo Ulug‘bek



Alisher Navoiy



Zahiriddin
Muhammad Bobur


4- mashq. Matnni o‘qing va qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldiring.

Samarqand Markaziy Osiyodagi eng qadimiy va zamonaviy shaharlardan biri. Bu yerda juda ko‘p oliy o‘quv yurtlari, ko‘p qavatli muhtasham binolar, go‘zal xiyobonlar bor. ...

Bugungi kunda Samarqand rivojlangan sanoat shahri hamdir. Samarqanddagi ... mashinasozlik zavodida chiqarilayotgan ... boshqa mamlakatlarga ham eksport qilinmoqda. ...

Uyga vazifa. «Qadimiy va zamonaviy Samarqand» mavzusida matn tuzing.

2 - dars



3- topshiriq. Berilgan rasmlarni diqqat bilan kuzating va she'rni ifodali o'qing. Olgan taassurotlaringiz haqida so'zlab bering.

Minora

Buxoroda bo'lganingda
Ko'rganmisan, Gulnora?
Shaharning qoq o'rtasida
Turar ulkan minora.
Bulutlarning unga hatto
Tegib o'tar ko'ylagi.
Qancha yurtdan havas bilan
Kelishadi ko'rgani.
Qay tomondan boqma unga
Darrov ko'zga tashlanar.

Qancha ertak, fojialar....
Minoradan boshlanar.
Qariyb ming yil yashamoqda,
Gard qo'nmagan toshiga.
Qaramoqchi bo'lsang unga,
Do'pping tushar boshingdan.
O'ymakorlik naqshlari
Diqqatingni tortadi.
O'tib qolsam yonidan-chi,
Mehrim tag'in ortadi...

(Safar Barnoyev)

minora — минарет
do'ppi — тубетейка

bulut — облака
fojia — трагедия



Ozaytirma daraja sifat oldidan **och, nim, sal, picha, biroz** soʻzlarini qoʻllash yordamida ham ifodalanishi mumkin. Masalan: och yashil, nim pushti, ozgina kattaroq, biroz kichikroq kabi.

5- mashq. Matnni oʻqing. Qaysi shahar necha yoshdaligini yozing.

Bizning mamlakatimizda salkam 3 ming yillik tarixga ega boʻlgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz kabi shaharlar bor. Arxeologlar Samarqandning yoshi 2750 yildan, Buxoro shahrining yoshi 2500, Toshkent shahri 2200 yildan ortiq ekanini aniqlashgan. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari juda koʻp qadimiy obidalari bilan jahonga mashhur. Ularni koʻrish uchun har yili yurtimizga jahonning koʻplab mamlakatlaridan sayyohlar kelishadi.

bashik — колыбель
yasharmoq — помолодеть

deyarli — почти
navqiron — молодой человек

6- mashq. Berilgan soʻzlardan ozaytirma darajadagi sifatlarni hosil qiling.

Baland, past, qisqa, ulkan, silliq, eski, tor, keng, salobatli

7- mashq. Matnni foydalanish uchun berilgan soʻzlar bilan toʻldirib koʻchiring.

Men ... shahrida yashayman. Bizning shahrimiz juda ... va ... shahar. Shahrimiz koʻchalari Shahrimizga ... minoralar, ... madrasalar bor. Ularni koʻrgani har yili ... mamlakatlardan minglab sayyohlar kelishadi. Hozirgi kunda shahrimizda koʻplab ... binolar ham qurilmoqda. Men shunday ... va ... shaharda tugʻilganimdan faxrlanaman.

Foydalanish uchun soʻzlar: qadimiy, uzoq, koʻrkam, Buxoro, ulkan, navqiron, obod, zamonaviy.



Dehqonbobo va o'n ikki bolakay

Qani, ayting-chi, bir-bir
O'sgan joyingiz otin.
Bilarmisiz, bolalar,
O'lkangizning hayotin?
Birinchi bo'lib Anvar
Dedi: — Shahrimiz Toshkent
O'lkada poytaxt, rahbar.
— Men Orolning bo'yida
O'sganman, — der Matmurod.
— Bobom baliqchi dongdor,
Mo'ynoqda chiqargan ot.
Shu payt Madaminjonning
Ilhomi ham jo'shdi-ku,
Paxtakorlar darg'asi
Andijonni qo'shdi-ku.
Farg'onaning nomidan
Yo'ldoshali aytdi so'z.
Namangan bog'larini
Fattohjon qildi ko'z-ko'z.

Xorazmni Odamboy
Maqtab qoldi yo'lakay.
Beruniy bobosin ham
Eslab qo'ydi bolakay.
Kogonlik qiz Zevarxon
Suhbatga berib oro,
Dedi: — Oltinga kondir
Bizning qadim Buxoro.
Oxiri tilga kirdi,
Samarqandlik Hakimjon.
Dedi: — Bizning shaharni
Biladi butun jahon.
Dehqonbobo jilmayib:
— Bolalar, balli! — dedi.
Siz atagan har bir joy
Bitta bo'ston bo'ladi.
Hammasini qo'shsangiz
O'zbekiston bo'ladi.

(*Abdulla Oripov*)

rahbar — руководитель
baliqchi — рыболов
dongdor — знаменитый
ilhom — вдохновение

yo'lakay — по-пути
jilmaymoq — улыбаться

Uyga vazifa. She'rni yod oling




X MAVZU. TABIAT VA IQLIM

(Orttirma darajadagi sifatlarning qo'llanishi)



1 - dars



1- topshiriq. Berilgan tayanch soʻzlar yordamida rasmlardagi tabiat koʻrinishini tasvirlang.

Tayanch soʻz birikmalari: baland togʻlar, koʻm-koʻk adirlar, yam-yashil archalar, toza havo, moviy osmon, pagʻa-pagʻa bulutlar

1- mashq. Matnni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni oʻzi bogʻlangan soʻzlar bilan koʻchiring.

Oʻzbekiston tabiati

Oʻzbekistonning tabiati juda goʻzal. Oʻlkamizda nihoyatda keng sahro-yu dashtlar va **benihoya baland** togʻlar, sersuv daryolar va suvsiz choʻllar mavjud. Respublika tabiatini uch qismga boʻlish mumkin. Sharq va janubi-sharqda togʻlar va togʻ oldi vodiylar, gʻarbiy qismda — choʻllar va yarimchoʻllar, janubi-gʻarb va shimoli-gʻarbda — tekisliklar bor. Togʻlarning **eng baland** choʻqqisi — 4688 metr. Togʻ oldilarida **tengsiz keng** adirlar, togʻlar oraligʻida **xiyla katta** pasttekisliklar — Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon va Samarqand pasttekisliklari bor. Oʻzbekiston oʻsimliklar dunyosiga **gʻoyatda** boy oʻlka.

(«Oʻzbekiston ensiklopediyasi»dan)

nihoiatda, benihoya — очень
sersuv — многоводный
yarimcho'l — полустепь
pasttekislik — низкая равнина

tekislik — равнина
sahro, cho'l — степь
tog' oldi — пригорье



Orttirma daraja belgi bildiruvchi so'zlarga **juda, nihoiatda, eng, hammadan, g'oyat, g'oyatda, benihoya, behad, to'q, tim** kabi so'zlarni qo'shish orqali hosil qilinadi va belgining oddiy daraja holatidan ortiq ekanligini bildiradi. **Masalan:** *juda baland, nihoiatda keng, g'oyat go'zal, eng katta, tim qora, to'q yashil* kabi.

Orttirma darajaning hosil qilinishi:

Oddiy daraja

yaxshi
kuchli
aqlli
nafis
kamtar
go'zal

Orttirma daraja

*juda yaxshi
nihoiatda kuchli
hammadan aqlli
eng nafis
g'oyatda kamtar
behad go'zal*

2- mashq. Berilgan so'zlarga juda, eng, g'oyat, g'oyatda, nihoiatda so'zlarini qo'shib, orttirma darajadagi sifatlarni hosil qiling.

Go'zal, issiq, iliq, yoqimli, katta, keng, yashil, boy, chuqur, tiniq, ko'k, yaxshi

3- mashq. Nuqtalar o'rniga orttirma darajani ifodalovchi so'zlardan mosini qo'yib matnni ko'chiring.

O'zbekistonning tabiati ... xilma-xil. O'lkamizda ... baland tog'lar, ... keng sahro-yu cho'llar, ... vodiylar bor. O'zbekiston, ayniqsa, o'simliklar dunyosiga ... boy. Tog'lar va daralarda ... shifobaxsh o'simliklar o'sadi. Respublikamiz hududidagi ... katta

daryolar Amudaryo va Sirdaryodir. Ushbu daryolar oraliqlaridagi ... vodiylar bor. Vodiylarda shahar va qishloqlar ... ko‘p.

2- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O‘zbekiston hududida qanday tog‘lar, cho‘llar va vodiylar bor?
2. Respublikamizda qanday o‘simliklar o‘sadi?
3. Hududimizdan qaysi daryolar oqib o‘tadi?

3- topshiriq. «O‘zbekiston» she‘ridan parchani ifodali o‘qing. She‘rda tasvirlangan tabiat manzaralari haqida so‘zlab bering.

O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,
Dostonlarda bitgan guliston.
Chiroylidir go‘yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog‘lar turar qoshida,
Gul-vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam.

(Hamid Olimjon)




Uyga vazifa. Tabiat manzaralarini kuzating. O‘zingizga yoqqan fasl haqida so‘zlab bering.

2 - dars

4- mashq. Matnni o‘qing. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor bering.

O‘zbekiston iqlimi

O‘zbekiston ochiq dengiz havzalaridan ancha uzoqda joylashgan. Shu bois bu yerning iqlimi issiq va **juda quruq**. Bu mintaqada yil davomida yog‘ingarchilik **kamroq**, quyoshli kunlar **ko‘proq** bo‘ladi. Qish **xiyla sovuq**, yoz esa **juda issiq** va davomli bo‘ladi. **Eng sovuq**



oy yanvar, **eng issiq** oy esa iyul oylaridir. Bu yerda bulutsiz kunlar **juda ko‘p**, bulutli kunlar esa **juda kam** bo‘lishi kuzatiladi.

(«O‘zbekiston ensiklopediyasi»dan)

iqlim — климат

yog‘ingarchilik — ненастье

bulutsiz — безоблачный

havza — бассейн

mintaqa — регион

shu bois — поэтому

4- topshiriq. Rasmlarni kuzating. Turli fasllarda tabiat va iqlimda yuz beradigan o‘zgarishlarni tasvirlang.



Orttirma daraja sifatning birinchi bo‘g‘iniga **p, m, k, s** kabi tovushlarni qo‘shib takrorlash yo‘li bilan ham hosil qilinadi. Masalan: *yap-yangi, dum-dumaloq, qip-qizil, qop-qora, pak-pakana*, kabi. **Bunday sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, faqat oq sifatining orttirma darajasi oppoq shaklida qo‘shib yoziladi.**

5- mashq. Berilgan sifatlarning orttirma darajalarini yozing.

Namuna. Qizil — to‘q qizil, qip-qizil.

Qizil, katta, salqin, kichkina, yorug‘, sariq, toza, yashil, tiniq, quruq.

6- mashq. Matndagi belgi bildiruvchi so‘zlarni aniqlang va ularni orttirma daraja shaklida yozing.

O‘zbekiston iliq mintaqada joylashgan. Bu yerda qishda qattiq sovuq bo‘lmaydi. Yoz quruq va issiq keladi. Tog‘ yon bag‘irlarida salqin va xushhavo joylar ko‘p. Ayniqsa, Chotqol, Chimyon, Burchmulla, Zomin tog‘ tizmalari atroflari toza va salqin havosi, go‘zal xushmanzara tabiati bilan barchani o‘ziga maftun qiladi. Bu joylar shifobaxsh o‘simliklarga juda boy.



1. Atrofingizda qanday tog‘, daryo yoki cho‘llar bor?
2. Shahringiz (tumaningiz, qishlog‘ingiz) atrofida dam olish maskanlari bormi?

5- topshiriq. Vaziyatli topshiriqlarni bajaring.

1. Siz bekatda turibsiz. Yoningizda bir bola pista chaqib, po‘chog‘ini yerga tashlayapti. Siz bunga qanday munosabat bildirasiz?

A) unga po‘choqlarni maxsus idishga tashlash kerakligini tushuntirasiz.

B) e‘tibor bermaysiz.

C) o‘zingiz po‘choqni to‘plab maxsus idishga tashlaysiz.

2. Ko‘chada bolalar daraxt shoxlarini sindirib, gullarni uzib, bir-biriga otib ketishyapti? Siz qanday yo‘l tutasiz?

A) ularga daraxtlarni sindirish, gullarni uzish mumkin emasligini tushuntirasiz.

B) sinf rahbaringizga aytib berasiz.

C) e‘tibor bermaysiz.



Adabiy o‘qish

Toza havo — tanga davo

Toza havo inson salomatligi uchun eng zarur vositalardan biridir. Havoning ifloslanishi barcha o‘simliklar va hayvonlarga ham katta zarar keltiradi. Changda qolgan gullar, daraxtlarning burishib, kichkina bo‘lib qolganiga e‘tibor berganmisiz? Insonda ham xuddi shunday. Nafas yo‘li orqali organizmga kirgan changlar, turli gaz, tutunlar o‘pkaga o‘tib, uni asta-sekin zaharlay boshlaydi.

Toza havoni ifloslantiruvchi boshqa omillar ham bor. Mashina yoqilg‘ilaridan, turli korxonalardan chiqadigan gazlar, tutunlar atrofga tarqalib, eng avvalo, toza havoni ifloslantiradi. Kuzda ba‘zilar ko‘chalarda hazonlarni yoqadilar. Hazon tutunida zaharli moddalar ko‘p. Ularning atrofga tarqalishi ko‘plab zararli oqibatlariga olib kelagi.

Havoning tozaligini saqlash uchun ko‘chalar, korxonalar, ta‘lim maskanlari atrofini ko‘kalamzorlashtirish, tozalik va ozodalikka katta ahamiyat berish lozim. Daraxtlar ushbu tutun va gazlardan insonlarni himoya qiladi. O‘zidan kislorod chiqarib havoni tozalab turadi. Havoning musaffoligi, tozaligi inson salomatligi uchun juda ham muhim.

ifloslanish — загрязнение

o‘pka — легкие

zaharli — ядовитый

musaffo — чистый

zarar — вред

omil — фактор

chang — пыль

muhim — важный

Uyga vazifa. «O‘lkamiz tabiati va iqlimi» mavzusida matn tuzish.

XI MAVZU. CHIMYON TOG‘LARIDA

(Chama sonlarning yasalishi va qo‘llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Rasmlarni kuzating va berilgan tayanch so‘zlar asosida o‘zaro suhbatlashing.

Tayanch so‘zlar: tog‘ tizmalari, qorli cho‘qqilar, eng baland cho‘qqi, ko‘m-ko‘k archazorlar, dam olish maskani, dam oluvchilar.

1- mashq. Matnni o‘qing va savollarga javob bering. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor bering.

Chimyon tog‘larida

Chimyon tog‘ tizmalari respublikamizning eng so‘lim joylaridan biri. U yerda yil bo‘yi dam olish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Har yili Chimyonda **minglab** shaharliklar hordiq chiqaradilar. Chimyon yozda ham, qishda ham juda go‘zal bo‘ladi. Chimyon qishda, ayniqsa, juda gavjum bo‘ladi. Qishda bu joylarga qor nihoyatda qalin tushadi. Ayniqsa, qishki ta‘til kunlarida chang‘i va chanalarda uchish uchun **minglab** yoshlar Chimyonga yo‘l oladilar. Hatto katta yoshlilar ham tog‘ havosidan to‘yib nafas olish va hordiq chiqarish maqsadida Chimyonga keladilar.

so‘lim — красивый
sharoit — условие

qulay — удобный
hordiq — отдых



1. Chimyonda kimlar hordiq chiqaradilar?
2. Dam olish kunlari va qishki ta'til kunlarida kimlar Chimyonga yo'l oladilar?
3. Tog'dagi osma yo'lda uchganmisiz? U yerdan nimalar ko'rinadi?



O'zbek tilida chama sonlar shaxs va narsa-buyumning taxminiyl miqdorini bildiradi va sanoq sonlarga **-tacha, -larcha, -lab** qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinadi va **qancha? nechta?** so'roqlariga javob bo'ladi. *Masalan:* Chimyonga har yili minglab odamlar dam olgani keladilar. Kutubxonadan o'ntacha kitob oldik.

2- mashq. Berilgan raqamlarni harflar bilan yozing va ulardan chama sonlar hosil qiling.

10, 15, 25, 50, 100, 1000.

3- mashq. Qavs ichida berilgan sonlarni chama ma'nosida qo'llab gaplarni ko'chiring.

1. Maktabimizda (20) o'quvchi «Yosh alpinistlar» to'garagiga qatnashadi. 2. Sayohatga borish uchun (40) kishi to'plandi. 3. Oromgoh atrofiga (100) archa ko'chatl o'tqazdik. 4. Tog' yonbag'rida (10) dam olish maskani joylashgan. 5. Yoz faslida (1000) odamlar tog'larda dam olish uchun o'tlanadilar. 6. Chimyon tog'laridagi osma yo'l (500 metr) masofani egallaydi.

4- mashq. Matnni qavs ichida berilgan so'roqlar o'rniga mos sonlar qo'yib yozing.

Bizning sinfimiz keng va yorug'. Xonamizda (nechta?) katta

deraza, (nechta?) eshik, (nechta?) javon va doska, (nechta?) stol va (nechta?) stullar bor. Sinfimizda (nechta) o'quvchi o'qiydi. Biz (necha?) qatorga bo'linib, (nechtadan?) o'tiramiz. Maktabimiz bo'yicha (nechtacha?) shunday sinfxonalar bor. Maktabimizda (nechtacha?) o'quvchi o'qiydi.

2- topshiriq. Grammatik topishmoqning javobini toping.

Minglab, o'nlab ham yuzlab,
O'ylab, talab, chamalab,
Olti so'zda olti -lab,
Chama sonni top o'ylab.


Uyga vazifa. Savollarga yozma javob bering.

1. Maktabingizda, tumaningizda qishki o'yinlar bo'yicha qanday musobaqalar o'tkaziladi?
2. Musobaqalarda maktabingizdan nechtacha o'quvchi qatnashdi? Mahallangiz, tumaningizdan-chi?
3. Nechta o'quvchi g'oliblikni qo'lga kiritdi?

2 - dars

3- topshiriq. Suhbat matnini o'qing. Sonlarni aniqlang va turini ayting.

- Jahongir, qishki ta'til kunlari qayerda dam oldingiz?
- Qishki ta'til kunlari uch kunga Chimyonga borib keldik.
- U yerga kimlar bilan bordingiz?
- Sinfimizdan o'n sakkizta o'quvchi, sinf rahbarimiz va yana uch-to'rtta ota-onalar — jami yigirma beshtacha odam bordik.
- U yerda nimalar qildingiz?
- O'ntacha o'quvchi va kattalar osma yo'lda uchdik, qolganlar chang'i, chana uchishdi.
- Chimyonda qayerda turdingiz?
- Bilasanmi, yakshanba kuni Chimyonga minglab odam borgani uchun mehmonxonalar to'la ekan. Shuning uchun biz chang'i sport markazida turdik. Menga u yer juda yoqdi.



Ikkita sonni takrorlash, chamasi, yaqin, taxminan soʻzlarini sonlar bilan birgalikda qoʻllash vositasida ham chama sonlarni hosil qilish mumkin. **Masalan:** *oʻnga yaqin, chamasi qirq yoshlarda, taxminan ikkilarda, oʻn — oʻn besh, yuz — ikki yuz* kabi.

5- mashq. Qavs ichida berilgan raqamlarga mos qoʻshimchalar va soʻzlar qoʻyib, ularni chama son shaklida yozing.

1. Avtobus bekatida (10—15) odam yigʻilib turardi. 2. Akmalni guruh sardori qilib saylashdi, u endi (15) bolaga boshliq boʻldi. 3. Bayram tantanalari sport musobaqalarida bizning maktabimizdan (25) oʻquvchi qatnashdi. 5. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarimizni koʻrgani har yili (1000) sayyohlar kelishadi.

6- mashq. Matnni oʻqing. Chama sonlarni aniqlang va oʻzi bogʻlangan soʻzlar bilan koʻchirib yozing.

Chimyonga sayohat

Anvar aka jiyani Otabekni taʼtil vaqtida Chimyon sayohatiga olib chiqdi. Ertalab soat yettilarda yoʻlga chiqib, taxminan bir soatcha yoʻl bosishgach, Chimyonga yetib kelishdi. Otabek bunday xushmanzara yerlarni birinchi marta koʻrishi edi. Anvar aka rangdor boʻyoqlar bilan toʻrt-beshta manzara rasmini chiza boshladi. Otabek esa atrofni tomosha qildi. Togʻ tepasiga qarab ketgan soʻqmoq yoʻlda yigirma-

o'ttiztacha tog' echkisi o'tlab yurardi. Ikkita-uchta cho'pon bolalar ularga qarab yurardi. Ular Otabek bilan deyarli tengdosh yoki bir-ikki yosh kattaroq bolalar edi. Otabek o'z tengdoshlarining abjirligiga havasi keldi. Shu payt osmonda turli rangda tovlanib turgan kamalak ko'rindi. Otabekning ko'ziga Chimyon yanada go'zal ko'rindi.

osma yo'l — канатная дорога

rangdor — разноцветный

so'qmoq yo'l — тропинка

kamalak — радуга

abjir — ловкий

tengdosh — ровесник

4- topshiriq. Savollarga javob bering. Javoblaringizda chama sonlarni qo'llang.

1. Anvar aka va Otabek Chimyonga soat nechalarda yo'lga chiqdilar?
2. Anvar aka nechta manzaraning rasmini chiza boshladi?
3. So'qmoq yo'lda nechta tog' echkisi o'tlab yurardi?
4. Ularga nechta cho'pon bolalar qarab yurardi?
5. Ular taxminan necha yoshlarda edilar?
6. Chimyon sayohati Otabekda qanday taassurot qoldirdi?



Adabiy o'qish

Bo'stonliq

Bo'stonliqdir bo'stonlarning ko'rkami,
Pskom daryo daryolarning ulkani,
Ugom, Chotqol, Ko'ksuv uning ukasi,
Sharbat suvi mehmoniga tuhfası.

Ko'kni o'pib turar mag'rur Oynatog',
Har qadamda qaynab toshar bir buloq.
Bunda Qrim, bunda Kavkaz havosi.
Ko'rganmisiz Bo'stonliqning tog'larin?
Yurganmisiz kezib gulshan bog'larin?

(R.Daminov)

Uyga vazifa. She'rni yod oling.



XII MAVZU. YANGI YIL REJASI

(Jamlovchi sonlarning yasalishi va qo'llanishi)



1 - dars



1- topshiriq. Rasmlardan foydalanib, savollarga javob bering.

- Qish faslida ob-havo qanday bo'ladi?
- Qishda bolalar qanday o'yinlarni o'ynaydilar?
- Sizga ko'proq qaysi qishki o'yinlar yoqadi?
- Qish faslida qanday bayramlar nishonlanadi?

1- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Qish faslida

Yurtimizda qish fasli. Hamma yoqni oppoq qor qoplagan. Hozir ta'til vaqti. Uyimiz oldidagi maydoncha bolalar bilan to'la. Aziz, Qahramon va Jasur — **uchovlari** Qorbobo yasashyapti. Ukam bilan singlim **ikkovi** chanada uchishdi. Men va o'rtoqlarim Jahongir, Behzod, Qahramon — **to'rtalamiz** konki uchdik va qorbo'ron o'ynadik. O'nlab bolalar ko'chamizdagi qiyalik joyda qorong'i tushguncha sirpanchiq uchishdi. Qishki o'yinlar barchani chiniqtiradi.



O'zbek tilida **jamlovchi sonlar** shaxs va narsa-buyumlarning miqdorini jamlab ko'rsatadi va ikkidandan o'ngacha bo'lgan sonlarga **-ov, -ovlon, -ala** qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinadi. Jamlovchi sonlar, odatda, egalik qo'shimchalari bilan birgalikda qo'llanadi. **Masalan:** *Komila va Nozima — ikkovlari yaqin dugona. Uchalamiz birga dars tayyorladik.*

2- mashq. Berilgan sonlarga jamlovchi sonlarni hosil qiluvchi qo'shimchalarni qo'shib yozing.

Namuna: ikki — ikkov — ikkovlon — ikkala;

Uch, to'rt, besh, olti, yetti.

3- mashq. Nuqtalar o'rniga ajratib ko'rsatilgan so'zlarning jamlovchi son shakllarini yozib gaplarni ko'chiring.

Namuna: Nigora va Aziza yaqin dugona. Ikkalasi bir sinfda o'qiydi.

Nigora va Aziza yaqin dugona. ... bir sinfda o'qiydi.

Akam, ukam va men qorbo'ron o'ynadik. ... bu o'yindan juda zavqlandik.

Aziz, Akbar, Jamshid va Dilshod bir mahallada yashaydilar. Qishki ta'tilda ... tog'da dam olishdi.

Akmal, Naima va yana to'rt o'quvchi yangi yil bayramida faol ishtirok etishdi. ... ham Qorbobodan sovg'a olishdi.

4- mashq. Qavs ichida berilgan raqamlarni jamlovchi son shaklida yozing.

Sinfimizda egizaklar o'qiydilar. Ularning (2) bir-biriga juda o'xshashadi: bo'ylari ham, yuz-ko'zlari ham bir xil. (2) bir xil kiyinishadi, birga yurishadi. Men ularning (2) bilan yaqin o'rtoqman. Ko'pincha (3) birga o'ynaymiz, dars tayyorlaymiz. (3) boks to'garagiga qatnashamiz. Kecha sinfdoshim Jamshid ham shu to'garakka yozildi. Endi to'garak mashg'ulotlariga (4) birga boramiz.

2- topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va suhbatda necha kishi ishtirok etganini aniqlang. So‘ngra suhbatni davom ettiring.

— Bolalar! Ertadan Qishki ta’til boshlanadi. Ta’til kunlarida biz yangi yilni kutib olamiz. Yangi yilni kim qanday kutib olmoqchi?

— Men qishki ta’tilni juda yaxshi ko‘raman. Ta’til kunlari televizorda qiziqarli filmlarni maza qilib tomosha qilaman. Ayniqsa, yangi yil bayrami kunlari juda yaxshi ko‘rsatuvlar namoyish etiladi.

— Men esa qo‘shni bolalar bilan maza qilib qorbo‘ron o‘ynayman, chana uchaman, Qorbobo yasayman. Qishki o‘yinlarni juda yaxshi ko‘raman.

— Men ham bu bayramni yaxshi ko‘raman. Yangi yilni uyda kutib olamiz.

— Yangi yilda biz oilamiz bilan Chimyonga bormoqchimiz. U yerda osma yo‘lda uchmoqchimiz.

— Men esa qishki ta’til kunlarida ...

Uyga vazifa. Qishki ta’til rejasini tuzing.

2 - dars

3- topshiriq. Berilgan tayanch so‘zlar asosida gaplar tuzing.

Oppoq qor, qishki ta’til, qishki o‘yinlar, Qorbobo yasamoq, qorbo‘ron, chana uchmoq, chiniqmoq, xursand bo‘lmoq.

5- mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e’tibor bering.

Yangi yil rejasi

Biz ham har yili yangi yilni barcha oila a’zolarimiz bilan birgalikda kutib olamiz. Oilamizda yangi yilni kutib olishga alohida tayyorgarlik ko‘riladi. Dadam bilan oyim — **ikkovlari** yangi yil dasturxoni uchun xarajat qilib keladilar. Akam, singlim va men — **uchalamiz** uy-hovlilarni yig‘ishtiramiz, archani bezatamiz. Yangi yil

kirishidan oldin dadam buvam bilan buvimni olib keladilar. Ularsiz hech kim dasturxon atrofiga o'tirmaydi. Dadam har yili **oltovimizga**, ya'ni buvam, buvim, oyim va biz — **uchovimizga** alohida sovg'alar beradilar.



Jamlovchi sonlar kelishik qo'shimchalari bilan ham qo'llanadi va ularga mos so'roqlarga javob beradi. **Masalan.** *To'rtovimizni — (kimni?) g'olib deb topishdi. Qorbobo uchalamizga (kimga?) sovg'a berdi.*

6- mashq. Nuqtalar o'rniga mos jamlovchi sonlarni qo'yib yozing.

Yangi yil bayrami rejasini tuzish uchun sinf rahbarimiz, guruh sardori va guruh yetakchisi — ... yig'ildik. Yangi yil bayrami kechasida Dilshod bilan Zebo — ... boshlovchilik qiladigan bo'lishdi. Bayram ssenariysini ... : Aziza, Diyora, Umid va men tuzadigan bo'ldik. Kechamiz juda yaxshi o'tdi. Faol qatnashganimiz uchun sinf rahbarimiz ...mizni maqtadilar.

7- mashq. Matnni o'qing. Qaysi gaplarda jamlovchi sonlarni qo'llash mumkinligini aniqlang.

Archa bayramida

Ta'til kunlarida oyim men, ukam va singlimni sirkka — archa bayramiga olib bordilar. Sirk foyesida bizni va barcha mehmonlarni Qorbobo va Qorqiz kutib oldi. Yasatilgan katta archa atrofida bizga turli tomoshalar ko'rsatishdi. Ukam va singlim Qorqiz bilan birga raqsga tushishdi. She'r va qo'shiqlar aytgan bolalarga Qorbobo sovg'alar ulashdi.

4- topshiriq. Savollarga javob yozing. Javoblaringizda jamlovchi sonlardan foydalaning.

1. Yangi yil bayramini kimlar bilan (jami necha kishi) nishon-lamoqchisiz?

2. Yangi yil bayramiga kimlar bilan (jami necha kishi) qanday tayyorgarlik ko'ryapsiz?

3. Qishki ta'tilda kimlar bilan (jami necha kishi) qayerga bormoqchisiz?

4. Ta'til kunlarida yana nimalar qilishni rejalashtiryapsiz?



Adabiy o'qish

Yangi yil tilagi

Yangi yilim, sen yangilik timsoli,
Qahratonda kulgan quyosh misoli.
Shodlik osmonining yorqin jamoli,
Yangi orzu, yangi baxtlar olib kel.

Niyatlaring pokiza oppoq qorday,
Ko'rkam archang yasangan gulbahorday.
Quvonchimga bu yorug' olam torday,
Yangi sevinch, yangi ahdlar olib kel.

Shod aylagin sen jajji ko'ngillarni,
Ko'rsin senday necha yangi yillarni.
Yaqin etgil nurafshon manzillarni,
Istaklarga ijobatlar olib kel.

(Bahodir Obid)

yangi yil — новый год

ijobat — принятие

yasatilgan — украшенный

istak — желание

pokiza — чистый

qahraton (qish) — суровая зима

rejalashtirmoq — планировать

Uyga vazifa. Yangi yil tabrigini yozing.



XIII MAVZU. ONA YURT POSBONLARI

(Butun va kasr sonlarning yasaliishi va qo'llanishi)



1 - dars



1- topshiriq. Savollarga javob bering va rasm asosida suhbatlashing.

1. Ushbu rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Zobitlar nima qilyapti?
3. Zobitning tiz cho'kib o'tirishida qanday ma'no bor?
4. Siz «Vatan posboni» deganda nimani tushunasiz?

1- mashq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Vatan himoyachilari kuni

Har yili respublikamizda 14- yanvarda «Vatan himoyachilari kuni» bayram sifatida nishonlanadi. Vatan himoyachisi bo'lish eng ulug' burchdir. El-yurt uchun xizmat qilgan odam bir umr qadrlanadi. Bugun akalarimiz ozod Vatanimiz sarhadlarini ko'z qorachig'idek asrashmoqda. Ular bizga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilyaptilar. Shuning uchun ham biz kechalari xotirjam uxlaymiz, ko'chalarda erkin yuramiz, bayramlarda o'ynab kulamiz.

Siz bizning faxrimiz, iftixorimiz, shonimizsiz, askar akalar!



Sonlar matematik miqdorni bildiradigan soʻzlardir.

Ular butunni va uning qismini koʻrsatishi mumkin. Miqdorni butunligicha bildiruvchi sonlar butun son, butunning qismini ifodalovchi sonlar kasr sonlar deyiladi. **Masalan:** *bir (1), yetti (7), uchdan ikki ($2/3$), yuzdan sakkiz ($8/100$) kabi.*

2- mashq. Berilgan sonlarni savollarga mos holda namunadagidek 2 guruhga boʻlib koʻchiring.

<i>Namuna:</i>	Necha?	Nechta?
	ikki	ikkita
	oʻn	oʻnta

Yigirma uch, ming, oʻnta, beshta, toʻrt, toʻqqizta, bir yuz besh, ikki, yuz, ikkita, oʻn besh, qirqta, yigirmata, oʻttiz ikki, oltmish uch, qirq toʻrt, yetmish besh, ellik olti, sakson bir, toʻqson bitta, uch yuzta, toʻrtta, uchta, yigirma yettita, oʻn, bir ming besh yuzta, bir ming toʻqqiz yuz toʻqson bir, ikki ming toʻqqiz, besh yuz mingta, uch ming uch yuz oʻttiz uchta.

3- mashq. Berilgan raqamlarni toʻgʻri oʻqing. Avval butun sonlarni, soʻngra kasr sonlarni daftaringizga harflar bilan yozing.

1 ; 2,5; 5,3; 8, 25; 10, 20.

2- topshiriq. Guruhlarga boʻlining va «Raqamlar tilga kirganda» oʻyinini tashkil qiling. Tabiat va jamiyatda ushbu raqamlarga mos maʼlumotlarni topib yozing.

1, 2, 4, 12.

3- topshiriq. Sheʼrni ifodali oʻqing.

Ona yurt posbonlari

Mard, jasurdir, pahlavon
Vatanim posbonlari.

Yurt uchun ko'ksi qalqon
 Ona yurt o'g'lonlari.
 Asraysiz kelajakni,
 Qasamga sodiq qolib.
 Yovlar yaqin kelolmas,
 Bo'lgaysiz mudom g'olib.
 Sog' bo'ling baxtimizga,
 Tinchligimiz posboni.
 Siz tufayli musaffo
 Yurtimizning osmoni.
 Mardlar saqlar Vatanni,
 Muqaddas yurt tuprog'i.
 Siz tufayli sokin tun,
 Yashnar Vatan gul bog'i.

(G. Amirova)

pahlavon — богатырь
 qalqon — щит
 qasam — клятва

posbon — защитник
 asramoq — защищать
 yov, dushman — враг

Uyga vazifa. She'rni yod oling.

2 - dars

4- topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing.

— Bobur, bilasanmi, mening akam harbiy bilim yurtida o'qiydi.
 Men harbiylarga havas qilaman.

— Menga harbiy kiyimlar yoqadi. Sen ularning kiyimlaridan
 harbiy darajalarini farqlay olasanmi?

— Ha, agar ikkita yulduzcha bo'lsa, leytenant, uchta bo'lsa katta
 leytenant, to'rtta bo'lganda esa kapitan bo'ladi.

— Agar bitta katta yulduz bo'lsa-chi?

— Bitta katta yulduz bo'lsa mayor, ikkitasi podpolkovnik, uchtasi
 esa polkovnik bo'ladi.

— Demak, yulduzlar katta-kichikligiga qarab farqlanar ekan-da.

— Albatta. Bu yulduzlardan ham kattarog‘i general unvonini bildiradi. Agar shunday yulduzcha ikkita bo‘lsa general-leytenant, uchta esa general-polkovnik bo‘ladi.

— Qoyil, sen bularni qayerdan bilasan?

— Akamdan o‘rganganman. Katta bo‘lganimda men ham akamga o‘xshab harbiy bo‘lmoqchiman.



Kasr sonlar maxsus so‘zlar bilan ifodalanishi ham mumkin: **yarim** (1/2), **chorak** (1/4), **nimchorak** (1/8) kabi. Butun son bilan kasr son aralash holda ham ishlatiladi: 3,5 — *uch yarim* kabi.

4- mashq. Juftlab berilgan sonlardan avval kasr sonlar hosil qiling, so‘ngra ularni so‘z bilan ifodalang.

2 va 4; 1 va 4; 1 va 8; 100 va 25;

5- mashq. Matnni o‘qing. Sonlarning turini aniqlang va ma’nosini tushuntiring.

Qadim zamonda bir chol bor ekan. Uning uchta o‘g‘li bo‘lgan ekan. Bir kun chol o‘g‘illarini chaqiribdi va eng kattasining qo‘liga bitta cho‘p beribdi. «— Sindirib ukangga ber», — debdi. Katta o‘g‘il cho‘pni ikkiga bo‘lib ukasiga beribdi. U ham cho‘pning ikkala bo‘lagini sindiribdi va ukasiga uzatibdi. Ukasi ham sindiribdi. Shundan keyin chol elliktacha cho‘pni bir qilib bog‘lab katta o‘g‘liga beribdi va unga debdi: «— Qani, endi sindirib ko‘r!». O‘g‘li qancha urinsa ham bog‘langan cho‘plarni sindira olmabdi. O‘rtancha va kichik o‘g‘illari ham cho‘plarni sindira olmabdilar. «— O‘g‘illarim, sizlar ham shu cho‘pga o‘xshaysizlar. Agar ahil bo‘lib yashasangiz, sizni hech qanday kuch yenga olmaydi», — debdi chol.

uchta — три штуки
kuch — сила

elliktacha — около пятидесяти
sindirmoq — ломать



Boburning maktubi

Salom, dadajon, mehribon oyijon! Xat yozolmaganimga ham ancha bo'ldi. UZR. Harbiy mashqqa jo'nab ketgan edik.

Bilasizmi, dada, men o'z jangovar kasbimdan faxrlanaman. Raketalar, tovushdan ham tez uchar samolyotlar, murakkab aloqa apparatlarini biz, askarlar boshqaramiz. Bizning xizmatimizda bilim va jismoniy bardamlik juda zarur. Xullas, harbiy xizmatni yaxshi o'tash uchun bolalikdan mashq qilish kerak ekan.

Bo'linmamizda har bir askar qo'shimcha kasb egallash uchun harakat qiladi. Nega deysizmi? Gap shundaki, hozirgi harbiy texnika juda murakkab. Agar bir radist yoki operator safdan chiqsa, butun vazifa bajarilmay qolishi mumkin. Shuning uchun ham biz bir-birimizning o'rnimizni bosa olishimiz kerak.

Dada, ukalarimga ayting. Fanlarni qunt bilan o'rganishsin. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishsin. O'shanda armiyamiz saflarida munosib xizmat qiladigan yigitlar bo'lib yetishishadi.

Xayr, dada! Navbatchilikka ketyapman.

O'g'lingiz, serjant Bobur Nodirxonov.

navbatchilik — дежурство

jangovar — боевой

bardamlik — бодрость

bo'linma — часть

harbiy mashq — военная подготовка

harbiy xizmat — военная служба

5- topshiriq. Maqollarni o'qing va ma'nosini tushunib oling.

1. Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.
2. Yetti marta o'lchab, bir marta kes.

Uyga vazifa. Maktub namunasidan foydalanib, yaqinlaringiz yoki do'stingizga xat yozing.

XIV MAVZU. SPORT — SALOMATLIK GAROVI

(Daraja-miqdor ravishlarining qo'llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Berilgan tayanch so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Mamlakatlar, musobaqa, kuchlilar, g'oliblar, oltin, kumush va bronza sovrinlari, madhiya, bayroq.

2- topshiriq. Rasmlarni diqqat bilan kuzating. So'ngra dialogik matnni o'qing va suhbatni davom ettiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar va qo'shimchalarga e'tibor bering.

— Akmal, sen kecha televizorda olimpiadaning ochilishi marosimini tomosha qildingmi?

— Ha, juda zo'r bo'ldi. Sen-chi?

— Afsus, men ko'ra olmadim. Menga olimpiadani kim ochgani, olimpiada olovini qaysi sportchilar yoqqani, olimpiada uchun joy qanday bezatilgani haqida batafsil gapirib bera olasanmi?

— Albatta.

1- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Sport o'yinlari

Sport o'yinlarining turlari **juda ko'p**. Ular orasida, ayniqsa, olimpiada o'yinlari ajralib turadi. Olimpiada o'yinlari dunyo bo'yicha o'tkaziladigan **eng yirik** va **mashhur** sport musobaqasidir. Olimpiadaning vatani Yunoniston hisoblanadi. Ilk olimpiada o'yinlari 1896- yilda Afinada boshlangan. Shundan beri to'rt yilda bir marta olimpiada o'yinlari o'tkaziladi. Olimpiada o'yinlari **eng katta** sport bayramiga aylanib qolgan. Unda jahonning **eng kuchli** sportchilari qatnashadilar. O'zbekistonlik sportchilar ham ushbu musobaqalarda qatnashib, **juda ko'p** sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritganlar.

juda ko'p — очень много

mashhur — знаменитый

eng kuchli — самый сильный

eng yirik — самый крупный

eng katta — самый большой



O'zbek tilida daraja-miqdorni bildirishda **ko'p, kam, oz, ozgina, jindak hamda juda, eng, nihoyatda, g'oyat, g'oyatda, benihoya** so'zlari ishlatiladi. Masalan: *juda ko'p, eng kam, nihoyatda oz* kabi.

Ushbu so'zlarni yodda tuting!

**Miqdor
bildiruvchi so'zlar**

ko'p

kam

ozgina

jindek

nihoyatda

**Daraja
bildiruvchi so'zlar**

juda

eng

hammadan

g'oyat

2- mashq. Gaplarni daraja-miqdor ma'nosini bildiruvchi so'zlar bilan to'ldirib ko'chiring.

1. Har kuni ertalab badantarbiya bilan shug'ullanish insonni

... chiniqtiradi. 2. Ertalab yugurish mashqlari bilan shug‘ullanish insonlar uchun ...foydali. 3. Suzish salomatlik uchun ... kerakli sport turidir. 4. Yengil atletika bilan ... kichik yoshdan boshlab shug‘ullanadilar. 5. Tennis mening ... yaxshi ko‘rgan mashg‘ulotim. 6. Futbol ... ko‘p tarqalgan sport turidir.

Foydalanish uchun so‘zlar: juda, eng, juda, nihoyatda, eng.

3- mashq. Matnni o‘qing. Salomatlikni tavsiflovchi so‘zlarni ajratting.

Har bir inson sog‘lom bo‘lishni va uzoq yashashni orzu qiladi. Buning uchun kishi o‘zini chiniqtirib borishi, jismoniy tarbiya mashqlari bilan muntazam shug‘ullanishi kerak. Sport mashg‘ulotlari bolalarni jismonan baquvvat bo‘lishiga yordam beradi. Sport bilan shug‘ullangan insonlar boshqalarga nisbatan tetik, xushchaqchaq va kuchli bo‘ladilar. Sport turlaridan shaxmat va shashka aqlni charxlaydi. Boks, kurash, karate esa bolalarni dovyurak, chaqqon va epchil qilib tarbiyalaydi.

chiniqmoq — закаляться

epchil — ловкий

charxlamok — точить, остачивать

dovyurak — смелый

hazm qilish — переваривать

tetik — бодрый

qon aylanish — кровообращение

jismoniy tarbiya — физическое воспитание

4- mashq. Qavs ichidagi savollarga javob bering va gaplarni to‘ldirib yozing.

1. Har bir inson ... (nimani orzu qiladi?)
2. Sog‘lom bo‘lish uchun inson ... (nima qilishi kerak?)
3. Sport bilan shug‘ullangan insonlar ... (qanday bo‘ladilar?)
4. Sport bilan shug‘ullanish ... (nimaga yordam beradi?)

Uyga vazifa. Yoqtirgan sport turi haqida so‘zlab bering.

2 - dars

3- topshiriq. Rasmlar va berilgan savollar asosida o‘zaro suhbatlashing.

- Siz sportning qaysi turi bilan shug‘ullanasiz?
- Respublikamizda sportga qanday e‘tibor qaratilgan?
- Yoshlar o‘rtasida qanday sport bellashuvlari o‘tkaziladi?
- Siz qaysi sport bellashuvlarida ishtirok etgansiz?

5- mashq. O‘qing. Matndan daraja-miqdor bildiruvchi so‘zlarni ajrating.

Bizning mamlakatimizda sportni rivojlantirishga nihoyatda katta e‘tibor qaratilmoqda. Barcha ta‘lim maskanlari, mahallalar, qishloqlarda juda ko‘p sport maydonchalari qurilmoqda. Respublikamizda kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun «Umid nihollari», katta yoshdagi o‘quvchilar va talabalar uchun «Barkamol avlod», «Universiada» sport bellashuvlari tashkil etilgan. Hozirgi kunda eng kichkina bolalardan tortib katta yoshdagi insonlargacha o‘zlariga yoqqan sport turi bilan shug‘ullanadilar.

4- topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.

- Jahongir, sen qaysi sport turini yoqtirasan?
- Menga sportning kurash va boks turi yoqadi.
- ...





Adabiy o‘qish

Uch buyuk tabib

Bir tabib qattiq kasal bo‘lib yotib qoldi. Uning shogirdlari yig‘ilib ustozlarini davolashga kirishdilar. Ustoz ularga:

— Meni davolash uchun behuda zahmat chekmang, tuzalishdan umid uzganman. Vafot etganimdan keyin juda qayg‘urib oh-voh qilmang, chunki o‘rnimga uchta buyuk tabib qoldirib ketaman. Shu uch zo‘r tabibning maslahatlariga amal qiling va boshqalarni ham shunga da‘vat eting, — dedi.

Shogirdlardan biri:

— Ustoz, sizdan keyin o‘rningizda qoladigan uchta tabib kimlar? — deb so‘radi.

Ustoz shunday javob berdi:

— Sizlarga so‘zlaganim uchta zo‘r tabibning biri — poklik, ikkinchisi — parhez, uchinchisi badantarbiyadir. Doimo pok, ozoda bo‘lishlik, me‘yorda ovqatlanish, badan a‘zolarini harakatsiz qoldirmasdan badantarbiya bilan shug‘ullanish — mana shularning hammasi salomatlikni saqlovchi eng yaxshi choralardir.

(«Ma’naviyat saboqlari»dan)

tabib — лекарь
poklik — чистота
maslahat — совет
parhez — диета


shogird — ученик
zo‘r — сильный
chora — мера
me‘yor — норма

Uyga vazifa. Rivoyatning mazmunini so‘zlab bering.

XV MAVZU. SALOMATLIK — TUMAN BOYLIK

(Haqida, to‘g‘risida ko‘makchilarining qo‘llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Berilgan gaplarni qaysi rasmlarga mos kelishini aniqlang va shu mavzuda o‘zaro suhbatlashing.

1. Tozalik — sog‘lik garovi.
2. Shifokorlar — sog‘ligimiz qo‘riqchilari.

1- mashq. O‘qing va savollarga javob bering.

Salomatlik — tuman boylik

Sog‘lom bo‘lish uchun inson yoshlikdan o‘ziga e‘tibor berishi kerak. Chiroyli qaddi-qomat, yengil va ravon qadam tashlash sog‘lomlikning muhim belgilaridir. Bunga erishish uchun o‘tirganda va yurganda gavgani to‘g‘ri tutish, yotgan holda yoki bukchayib kitob o‘qimaslik kerak. Xushbichim bo‘lay desangiz, ovqatlanish me‘yoriga rioya qiling. Semirib ketish sog‘likka zararli. Piyoda ko‘p yuring. Yugurish, suzish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanish insonni sog‘lom va go‘zal qiladi. Sog‘ligimiz boyligimiz ekanligini yoddan chiqarmang.

2- topshiriq. Savollarga javob bering.

- Matnda nima **haqida** fikr yuritilgan?
- Matnda sog‘lomlikning muhim belgilari **haqida** nima deyilgan?
- Chiroyli qaddi-qomatga ega bo‘lish **to‘g‘risida**-chi?
- Matnda me‘yorida ovqatlanish **haqida** qanday fikr bildirilgan?
- Piyoda yurish va suzish **haqida**-chi?

qaddi-qomat — телосложение
semirmoq — полнеть, толстеть
xushbichim — стройный
bukchaymoq — гнуться

ravon — ровный
yugurish — бег
piyoda — пешком
muntazam — постоянно



Yangi axborot berishda *haqida*, *to‘g‘risida* yordamchi so‘zlaridan foydalaniladi. Bunday so‘zlar ko‘makchilar deb atalib, ular o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga bitta savolga javob beradi. Masalan: *salomatlik haqida so‘zlashmoq* — *nima haqida so‘zlashmoq?* *Kitob to‘g‘risida gapirmoq* — *nima to‘g‘risida gapirmoq?*

2- mashq. O‘qing. Ushbu matndda nima haqida fikr yuritilganini aniqlang.

Sog‘lom turmush tarzi

Sog‘lom turmush tarzi insonning o‘z sog‘ligiga e‘tibor qilishi va zararli odatlardan o‘zini tiyishidir. Chekadigan kishilar chekmaydiganlarga qaraganda ko‘p kasal bo‘ladilar. Kompyuter, televizor qarshisida juda yaqin va ko‘p o‘tirish ko‘rish qobiliyatini pasaytiradi. Uyali telefonlardan me‘yoridan ortiq foydalanish xotirani zaiflashtiradi. Kun tartibiga rioya qilmaslik pala-partishlikni keltirib chiqaradi. Tozalik, shaxsiy gigiyenaga amal qilmaslik har xil kasalliklarni keltirib chiqaradi.

sogʻlom turmush tarzi — здоровый образ жизни
 zararli odatlar — вредные привычки
 pala-partishlik — безалаберность
 chekmoq — курить pasaytirmoq — снижать

3- mashq. Sogʻlom turmush tarziga mos va zid odatlarni oʻzaro qiyoslang. Ularning oqibatlarini quyidagi ikki ustunga ajratib yozib chiqing.

Sogʻlom turmush tarzi

Nosogʻlom turmush tarzi

3- topshiriq. Sheʼrni ifodali oʻqing va mazmunini tushuntiring.

Ibn Sino bobo — ulashar davo

Xom suvni ichma,
 Sogʻligʻingdan kechma.
 Badantarbiya
 Kuch etar hadya.
 Yoʻlda yeyish non
 Yomondan yomon.
 Yeb boʻlib ovqat
 Yugurma faqat.
 Ustingda engil
 Boʻlsin u yengil.
 Ogʻrimay desang,
 Chay, meva yesang.
 Ozoda hovli
 Kasaldan holi.
 Dardning ogʻiri,
 U — tish ogʻrigʻi.

Yurmoqlik iflos —
 Kasalga asos.
 Eng vaqtichogʻlik —
 Sogʻlik va sogʻlik.
 Oshni taklifsiz,
 Boshlar tartibsiz.
 Toza kiyinish —
 Emas qiyin ish.
 Pashshadan kasal
 Tarqar har mahal.
 Koʻp dardga asos —
 Shamollash, xolos.
 Hadeb voy-voylash —
 Yomonlik poylash.
 Kim harakatda -
 Sogʻlom, albatta.

(Poʻlat Moʻmin)

Uyga vazifa. Sheʼrni yod oling.

2 - dars

4- mashq. Matnni o'qing. Shaxsiy gigiyena qoidalarini tushuntirib bering. Matnga qo'shimcha kiriting.

Shaxsiy gigiyena qoidalar

Sog'lom, tetik va ishchan bo'lish uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish kerak. Avvalo, sovun bilan tez-tez yuvinib turish kerak. Sog'lom va toza badan terisi organizmni kasallik qo'zg'atuvchi bakteriyalar tushishidan himoya qiladi. Maktabdan qaytgandan so'ng maktab kiyimini yechish, poyabzallarni tozalab qo'yish, ich kiyim va choyshablarni tez-tez almashtirib turish kerak. Ayniqsa, qo'llarning toza bo'lishi, tirnoqlarning olingan bo'lishiga alohida ahamiyat berish kerak. Ovqatdan oldin, uy hayvonlariga qaragandan so'ng qo'llarni sovunlab yuvish lozim. Sabzavot, mevalarni yeyishdan oldin yaxshilab chayish kerak. Shunda mikroblar tarqalishining oldi olinadi.

almashtirmoq — менять

poyabzal — обувь

choyshab — простыня

badan — тело

ishchan — работоспособный, трудолюбивый

qo'zg'atuvchi — возбуждающий

4- topshiriq. Suhbat matnidagi javoblarga mos savollar tuzing.

— ...?

— Sog'lom bo'lish uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish kerak.

— ...?

— Shaxsiy gigiyena qoidalariga yuz-qo'llarini sovunlab yuvish, tishlarini o'z vaqtida tozalab turish, kiyimlarini orasta tutish kabilar kiradi.

— ...?

— O'z vaqtida dam olish, to'g'ri ovqatlanish ham inson salomatligi uchun juda zarur.

5- mashq. Matnni o‘qing va o‘z munosabatingizni bildiring.

Bugungi kunda uyali telefonlar tezkor aloqa sifatida barcha uchun eng qulay vosita. Biroq mobil telefonlardan tarqaladigan elektromagnit to‘lqinlar inson sog‘ligiga salbiy ta’sir etishini bilasizmi? Shifokorlar bu, ayniqsa, yosh bolalarga kuchli ta’sir etishini ta’kidlamoqdalar. Keyingi vaqtlarda hatto 18 yoshga yetmagan bolalarda ham xotiraning zaiflashishi, uyquning buzilishi, tez-tez bosh og‘rishi kabi holatlar ko‘p uchramoqda. Hozir ko‘p mamlakatlarda mobil aloqadan yoshiga qarab foydalanish me’yorlari yo‘lga qo‘yilgan.

uyali aloqa — мобильная связь
surunkali — постоянный
salbiy — отрицательный
ta’kidlamoq — подтверждать
zaiflashish — ослабление

tezkor — быстрый
ta’sir — влияние
vosita — средство
xotira — память
me’yor — мера

5- topshiriq. Uyali telefonning foydali va zararli tomonlarini ikki ustunga ajratib yozing.

6- topshiriq. Maqollarni o‘qing va mazmunini tushuntiring.

Sog‘ tanda — sog‘lom aql.
Sog‘liging — boyliging.
Salomatlik — tuman boylik.
El sog‘ligi — yurt boyligi.



Adabiy o‘qish

Tushki ovqat

Darslar tugashi bilan Davron uyiga shoshdi. U kostyumini yechib yo‘l-yo‘lakay uyga kirib keldi.

— Assalomu alaykum, oyijon!

Onasi:

— Yaxshi keldingmi, bolajonim? Tezroq yechinib, uy kiyimlaringni kiy-da, dasturxonga kelib o'tir, ovqatingni suzaman, — dedi.

Davron oyisi suzib kelgan mastavaga qatiq va rayhon-ko'katlar solib, shoshilib icha boshladi. Buni kuzatib turgan oyisi o'g'lining bu shoshqaloqligini ko'rib, yengil tanbeh bera boshladi:

— Hoy Davron! Ovqatingni shoshmay ich! Har bir noto'g'ri harakating birinchi navbatda sog'lig'ingga zarar bo'ladi. Mana, ovqatni deyarli chaynamasdan yutayapsan-ku! Odamning og'zida nechta tish bo'ladi, Davron?!

— O'ttiz ikkita, oyijon.

— Barakalla! Ana shu o'ttiz ikkita tish bir luqma ovqatni kamida o'ttiz ikki marta chaynashi kerak. Yaxshilab maydalangan, chaynalgan ovqat oshqozonga tushadi. Buni oshqozon qiynalmay qabul qiladi. Chala chaynalgan ovqat oshqozonda turib qoladi. Keyinchalik ichki a'zolarining qiynalib, og'riydigan bo'ladi, bolam! Endi tushundingmi!

— Tushundim, oyijon!

Davron bundan buyon ovqatni risoladagiday chaynaydigan bo'ldi. Chunki to'g'ri ovqatlanish ham insonni o'zini bilishga, o'zini tutishga, boshqarishga, sog'lom fikrlashga o'rgatar ekan ...

(Rauf Subxon)

shoshqaloq — торопливый
oshqozon — желудок
bundan buyon — далее
risoladagiday — правильно


tanbeh — замечание
og'rимоq — болеть
ichki — внутренний
fikrlash — мыслить

Uyga vazifa. Hikoyani o'qing va mazmunini so'zlab bering.

XVI MAVZU. BUYUK ALLOMALARIMIZ

(Vaqtini ifodalash)

1 - dars



Abu Ali ibn Sino



Ahmad al-Fargʻoniy
haykali

1- topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering va suhbatlashing.

1. Rasmda kimning siymosi aks ettirilgan?
2. Koinot sirlarini oʻrgangan buyuk alloma kim?
3. Oydagi kraterlardan ikkitasi kimlarning nomi bilan ataladi?

1- mashq. Matnni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga eʼtibor bering.

Ulugʻ ajdodimiz Ahmad al-Fargʻoniy insoniyat tarixidagi ilk Uygʻonish davridagi eng zabardast va kuchli namoyandalardan biridir. Allomaning «Astronomiya asoslari» asari **XII asr**dayoq lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan. **XVI asr**da Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz — Ahmad al-Fargʻoniy va Mirzo Ulugʻbek nomi bilan ataladi. Amerikalik tarixchi Sarton milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga baho berar ekan, **XI asr**ni «Beruniy asri» deb taʼriflaydi.

(I. Karimov. «Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch» asaridan)



Vaqt, sanani ifodalashda sanoq va tartib sonlardan foydalaniladi. Bunda sonlar arab yoki rim raqamlari bilan yozilishi mumkin. Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilganda chiziqcha bilan, rim raqamlari bilan ifodalanganda chiziqchasiz yoziladi. **Masalan:** *XX asr, 2012- yil 15- oktabr.*

2- mashq. Nuqtalar o‘rniga ma’lumot uchun berilgan birikmalardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Abu Ali ibn Sino ... yashagan tabib, matematik, faylasuf va shoir edi. 2. Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi ... qurilgan noyob yodgorlikdir. 3. Alisher Navoiy ... yashab ijod etgan. 4. Ma‘mun akademiyasi ... tashkil topgan. 5. Amerikalik tarixchi Sarton ... «Beruniy asri» deb ta’riflaydi.

Foydalanish uchun so‘zlar: XV asrda, X asrda, 819- yilda, XI asrni, 1441—1501- yillarda.

3- mashq. Matnni o‘qing. Vaqtни bildiruvchi so‘zlarni mos raqamlar bilan yozing.

To‘qqizinchi asrda yashagan Muhammad Muso Xorazmiy matematik olim edi. Uning matematikaga oid «Aljabr va al-muqobala» asari dunyoga mashhur. Bu kitobning «aljabr» qismi «algebra»ga aylanib, shu fanga xos atama bo‘lib qolgan. Ushbu asar Yaqin va O‘rta Sharqda, keyinchalik G‘arbda darslik sifatida qo‘llangan. Hozirgi birdan o‘ngacha bo‘lgan o‘nlik raqamlar olimning shu kitobi orqali dastlab hindlardan arablarga, ulardan esa g‘arbliklarga o‘tgan. Hozir bu raqamlar butun dunyoda ishlatiladi.

oid — относящийся

raqam — цифра

qo‘llamoq — использовать

atama — термин

butun dunyo — весь мир

o‘nlik — десятка

4- mashq. Matnlarni o'qing. Vaqtni ifodalovchi so'zlarni ajrating va ularning yozilishini izohlang.

819- yilda Xorazm shohi Ibn Ma'mun Urganch shahrida birinchi ilmiy markazni yaratdi. «Bayt ul-hikma» deb atalgan ushbu ilmiy markaz tarixda Ma'mun akademiyasi deb shuhrat qozongan.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek 15 yoshidan Movaraunnahrga hukmdorlik qilgan.

Ulug'bek 1417—1420- yillarda Ulug'bek madrasasini qurdirgan, Bibixonim masjidi, Go'ri Amir, Shohizinda maqbaralarining qurilishini tamomlagan, ko'plab bog'lar yaratgan.

2- topshiriq. Berilgan savollarga javob bering.

1. O'rta Osiyoda eng katta markazlashgan davlat barpo qilgan buyuk sohibqiron kim?

2. Afg'oniston va Hindistonni birlashtirib, eng katta markazlashgan davlat barpo qilgan mashhur davlat arbobi kim?

3. Turkiy tilda juda ko'p g'azallar, dostonlar yozib, o'zbek adabiy tiliga asos solgan ulug' inson kim?

4. Astronomiya sohasida ulkan ixtirolar qilgan eng mashhur olim va davlat arbobi kim?


Uyga vazifa. Buyuk allomalarning nomlarini yozish va ulardan biri haqida ma'lumot berish.

2 - dars

5- mashq. Matnni o'qing va so'zlab bering.

Abu Nasr Forobiy

Mashhur faylasuf va qomusiy olim Abu Nasr Forobiy 873- yilda Sirdaryo qirg'og'idagi O'tror qishlog'ida tavallud topgan. Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari Aflotun, Arastu, Evklid, Ptolemey, Profiriylarning asarlariga sharhlar



yoʻzib, bu asarlarning Sharqqa tarqalishiga sabab boʻlgan. Shuning uchun u «Al-Muallim as-soniy» — «Ikkinchi muallim», «Sharq Arastusi» deb nom olgan. Forobiy 70 dan ortiq til bilib, turli fanlarga oid 160 dan ortiq asar yaratgan.



Ketma-ket kelib, maʼlum bir vaqtdan koʻrsatilgan mud-datgacha boʻlgan vaqt oraligʻi maʼnosini bildiruvchi sonlar orasiga tire (—) qoʻyiladi. **Masalan:** 1441—1501-yillar, XIX—XX asr.

6- mashq. Matnni oʻqing. Raqamlar qanday maʼnolarda qoʻllan-ganligini tushuntiring.

Abu Rayhon Beruniy

Abu Rayhon Beruniy 973- yil 4- sentabrda Xorazmda tugʻilgan. U yoshligidanoq ilm-fanga juda qiziqdi. Matematika, astronomiya, geografiya va tarix fanlariga doir koʻp kitoblarni oʻqib chiqdi. Yulduzlarni kuzatdi, daryo oqimini oʻlchadi, oʻzi koʻpgina tajriba asboblarni ixtiro qildi. Beruniy Oʻrta Sharq olimlari orasida birinchi boʻlib Yerning dumaloq shaklda ekanligini, uning Quyosh atrofida aylanishini isbotlagan. U dunyo xaritasini chizgan, yer shari oʻlcha-mini aniqlab, 5 metrli eng katta globus yasagan. Buyuk alloma astro-nomiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, tibbiyot, tarix, falsafa, filologiya, farmakologiyaga oid 152 kitobdan iborat ulkan ilmiy meros qoldirgan. Tarixda IX—X asrlar Beruniy asri deb ataladi. Abu Rayhon Beruniy 1048- yil 11-dekabrda Gʻazna shahrida vafot etgan.

oqim — поток

yulduz — звезда

oʻnlik — десятка

tajriba — эксперимент

dumaloq — круглый

ilmiy — научный

meros — наследие

asbob — прибор

oʻlchamoq — мерить

ixtiro qilmoq — изобретать

3- topshiriq. 6- mashqdagi matn asosida bir-biringizga savollar bering va savol-javobni davom ettiring.



Adabiy o‘qish

Tabiblarning tabibi

Ibn Sino juda yoshligidanoq zehni o‘tkir, didi baland bola bo‘lgan ekan. Bir kuni otasi: «Bolam, katta bo‘lsangiz kim bo‘lasiz?» — deb so‘rab qolibdi. Ibn Sino avvaliga nima deb javob berishni bilmay, o‘ylanib, qolibdi. Keyin:

— Tabib bo‘laman, sizni, onamni davolab yuraman, — deb javob beribdi. — Boshqalarni-chi, boshqalarni davolamaysizmi? — debdi otasi. Ibn Sino:

— Hamma-hammani davolayman, katta tabib bo‘laman, — debdi. Ibn Sino kun-u tun tabiblikni o‘ylabdi, o‘t-giyohlarni, mevalarni yeb, suvidan ichibdi. Ammo tabib bo‘lolmabdi. Otasi katta-kichik shaharlarga olib borib, tabiblarga shogird qilib beribdi, ammo biror natija chiqmabdi.

Ibn Sino yetti yoshga to‘lgan kuni kechasi tush ko‘ribdi. Tushida ilonlar mamlakatida yurgan emish. Oq ilon unga oq sut berib, u dardga davo dermish. Qizil ilon unga qizil sut berib, bu dardga davo dermish. Qora ilon Ibn Sinoga qop-qora sut berib falon kasalga davo dermish. Ilonlar bilan o‘ralib-o‘ralib, yumalab-dumalab, o‘ynab-kulib turib uyg‘onib ketibdi. Tundayoq ilon izlab ketibdi. Izlay-izlay ilonlardan bir-ikkitasini ushlab kelib, ulardan zahar olibdi-da, uni echki, qo‘ylarning sutiga qo‘shib, kasallarga davo bo‘ladi, deb beraveribdi. Ibn Sinoning nomi yetti yoshidayoq yetti iqlimga ovoza bo‘libdi. Ibn Sino tabiblar tabibi degan unvonga sazovor bo‘libdi.

Ilon va uning zahari tibbiyot timsoli hisoblanishining boisi shunda.

Uyga vazifa. Hikoyatning mazmunini so‘zlab bering.

XVII MAVZU. BAHORGI ISHLAR

(Payt ravishlarining yasalishi va qoʻllanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Rasmlarni kuzating. Berilgan tayanch soʻzlar yordamida, bahorda bajariladigan ishlar haqida suhbatlashing.

Daraxt koʻchatlari, gul koʻchatlari, oqlamoq, ekmoq, taglarini yumshatmoq, gul ekmoq, gullarni parvarishlamoq.

1- mashq. Matnni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga eʼtibor bering.

Bahor uygʻonish va yangilanish faslidir. **Avval** maysalar koʻkaradi, **soʻngra** daraxtlar kurtak chiqaradi, gullar ochiladi. **Har yili** bahorda yangi daraxt koʻchatlari oʻtqaziladi. Yerlar chopilib, dalalarga ekinlar ekiladi. Koʻcha-hovlilar tozalanib, turli gullar ekiladi. Issiq mamlakatlarga uchib ketgan qushlar qaytib kela boshlaydilar. **Eng avval** qaldirgʻochlar uchib keladi, shuning uchun ularni bahor elchilari deb ataydilar. Bahor barchaga: oʻsimliklarga ham, hayvonlar, qushlarga ham, insonlarga ham quvonch keltiradi.

butun — весь
kurtak — почка

maysa — трава
yangilanish — обновление



O'zbek tilida payt ma'nosini bildirishda *kecha, bugun, erta, indin, o'tgan kun, o'tgan yil, kelasi yil, har yili, har kuni, ertalab, kunduzi, kechqurun, kech, tushda, hozir, ilgari, avval, doim, ilk, oldin, dastlab, keyin, so'ng, so'ngra, hali* kabi payt ravishlari ham ishlatiladi. Bu so'zlar qachon? qay vaqt? so'roqlariga javob bo'ladi.

2- mashq. Gaplarni ko'chiring. Payt ravishlarining tagiga chizing.

1. Avval o'yla, keyin so'yla. 2. Kunduzi izzatda, kechasi xizmatda (topishmoq). 3. Ilk bahor kunlaridanoq qaldirqochlar uchib keladi. 4. Har doim bo'lsin tinchlik! 5. Ertangi kun bugundan boshlanadi. 6. O'tgan yil ekilgan ko'chatlar bu yil hosilga kirdi. 7. Ertalab chiqadi, kechqurun botadi (topishmoq).

3- masq. Bahorda bajariladigan ishlarni tartib bilan yozing. Bunda payt ravishlaridan foydalaning.

Namuna: 1. Erta bahorda yerlar chopiladi. 2.

2- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Bahor kelishi bilan **eng avval** tabiatda nima yuz beradi?
2. **Keyin** qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
3. **Avval** qaysi gullar ochiladi? **So'ngra** nimalar gullaydi?
4. **Birinchi** bo'lib qaysi daraxt gullaydi?
5. **Eng avval** qaysi qushlar qaytib keladi?

4- mashq. Matnni o'qing. Payt ravishlarini aniqlang.

Bahor elchilari

Har yili erta bahorda ayvonimiz shiftiga bir juft qaldirg'och uya quradi. Bobom: «Qaldirg'ochlar insonlarning do'sti. Ularni e'zozlang», deyдилar. Ukam bilan men har kuni dasturxondagi non ushoqlarini qaldirg'ochlar uchun sepib qo'yamiz. Bir kuni maktabdan kelsak, qaldirg'ochning bitta bolasi uyasidan yerga tushib ketibdi.

Ona qaldirg'och uning tepasida chir-chir aylanar, biroq qanday yordam berishni bilmas edi. Biz ukam bilan darrov narvon keltirib, qaldirg'ochning bolasini uyasiga qo'ydik. Bobom buni ko'rib: — Barakalla, bolalarim! Qushlarni, tabiatni asrash kerak, — dedilar.

3- topshiriq. She'rdagi adashgan so'zlarni o'rniga qo'yib to'g'ri o'qing.

So'zlar adashdi

Gulga qo'ndi gulqoqi,	Sharsharalar kapalak,
Rang-barangdir o'ynoqi.	Tongda tinmas kamalak.
Ko'kka chiqdi kurtaklar,	Juda qiziq oymomo
Quloq teshar ertaklar.	Dorivordir muammo.
Yechilmaydi xo'rozlar,	
Ochilmoqda ovozlar.	

(Kavsar Turdiyeva)

juft — пара
sepib qo'ymoq — сыпать
sharshara — водопад

ushoq — крошка, мелький
muammo — проблема

Uyga vazifa. «So'zlar adashdi» she'rini to'g'ri shaklda yod oling.

2 - dars

4- topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

O'g'illar: — Assalomu alaykum! Hormang, dada! Biz keldik.

Dadasi: — Keldinglarmi, o'g'illarim? Mana, kichkina hasharchilar ham kelib qolishdi.

O'g'illar: — Biz nima ish qilaylik?

Dadasi: — Sherzodjon, sen suv olib kel. Shahzodjon, sen mana bu ko'chatlarni ushlab tur. Men avval yerni kavlab olay, keyin ularni ekamiz.

Shahzod: — Dada, nega hamma ko'chat ekyapti?

Dadasi: — Mahallamiz obod bo'lsin deb, o'g'lim. Mahalla obod, tinch va ahil bo'lsa, yurtimiz tinch bo'ladi. Yurt tinch bo'lsa, Vatanimiz tez rivojlanadi.

5- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Hashar

Yurtimizda **har yili** bahor faslida umumxalq hashari o'tkaziladi. Hasharda uylar, ko'chalar tozalanadi. Bunda katta-yu kichik barcha qatnashadi. **Qadimdan** hashar yordamida katta-katta bog'lar barpo etilgan, ulkan qurilishlar bunyod qilingan, suvlar chiqarilgan, qiy-nalغان oilalarga uylar qurib berilgan. Masalan, Katta Farg'ona kanali hashar yordamida qazilgan. Bu ulkan qurilishda minglab odamlar **kecha-yu kunduz** tinmay ishlaganlar. Hashar xalqimizning **hozirgi kungacha** saqlanib kelayotgan ajoyib udumlaridan biridir.

hasharchi — помощник
kavlamoq — копать

chala — незаконченный
ko'chat — саженец



Payt ravishlari ko'pincha juft holda qo'llanadi. Masalan: *bugun-erta, erta-indin* kabi. Bunday so'zlar **-u (-yu)** yuklamasi bilan ishlatilsa, chiziqcha qo'yilmaydi. **Masalan:** *erta-yu kech* kabi. Ayrim hollarda **-dan** chiqish kelishigi qo'shimchasini va **-gacha** qo'shimchasini olib takrorlanib qo'llanishi ham mumkin. **M:** *ertadan kechgacha* kabi.

6- mashq. Ma'lumot uchun berilgan payt ravishlaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. ... akam bilan birga ekinlarning tagini yumshatdik. 2. Jiydazordan ... keldim. 3. ... olma daraxti ham gullaydi. 4. ...chigit ekishni boshlaymiz. 5. ... gullarga suv quyamiz. 6. Tabiatga ... e'tibor bilan qaraylik.

Foydalanish uchun soʻzlar: erta-indin, hamisha, hozir, ertaga, keyin, ertalab.



Adabiy oʻqish

Bogʻdagi ishlar

Bogʻimiz tekislik yerda emas, Chaqar arigʻi va Boʻzsuvlarning qoʻshilish yerida, jar boʻyida joylashgan. Manzarasi — goʻzal. Oʻt-oʻlan va meva gullariga belangan bogʻ, bulbullar navosi, chumchuq va qushlar sadosi, ariq suvining mayin shildirashi bilan toʻlib toshganday tuyulardi. Hovuz boʻyida ochilib yotgan atirgul, qirqogʻayni, gulsapsarlarni, ishkombichidagi chuchmoʻma, lolaqizgʻaldoqlarni, ariq labidagi xushboʻy yalpiz, gunafshalarni aytmaysizmi?

Bahorda bogʻda ish qaynardi. Hovuz labidagi tol yalpizlarini kesish, butash, toklarni ochish, ariq tozalash, yerlarni chopib, ekinga joy hozirlash va hokazo. Bogʻimizda uzumning juda koʻp navlari, shuningdek, olma, nok, shaftoli, gilos, olcha, togʻolcha, olxoʻri, doʻlana, tut, yongʻoq daraxtlari oʻsar, qulupnay va rezavor oʻsimliklar ekilar edi. Bular yozi bilan galma-gal pishib yetilar va dasturxonimizni bezar edi. Bogʻimiz shunday farovon boʻlishidanmi, yozda dadam vaqtini uyda dam olish, ekinlarga qarash, qarindosh-urugʻlarnikiga qovun va bogʻ sayliga borish bilan oʻtkazar edilar.

(Habibulla Qodiriy)

manzara — вид, зрелище
farovon — благоустроенный

galma-gal — черёд
jar — овраг

Uyga vazifa. Savollarga javob bering. Javoblaringizda payt ravishlaridan ham foydalaning.



1. Hashar qachon va qayerlarda oʻtkaziladi?
2. Maktabingizda oʻtkazilgan hasharda kim nima ish bilan shugʻullanadi?
3. Mahallangiz yoki koʻchangizdagi hasharda qanday ishlarni bajarasiz?

XVIII MAVZU. MILLIY TAOMLAR

(Holat ravishlarining yasalishi va qo'llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Rasmlarni kuzating. Berilgan tayanch soʻzlar yordamida gaplar tuzing va suhbatlashing.

Tayanch soʻzlar: sumalak, xursand, astoydil, bugʻdoy undirish, katta qozonlar, qoʻshiq va raqslar

1- mashq. Matnni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan milliy taomlar nomlarini daftaringizga koʻchiring.

Milliy taomlar

Har bir xalqning milliy taomlari mavjud. Jumladan, kavkazliklarning **chxombili**, ruslarning **blini**, qozoqlarning **beshbarmoq**, uygʻurlarning **lagʻmon**, oʻzbeklarning **palov** kabi milliy taomlari barchaga maʼlum va mashhur. Hatto ayrim bayramlar, toʻylarda tayyorlanadigan maxsus taomlar ham bor. Masalan, Sharqda Navroʻz kunlari **sumalak**, **halim** kabi maxsus taomlar pishiriladi. Bu taomlar koʻpchilik boʻlib tayyorlanadi. Oʻzbeklarning toʻy-tanatanalari **palovsiz** oʻtmaydi. Har bir oʻzbek xonadonida farzand tugʻilganida ham, voyaga yetganida ham yurtga osh beriladi.

2- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz yana qanday milliy taomlarni bilasiz?
2. Sizga qaysi xalqning milliy taomi juda yoqadi?
3. Navro‘z bayramida yana qanday taomlar tayyorlanadi?
4. Siz sumalak tayyorlashda ishtirok etganmisiz? Taassurotlaringizni so‘zlab bering.



Sekin, asta, tez, darhol, ohista, astoydil, to‘satdan, chinakamiga, mardona, zo‘rg‘a, bolalarcha, guldek kabi ravishlar ish-harakatning qay tarzda bajarilishini bildiradi. Ular hamisha fe‘llarga bog‘lanadi va **qay tarzda? qay holda? qanday?** so‘roqlariga javob beradi. **Masalan:**

qay tarzda? qay holda? qanday?	Nima qilmoq?
sekin, asta, ohista, muloyim, tez	gapirmoq
chinakamiga, mardona, astoydil	kurashmoq
darhol, to‘satdan	kelib qolmoq
zo‘rg‘a, bolalarcha	kulmoq
guldek	ochilmoq

Qo‘ngiroq chalingach, o‘quvchilar **darhol** (qay tarzda?) sinflariga kirdilar.

2- mashq. O‘qing. Harakat tarzini ifodalovchi so‘zlarni aniqlang va matnni davom ettiring.

Nigora 6- sinfda o‘qiydi. U maktabdan qaytgach, uy ishlarida oyisiga ko‘maklashadi. Xonalarni yig‘ishtiradi, hovli-ko‘chalarni chinnidek qilib supuradi. Endi sekin-asta taomlarni mustaqil pishirishga ham intilmoqda. Astoydil harakat qilib, somsa, shirinliklar pishirishni o‘rganib oldi. Moshxo‘rda, mastava, sho‘rva kabi suyuq ovqatlarni mazali pishiradi. Endi palov pishirishga jiddiy kirishyapti. Men ham ...

3- mashq. Qavs ichidagi so‘roqlarga mos so‘zlar qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Har bir taom shirin bo'lishi uchun (qaytarzda?) harakat qilish kerak. 2. Nigora oyisiga (qanday?) ko'maklashadi. 3. U ovqat pishirishni (qanday?) o'rganib oldi. 4.

4- mashq. Nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan so'zlar va birikmalardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring. Matnni davom ettiring.

1. Bolalar ... ishladilar. 2. Yoshlar ... yugurganlaricha tepalikka chiqib ketishdi. 3. Barcha ... kulib yubordi. 4. Gilam turli-tuman ranglarda ... tovlanardi. 5. Haydovchi mashinani ... to'xtatdi. 6. Ikki do'st ... suhbatlashdi.

Foydalanish uchun: astoydil, bolalardek, birdan, cho'g'day, darhol, samimiy.

3- topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

— Jahongir, sen qaysi taomni yoqtirasan?
— Men palovni yaxshi ko'raman. O'zing-chi?
— To'g'ri, palov juda shirin va to'yimli taom. Biroq menga sumalak ko'proq yoqadi.

— Ha, sumalak faqat Navro'z kunlaridagina pishiriladi. U juda foydali taom. Aytishlaricha, bir marta sumalakni to'yib yegan odam bir yilgacha sira kasal bo'lmas ekan. Sumalak ko'pchilik bilan uzoq vaqt tayyorlanadigan taom. Palovni esa uyda har kuni tayyorlash mumkin.

4- topshiriq. Matnni o'qing. Matnga qo'yilgan sarlavhani izohlang.

Mehnatning noni shirin

Soqi maktabdan keldi. Onasi uning oldiga bir kosa sho'rva keltirib qo'ydi. Soqi sho'rvadan bir qoshiq ichib, «— Onajon, sho'rvangiz shirin emas ekan, ichmayman», — deb o'rnidan turib ketdi. Ona o'g'lini bog'ga olib chiqdi va kechgacha xazon tashitdi. Soqi horib-charchab uyga kirdi. Qorni ochib, ovqat so'radi. Onasi yana haligi sho'rvani isitib, o'g'lining oldiga qo'ydi.

Soqi sho'rvani ishtaha bilan paqqos tushirdi. Sho'rva unga beni-

hoya mazali tuyuldi. U bunday sho‘rvani hech qachon ichgan emasdi. Soqi shularni aytganda, onasi kulib yubordi. Chunki bu ovqat haligi sho‘rvaning o‘zi edi...

(*Abdulla Avloniy*)

— Ayting-chi, nega sho‘rva Soqiga shirin tuyuldi?

taom — еда

tayyorlash — готовить

horib-charchab — уставший

haligi — тот же

to‘yimli — калорийный


foydali — полезный

mazali — вкусный

tuyulmoq — казаться

Uyga vazifa. O‘zingizga yoqadigan taomni tayyorlash tartibini yozing.

2 - dars



5- topshiriq. Suhbatni davom ettiring va o‘zingiz mustaqil pishirgan taomingizni tayyorlash tartibini gapirib bering.

— Men uyda yakka o‘zim mustaqil holda palov pishirdim. Buning uchun avval

— Men esa mastava pishirishni o‘rgandim. Mastava pishirish uchun ...

— Men oyimga somsa pishirishda ko‘maklashdim. ...

— Men ...



Holatni ifodalovchi ravishlar nutqda juft va takror holda qo‘llanishi mumkin. Bunday ravishlar chiziqcha bilan yoziladi. **Masalan:** *asta-sekin, tez-tez* kabi.

5- mashq. Takror qo‘llangan harakat tarzini bildiruvchi so‘zlarni yakka holda qo‘llab gaplarni ko‘chiring.

Namuna: Topshiriqni tez-tez bajardik.
Topshiriqni tez bajardik.

1. Oshpazlar sabzini tez-tez to‘g‘raydilar. 2. Yo‘lovchi ohista-ohista qadam tashlab borardi. 3. Madina osh pishirishni ham asta-sekin o‘rganib oldi. 4. Bemor zo‘rg‘a-zo‘rg‘a nafas olardi. 5. Sho‘rva sekin-sekin qaynatilsa mazali bo‘ladi.

6- mashq. Palov tayyorlash tartibi bilan tanishing. Matnda qo‘llangan holat ravishlarini aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.

Palov tayyorlash uchun yog‘, go‘sht, piyoz, sabzi, guruch mahsulotlari kerak bo‘ladi. Qozonga yog‘ solib qizdirilgach, mayda to‘g‘ralgan yoki yaxlit go‘sht piyoz bilan birga tez-tez qovuriladi. Piyoz qizargach, somoncha shaklida to‘g‘ralgan sabzini qo‘shib asta-sekin aralashtiriladi va yana qovuriladi. Keyin botar-botmas suv solib, past olovda asta-sekin qaynatiladi. Zirvak 40 daqiqa qaynagach, darhol guruchni solib, baland olovda suv qolmaguncha tez qaynatiladi. So‘ngra 30 daqiqa damlab qo‘yiladi. Damlashdan oldin guruch ustiga turli ziravorlar sepilsa osh yanada mazali bo‘ladi.

mahsulotlar — продукты
qovurmoq — жарить
somoncha — соломка
aralashtirmoq — смешивать

yaxlit — целиком
ziravorlar — специи
zirvak — соус
qaynamoq — кипеть



Adabiy o‘qish

Shirin palov

— Hoy bolakaylar, palov yeysizmi? Achchiq-chuchuk bilan juda ham shirin bo‘ladi-da, — deb qoldi Salim aka.

— Palov-ku, mayli-ya, achchiq-chuchugini ayting. Hozir pomi-

dorni qayerdan olarkin? — deb hayron bo‘lishdi ariq bo‘yidagi tol tagida o‘tirgan bolalar. Hatto achchiq-chuchuk so‘zidan Qodirning og‘zidan suvi ham keldi.

— Yeymiz, — dedi lo‘ppi yuzli, tiyrakkina Hakim birinchi bo‘lib.

— Men moshkichirini yaxshi ko‘raman, — dedi Bahodir.

— Hazil qilyaptilar, darrov palovni qayerdan oladilar? — dedi yana birovi.

Salim aka g‘alati qilib jilmaydi:

— To‘g‘ri, hali tayyor emas. Lekin palov yeyishlaring aniq.

Salim aka bolalarni ergashtirib, sabzavot ekilgan yeriga olib bordi.

— Ko‘rdinglarmi? Sabzi, piyozlarni o‘t bosib ketdi. Kattalar g‘o‘za parvarishi bilan band. Qani, azamatlar, bir o‘toq qilib tashlanglar-chi! Sabzisiz palov, piyozdog‘siz moshkichiri bo‘lmaydi. Bu yerni ertagacha o‘toq qilib bo‘lsanglar, indinga pomidor orasidagi o‘tlarga ham hujum boshlab yuborasizlar.

Bolalar Salim akaning hazilidan xafa bo‘lishmadi. Ertasi kuni darsdan so‘ng har kim sinfidagi bolalarni polizga boshlab keldi. Ikki kunda o‘tdan nishona ham qolmadi.

Yoz kelib, hosil yetildi. Bolalar Salim aka aytgandek, sersabzi palovni ham, piyozdog‘li moshkichirini ham, mazali pomidorlarni ham to‘yib-to‘yib yeyishdi.

Mehnatlari singani uchunmi, har qalay, ularning mazasi juda bo‘lakcha edi.

(Mahmud Murodov)

bo‘lakcha — по-другому
varaqlamoq — перелистывать
g‘o‘za — хлопчатник
parvarishlamoq — ухаживать

tiyrak — чуткий
hazil qilmoq — шутить
egat — грядка

Uyga vazifa. Hikoyani so‘zlab bering.

XIX MAVZU. NAVRO‘Z UDUMLARI

(O‘rin ravishining qo‘llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Guruhlarga bo‘lining va suratlarni tasvirlab bering.

1- mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va birikmalarga e‘tibor bering

Navro‘z

Sharq xalqlarida Navro‘z yangi yilning boshlanishi hisoblanadi. Navro‘z so‘zi «**yangi kun**» degan ma‘noni bildiradi. Har yili **21-mart**da tun bilan kun tenglashadi. Shu kundan boshlab kunlar uzayib, tunlar qisqara boshlaydi. Kunlar isib, qorlar erib, bahor o‘z o‘rnini to‘liq egallaydi. Dehqonlar va bog‘bonlar dala va bog‘larda ekin ekish va daraxtlarni parvarish qilishni boshlab yuboradilar. Butun tabiat qaytadan uyg‘onadi va yangi hayot boshlanadi. Shuning uchun Sharq xalqlari Navro‘zni **bahor va mehnat bayrami** sifatida nishonlaydilar.

2- mashq. Rasmlar o‘rniga so‘zlar qo‘yib matnni yozing.

Navro‘zda barcha odamlar ko‘chatlar ekadilar, ko‘cha va ariqlarni tozalaydilar.

Dehqonlar  , bug‘doy,  ekadilar. Bog‘bonlar me-
 vali  larni parvarishlaydilar. Biz  ,  ekamiz.

Mahallalarda, jamoalarda sumalak pishiradilar, xonadonlarda ko‘k
 somsa va ko‘k chuchvaralar pishiradilar.



O‘zbek tilida o‘rin ma’nosini bildirishda pastda, o‘ngda, chapda, ichkarida, tashqarida, o‘rtada, uzoqda, bu yer (-ga, -da, -dan), shu yer (-ga, -da, -dan), u yer (-ga, -da, -dan) kabi o‘rin ravishlari ishlatiladi. Bu so‘zlar qayerga? qayerda? qayerdan? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan: *Pastda anhor shovullab oqyapti.*

3- mashq. Matndan o‘rin ravishlarini aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

«Yong‘oqlar meniki» o‘yini

O‘yin uchun bolalar pastda chuqurcha kavlashadi. U tayyor bo‘lgach, o‘rtada saf tortib turgan bolalar chuqurchaga bittadan yong‘oq tashlashadi. Keyin har bir bola chuqurcha yonida turib cho‘ntagidagi zahira yong‘oqlaridan uzoqqa otadi. Kimning yong‘og‘i eng uzoq joyga tushsa, u birinchi bo‘lib chuqurcha ichidagi yong‘oqlar, ya’ni «yovvoyi hayvonlar»ni mo‘ljalga oladi. Ishtirokchi mo‘ljalni bexato olib, yong‘og‘ini chuqurchaga tushira olsa, to‘plangan yong‘oqlarning hammasi o‘sha bolaniki bo‘ladi. Qolgan bolalar yana bir donadan yong‘oq tashlashadi. O‘yin yuqorida aytilgan tartib bo‘yicha davom etadi.

(Guljahon Mardonova)

2- topshiriq. Berilgan savollarga og‘zaki javob bering.

1. Navro‘z bayrami bilan bog‘liq qanday xalq o‘yinlarini bilasiz?
2. Qaysi xalq o‘yinlarini sevib o‘ynaysiz?

4- mashq. O‘qing va savollarga javob bering.

Navro‘z udumlari

Sharq xalqlarida Navro‘z bilan bog‘liq juda ko‘p udumlar bor. Navro‘z kuni odamlar ota-onasi, yaqin qarindoshlari bilan diydorlashganlar. Qadimdan Navro‘z kunlarida ko‘chalar, maydonlar, hovlilar, ariq-zovurlar tozalanadi, hovli-bog‘lar tartibga keltiriladi. Mahallalarda, korxonalarda, maktablarda umumxalq hashari o‘tkaziladi. Navro‘z kunlarida yoshlar qir-adirlarga chiqadilar, gullar, lolalar, giyohlar terib qaytadilar. Navro‘z udumlaridan yana biri Navro‘z kunlarida pishiriladigan taomlardir. Sumalak, halim, ko‘k somsa, ko‘k chuchvara kabilar Navro‘z taomlari hisoblanadi.



1. Sharq xalqlarida Navro‘z qanday ma‘noni bildiradi?
2. Navro‘z bayramidan oldin qanday ishlar bajariladi?
3. Qaysi taomlar faqat Navro‘z kunlari tayyorlanadi?
4. Navro‘z kunlari yana qanday udumlar bajariladi?

bog‘liq — связанный

diydorlashmoq — встречаться

orastalamoq — чистить

tartibga keltirmoq — навести порядок

atrof — вокруг

taom — еда

udum — обычай

3- topshiriq. She‘rni ifodali o‘qing.

Navro‘z

Yer yashil, ko‘k yashil, bu borliq yashil,
Tabiatda o‘zgacha go‘zallik, fusun.
Elimning sog‘ingan bayrami asil,
Marhabo, Navro‘zim, salom, Yangi kun!



Seni kutgan dillarga shodlik ola kel,
 Fayz keltirgin xalqim xonadoniga.
 Dehqon dalasiga hosil ola kel,
 Sog'lik ola kelgin xasta dillarga.
 Yoshimizga bir yosh qo'shilib yana,
 Ulg'ayibmiz hayot ostonasida.
 Qalblarda yuksalish, musaffo, toza,
 Turibmiz poklanish pog'onasida.
 Go'zal ohanglarga berilib bugun,
 Qalbda bir poklanish, xush navo ustun.
 Kelgin, endi borliqni yashnatib butun,
 Marhabo, Navro'zim, salom, Yangi kun!

(Nilufar Sharipova)

borliq — вселенная
 sog'inmoq — скучать
 marhabo — добро пожаловать
 ulg'aymoq — повзрослеть

fusun — очарование
 xasta — больной
 pog'ona — этап
 navo — музыка

Uyga vazifa. Navro'z bayramida ushbu udumlardan qaysi birini bajara olganingiz haqida yozing va so'zlab bering.

2 - dars

4- topshiriq. Guruhlarga bo‘lining va berilgan suratlar asosida har bir guruh bittadan kichik matn tuzing.

5- topshiriq. Matnni o‘qing va matn mazmuni asosida suhbatlashing.

Navro‘z udumlaridan yana biri bemorlarni, keksalarni borib ko‘rishdir. Har yili Navro‘z kunlari Mehribonlik uylariga sovg‘alar ulashiladi. Korxonalarda o‘tkazilayotgan bayram tantanalariga mehnat faxriylari taklif qilinadi va ularga katta hurmat-ehtirom ko‘rsatiladi. Bu udum qadimgan beri saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlarimizdan biridir. Ushbu qadriyatlarni asrab-avaylash va davom ettirish har birimizning burchimizdir.



O‘rin-joy otlari aniq ma‘noni, o‘rin ravishlari esa noaniq ma‘noni bildiradi. Solishtiring:

O‘rin-joy otlari

maktabga
dalada
jarda
lolazordan

O‘rin ravishlari

shu yerga
u yerda
pastda
bu yerdan

5- mashq. Quyida keltirilgan Navro‘z udumlarini ketma-ket yozib chiqing. Tuzgan gaplaringizda payt ravishlaridan foydalaning.

- yangi kiyimlar kiyadilar;
- daraxtlarni oqlaydilar;
- bemorlarni, keksalarni borib ko‘radilar;
- xonadonlarni, ko‘cha-hovlilarni tozalaydilar;
- jamoa bo‘lib Navro‘z taomlarini pishiradilar;
- bayram tantanalariga boradilar;
- ko‘chatlar ekadilar, ariqlarni tozalaydilar;
- Navro‘zga atab she‘r-qo‘shiqlar o‘rganadilar;
- tantanalarda, sport musobaqalarida qatnashadilar;

- yaxshi niyatlar qiladilar;
- hasharga chiqadilar;
- qarindoshlar, do'stlarinikiga mehmonga boradilar;
- qir-adirlarga sayllarga chiqadilar.

6- mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan so'zlardan mosini qo'yib matnni ko'chiring.

Navro'z ... (yangi yil, eski yil) demakdir. Navro'z bayrami ... (1 kun, 3 kun, 1 oy) davom etadi. Bayramdan oldin ... (birinchi, ikkinchi) ko'chalar, uylar tozalanadi. Shahar va qishloqlarda ... (bir marta, uch marta, ko'p marta) hasharlar o'tkaziladi. Bayram ... (birinchi, ikkinchi, oxirida) A.Navoiy nomidagi Milliy bog'dan boshlanadi. So'ngra ... (uch kun, bir necha kun, bir oy davomida) barcha viloyatlarda xalq sayllari davom etadi. Bayram kunlari ... (sumalak, osh, ko'k somsa) kabi Navro'z taomlari pishiriladi. Aytishlaricha, ... (bir yilda, ikki yilda, besh yil ichida) sumalakni to'yib yegan kishi yil davomida sira kasal bo'lmas ekan.



Adabiy o'qish

Uyg'onish

Ko'k yuzini qoplagan bulutlar siyraklashib, yilt etib quyosh chiqdi va borliqni quyosh nurlari qopladi. Atrofdagi yashillik yanada chiroyli manzara kasb etdi. Tepalikda turgan qizaloq zavqqa to'lib, ko'zlarini yumgancha pastga yugurdi.

— Navro'z kelyapti!

— Voy, ana gul! — behosdan qichqirib yubordi qizcha giyohlar orasidagi boychechaklarni ko'rib. — Bu gullar qanday ataladi?

— Bular boychechaklar, ularni bahor elchilari deb atashadi. Chunki yerdan qor ketishi bilan birinchi bo'lib mana shu gullar ochiladi.

— Dada, bu yerda nega lolalar yo'q?

— Bu yerda ochilgan lolalarni odamlar terib ketishgan. Yur, qidirib ko'ramiz, balki nariroqda bordir.

Ota-bola uzoq aylandilar, lekin hech qayerda lolalar yo'q edi.

- Dada, oftob yo‘q bo‘lib qoldi.
- Ha, qizim, osmonda bulut quyuqlashyapti. Hozir yomg‘ir yog‘a boshlaydi. Yur, ketamiz, qizim.
- Hali lola topganimiz yo‘q-ku?!
- Endi topa olmaymiz ham. Har yili piyozidan chiqqan lolalar uzib olinavergach, endi chiqmay qo‘ygan.
- Endi sira ham chiqmaydimi?
- Endi chiqmaydi, qizim. Odamlar bilib-bilmay tabiatga zarar keltiradilar. Lolalar endi odamlar chiqa olmaydigan tog‘ cho‘qqilaridagina qolgan.
- Qizaloq mayuslik bilan tog‘ cho‘qqilariga qaradi. Otasi dedi:
- Qara, qizim, majnuntol barg chiqaribdi. Yur, shoxlaridan olamiz. Ayang sochbarg qilib beradi.
- Men sochbarg taqmayman. Keyin tollar ham o‘smay qo‘yadi. Dada, endi tog‘ga qachon kelamiz?
- Endi Navro‘zdan keyin kelamiz. Unda kapalaklar, chumolilar ham uyg‘ongan bo‘ladi. Qaldirg‘ochlar uchib kelgan bo‘ladi.
- O‘shanda cho‘qqiga ham chiqamizmi?
- Chiqamiz, qizim, chiqamiz.
- Men o‘shanda odamlarga lola terdirmayman, — dedi qizaloq. — Bo‘lmasa, u yerda ham lolalar qolmaydi.
- To‘g‘ri qilasan, qizim. Tabiat go‘zalliklarini asrash kerak.

(Matluba Qosimova)

siyrak — редкий

behosdan — вдруг

boychechak — подснежник

aks-sado — эхо

giyoh — растение

nariroqda — чуть дальше

Uyga vazifa. Hikoyaga o‘z munosabatingizni bildiring.

XX MAVZU. DAM OLISH KUNI

(Hozirgi-kelasi zamon fe'lining yasalishi va qo'llanishi)

1 - dars



1- mashq. Matnni o'qing. So'ngra rasm asosida matnni to'ldiring.

Dam olish kunida

Bugun yakshanba. Dam olish kuni. Ertalab oilamiz a'zolari bilan birga o'tirib **nonushta qilamiz**. Oyim dasturxonga issiq non, qaymoq va mevalarni **qo'yadilar**. Har birimizga quymoq **pishirib keladilar**. Nonushtadan so'ng ukam bilan men uy ishlariga **qarashamiz**. Buvam bilan buvim o'z xonalariga kirib dam olishadi. Men uylarni **yig'ishtiraman**. Singlim hovli, ko'chalarni **supuradi**. So'ng ikkalamiz kitob o'qiyamiz, dars tayyorlaymiz. Barcha ishlarni bajarib bo'lgach, ko'chaga chiqib biroz **o'ynaymiz**.

1- topshiriq. Savollarga javob bering va suhbatni davom ettiring.

1. Oilangizda dam olish kuni qanday o'tadi?
2. Dam olish kuni kim nima bilan shug'ullanadi?
3. Siz qanday ishlarni bajarasiz?
4. Madaniy hordiq deganda nimani tushunasiz?



O'zbek tilida hozirgi-kelasi zamon fe'li unli tovushdan so'ng **-y**, undosh tovushdan so'ng **-a** qo'shimchalarini qo'shish yordamida hosil qilinadi va quyidagicha tuslanadi:

Birlik

Ko'plik

I sh. *o'qiym^an, yozam^an*

o'qiymiz, yozamiz

II sh. *o'qiys^an, yozas^an*

o'qiysiz, yozasiz

III sh. *o'qiydi, yozadi*

o'qiydi, yozadi (-lar)

2- mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni hozirgi-kelasi zamon shaklida yozing.

Uy-hovlilarni (supurmoq), gullarga suv (quymoq), uylarni (yig'ishtirmoq), shirin taomlar (pishirmoq), bobom bilan buvam (dam olmoq), dadam bilan oyim bizdan (xursand bo'lmoq), oilamiz bilan teatrga (bormoq).

3- mashq. Matnni o'qing. Fe'llarning zamon shaklini aniqlang.

Saida va Umida juda inoq. Ular bir maktabda o'qiydilar, birga dars tayyorlaydilar. Birgalikda yosh havaskorlar to'garagiga qatnashadilar. Bugun dam olish kuni. Biroq ikkala dugona ko'chaga o'ynagani chiqishgani yo'q. Ular uyda «Tovus» raqsini o'rganishyapti. Yaqinda maktabda o'tkaziladigan tadbirda shu raqs bilan ishtirok etishmoqchi.

2- topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

Bobur: — Nozima, dam olish kuni qayerga bordingiz?

Nozima: — Dam olish kuni men akam va singlim bilan hayvonot bog'iga bordik. Hayvonot bog'idan qaytishda buvam bilan buvimlarni ham ko'rib keldik. Siz qayerda dam oldingiz?

Bobur: — Biz oilamiz bilan dala hovlimizga bordik. Dala hovlidan juda kech qaytdik.

Zilola: — Biz esa dam olish kunini oila a'zolarimiz bilan uyda o'tkazdik. Ertalabki nonushtadan so'ng men oyimga, akam dadamga uy ishlarida yordam berdik.

Farhod: — Biznikiga esa qishloqdan dadamning do‘stlari meh-monga kelishdi. Ularning men tengi o‘g‘illari bor ekan. Men u bilan do‘stlashib oldim.

Uyga vazifa. Dam olish kunida nimalar bilan shug‘ullanishingiz haqida yozing.

2 - dars

4- mashq. Suratlar o‘rniga so‘zlar qo‘yib matnni o‘qing.

Hayvonot bog‘ida. Hayvonot bog‘i bolalarning eng yaxshi dam olish maskani. U yerga borsangiz, katta hovuzda suzib yurgan



va



larni ko‘rasiz. Ayniqsa,



va



hamda



ni ko‘rib zavq olasiz. Baland daraxt-

da o‘tirgan



va



barchani hayratga

soladi. Hamma bolalar



va uning bolasini ko‘rgani borishadi.

Filcha o‘zi yosh bo‘lsa ham, baribir hamma hayvonlardan kattaligi barchani hayron qoldiradi. Hayvonot bog‘idan juda katta taassurotlar bilan qaytasiz.

5- mashq. Berilgan javoblarga mos savollar qo‘ying.

— ...?

— Dam olish kuni biz tarix muzeyiga boramiz.

— ...?

— Ko‘rgazma zallarini, turli eksponatlarni ko‘ramiz.

— ...?

— Muzey xodimlaridan qadimgi davrlar haqida ma’lumotlar olamiz.

— ...?

— Muzeyda ko‘rganlarimiz haqida ijodiy ish yozamiz.

6- mashq. Dam olish kunida quyidagi ishlardan qaysilarini bajarishingizni hozirgi-kelasi zamon shaklida yozing.

— Hovli va ko‘chani supurdim.

— Ovqat pishirishga va kir yuvishga yordam berdim.

— Buvam bilan buvimlardan xabar olib keldim.

— Buvimning uylarini yig‘ishtirib keldim.

— Ukamga qarab turdim.



Adabiy o‘qish

Qizlar

(Hikoya)

Bahor kunlarining birida 6- sinfning qizlari o‘zaro gaplashib maktabdan qaytishardi. Shunda Saidra o‘rtog‘lariga:

— Qizlar, kelinglar, yakshanba kuni kino ko‘rishga boraylik.

— Yaxshi bo‘lardi, — dedi Mohira.

— Ustozimiz, Navro‘z bayrami arafasida hovli, ko‘chalar tozalansa, keksalar holidan xabar olinsa, juda savob bo‘ladi, deb aytdilar. Yakshanba kuni mahallamizdagi Badal amaki va Fozila buvinikiga chiqib, uy ishlariga qarashib kelsak, yaxshi bo‘lardi, — deb taklif kiritdi Zulxumor.

— E-e, o‘zimizning uyda ham ish tiqilib yotibdi. Bir kami birov-larning ishini qilishmidi? — e’tiroz bildirdi qizlardan biri.

Zulxumor bilan Muhayyodan boshqa qizlar kinoga ketishdi. Ikki dugona qo‘shni qariyalarning uylari, hovlisi, ko‘chalarini supurib qo‘yishdi. Qariyalar ulardan juda xursand bo‘lishdi.

— Ayting-chi, kim to‘g‘ri ish qildi? Bunday vaziyatda siz nima qilgan bo‘lar edingiz?


(«Tong yulduzi» gazetasidan)

Uyga vazifa. Hikoyani so‘zlab bering va o‘z munosabatingizni bildiring.

XXI MAVZU. ONA SHAHRIM

(-moqda qo‘shimchali hozirgi samon
fe’lining qo‘llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Berilgan rasmlarni kuzating va tayanch so‘zlar asosida gaplar tuzing.

Tayanch so‘zlar: muhtasham va zamonaviy binolar, keng ko‘chalar, haykal, qadimiy obidalar, chiroyli bekatlar, katta bozor.

1- mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e’tibor bering.

Ona shahrim

Men O‘zbekistonning eng ko‘rkam shaharlaridan birida yashayman. Shahrimizning ko‘chalari keng, fayzli. Keyingi yillarda

shahrimizda obodonlashtirish ishlariga juda katta e'tibor **qaratilmoqda**. Yangi zamonaviy binolar, muhtasham saroylar, keng yo'llar, ko'priklar **qurilmoqda**. Shahrimizdagi qadimiy obidalar qayta **ta'mirlanmoqda**. Ona shahrimiz kundan kunga **go'zallashib bormoqda**. Yangi-yangi xiyobonlar, sayilgohlar **barpo etilmoqda**.

2- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz qaysi shahar (qishloq, tuman markazi) da yashaysiz?
2. Sizning shahringiz (qishlog'ingiz)da qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
3. Sizga o'z shahringiz (qishlog'ingiz) yoqadimi?
4. Siz ona shahringiz (qishlog'ingiz)ning kelajagini qanday tasavvur qilasiz?



O'zbek tilida nutq so'zlanayotgan paytda sodir bo'layotgan ish-harakatni ifodalovchi fe'llar **-moqda** qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi. Bunday fe'llar quyidagicha tuslanadi:

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>qurmoqdaman</i>	<i>qurmoqdamiz</i>
II shaxs	<i>qurmoqdasan</i>	<i>qurmoqdasiz</i>
III shaxs	<i>qurmoqda</i>	<i>qurmoqdalar</i>

2- mashq. Berilgan so'zlarni o'zaro bog'lab gaplar tuzing. Fe'llarni hozirgi zamonda qo'llang.

1. Biz, juda, o'z, shahar, yaxshi ko'rmoq.
2. Ona, va, shahar, obod, yildan yilga, go'zal, bo'lmoq.
3. Hozir, shahar, yangi, maktab, binosi, qurilmoq.
4. Shahar, turar joy, zamonaviy, qurilmoq, juda ko'p.
5. Ona, men, faxrlanmoq, shahar.

3- topshiriq. Shahringizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari haqida bir-biringiz bilan savol-javob qilib, o'zaro suhbatlashing.

Namuna:

— Shahringizning bosh maydonida qanday o'zgarishlar bo'lmoqda?

— Shahrimizning bosh maydoni eng obod joyga aylanmoqda. U yerga yangi favvoralar qurilmoqda...

Uyga vazifa. O‘z shahringizning ko‘zga ko‘ringan joylari haqida ma’lumot yozing.

2 - dars



4- topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.

— Bu qanday bino?

— Bu yangi sport majmuasi.

— Avval kelganimda bu yerda hech qanday bino yo‘q edi. Shahringiz juda o‘zgarib ketibdi.

— Ha, shahrimizda bunyodkorlik ishlariga katta e’tibor berilmoqda. Yoshlarning sport bilan shug‘ullanishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

— Bizning shahrimizda ham katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda.

3- mashq. Qavs ichida berilgan fe’llarni mos zamon shakliga qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Olmalik

Olmalik yangi qurilgan shaharlardan biridir. U hozir respublikamizning katta sanoat shahriga (aylanmoq). Olmalik — rangli metallar koni. U yerdan mis, ruh, qo‘rg‘oshin va boshqa metallar (qazib olinmoq). Shaharda bir qancha sanoat korxonalari bor. Katta

elektrstansiya, ohak va sement zavodlari, duradgorlik fabrikalari (faoliyat yuritmoq). Olmaliqda zamonaviy akademik litseylar, kollejlardan, maktablar, kutubxona, kinoteatrlar bor. Shahar kundan kunga (obod boʻlmoq).

5- topshiriq. Berilgan javoblarga mos savollar tuzing.

- ... ?
- Shahrimizda maktablar, akademik litseylar va kollejlarni qurilmoqda.
- ... ?
- Yoshlar uchun madaniyat saroylari, sport majmualari ishga tushirilmoqda.
- ... ?
- Dam olish maskanlari va oromgohlar ham qurilmoqda.
- ... ?
- Yoʻl chetlariga manzarali daraxtlar va chiroyli gullar ekilmoqda.

6- topshiriq. Guruhlarga boʻlinib va «Kim koʻp biladi?» oʻyinini tashkil qiling. Oʻyin topshirigʻiga koʻra har bir guruh oʻz shahri (qishlogʻi) dagi tarixiy joylar haqida maʼlumotlar berishi kerak.



Adabiy oʻqish

Ustunlar

Bolalar muallimalari bilan birga shahar aylangani chiqishdi. Katta-katta imoratlar, favvoralar, turli-tuman doʻkonlarni tomosha qilishdi. Lekin ularning hamma koʻrganlari ham bir boʻldi-yu, bitta ajib binoni tomosha qilganlari ham bir boʻldi. Bu imorat oldida ular ancha toʻxtab qolishdi. Bino milliy naqshlar bilan antiqa qilib bezatilgan. Uni bir necha baquvvat, naqshinkor ustunlar koʻtarib turardi. Bolalar imorat atrofini gir aylanib chiqishdi. Uning ustunlari anchagina ekan.

— Ustoz, — soʻrab qoldi bolalardan biri, — bitta ustuni kam boʻlsa boʻlmaydimi?

— Bo‘lmaydi, Asadjon. Chunki har bir ustunning o‘z vazifasi bor.

Shu payt Nilufar ustoziga yaqinroq bordida:

— Ustoz, biz ham ustunlarmiz-a? — dedi o‘ylanib. Muallima avvaliga qizchaning nima demoqchi ekanini tushuna olmadi. Keyin... xursand bo‘lib ketdi.

— To‘g‘ri aytding, Nilufar. Kelajakda har bittangiz o‘z oilangizning ustuni, qolaversa, O‘zbekistonimizni yelkasida ko‘tarib turadigan ustunchalari bo‘lasiz.

Nilufarning gapi boshqa bolalarning fikrlarini ham uyg‘otib yubordi...

— Mard bolalar O‘zbekistonga ustun bo‘ladi-a, ustoz?

— Albatta!

— Mardlar Vatanni qo‘riqlaydi-a?

— Albatta!

— Nozima ham ustun bo‘ladimi?

— Ha.

— Umid hammi?

— Ha.

— Aziz-chi?

— U ham.

— Voy-bu, unda ustunlar rosa ko‘p bo‘larkan-da?

— Vatanimizning ustunlari ko‘p bo‘ladi, yuzlab, minglab, millionlab. Ular bir qudratli kuch bo‘lib, O‘zbekistonni e‘zozlab qo‘llarida ko‘tarishadi. Uni asrashadi, avaylashadi. Obro‘si va sharafini himoya qilishadi.

(Yashar Xondamir)

ajib — изумительный

antiqa — редкостный

yuk — груз

naqsh — орнамент, узор

farq — разница

qudratli — могучий

Uyga vazifa. Hikoyaga o‘z munosabatingizni bildirgan holda so‘zlab bering.


XXII MAVZU. BUYUK ASTRONOM

(-r (-ar) edi shaklli o'tgan zamon fe'lining
tuslanishi va qo'llanishi)

1 - dars



Mirzo Ulug'bek haykali



Ulug'bek rasadxonasi

1- topshiriq. Berilgan tayanch so'zlar va tasvirlar asosida Mirzo Ulug'bekka ta'rif bering.

Salobatli, hukmdor, odil, dono, aqlli, o'tkir zehqli, buyuk olim.

1- mashq. Matnni o'qing. Ajratib yozilgan so'zlarga e'tibor bering.

Buyuk astronom

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek bolalik davrida bobosi Amir Temur bilan ko'p mamlakat va shaharlarga **borar edi**. U hamma narsaga **qiziqar**, olgan taassurotlari asosida rasmlar ham **chizar edi**. Ulug'bek o'zi hukmdor bo'lgandan so'ng Samarqandni ilm markaziga aylantirib, hatto rasadxona qurdirdi. U bu yerda yulduzlarning harakatini **kuzatar edi**. Ulug'bek 1018 ta yulduzni o'rganib, «Zichi

Kuragoniy» jadvalini tuzgan. Hozir koinotdagi yulduzlardan biri Ulug‘bek nomi bilan ataladi.

taassurot — впечатление
hukmdor — повелитель
aylantirmoq — превратить
ilm markazi — научный центр

koinot — вселенная
yulduz — звезда



O‘tgan zamon davom fe‘llari harakatning o‘tgan zamonda davom etgani yoki bir necha bor takror sodir bo‘lganini bildiradi va fe‘llarga **-r(-ar)** qo‘shimchasi hamda *edi* fe‘lini qo‘shish orqali hosil qilinadi va quyidagicha tuslanadi:

Birlik

Ko‘plik

I sh. o‘qir (ko‘rar) edim

o‘qir (ko‘rar) edik

II sh. o‘qir (ko‘rar) eding

o‘qir (ko‘rar) edingiz

III sh. o‘qir (ko‘rar) edi

o‘qir (ko‘rar) edilar

Ba‘zan o‘tgan zamon davom fe‘li tarkibidagi *edi* to‘liqsiz fe‘li qisqarib, **-di** shaklida qo‘llanishi ham mumkin. Bunda u fe‘l asosiga qo‘shib yoziladi. **Masalan:** *o‘qirdim, o‘qirding, o‘qirdi, o‘qirdik, o‘qirdingiz, o‘qirdilar* kabi. *Uzoqlarda yulduzlar miltillab ko‘rinardi.*

2- mashq. Berilgan fe‘llarni o‘tgan zamon davom fe‘li shaklida yozing.

Kuzatmoq, o‘qimoq, qiziqmoq, qurdirmoq, yaratmoq, o‘rganmoq, shug‘ullanmoq, ko‘rinmoq.

3- mashq. Qavs ichida berilgan fe‘llarni o‘tgan zamon davom fe‘li shakllarida yozib gaplarni ko‘chiring.

1. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek bolaligida yulduzlarni tomosha qilishni (yaxshi ko‘rmoq). 2. U hukmdorlik qilgan davrida bo‘sh vaqtlarini ko‘pincha rasadxonada (o‘tkazmoq). 3. Ulug‘bek o‘z shogirdlariga dunyoviy ilmlardan (saboq bermok). 4. Juda ko‘p ilm

toliblari Ulug‘bek qurdirgan madrasada (o‘qimoq). 5. Temuriylar davrida ilm-fanni rivojlantirishga katta (e‘tibor bermoq).

4- mashq. Nuqtalar o‘rniga ma’lumot uchun berilgan fe’llarning mosini qo‘yib ko‘chiring.

Olimlar yulduzlarga qadim zamonlardan Ular yulduzlarning joylashgan o‘rniga qarab yulduzlar xaritalarini Bunday xaritalarda har bir yulduz turkumi va yirik yulduzlarning nomi Odamlar Qutb yulduzi, Zuhro yulduzi, Katta Ayiq va Kichik Ayiq yulduzlar turkumini yaxshi Yo‘lboshchilar tunda yulduzlarga qarab Shuning uchun yulduzlar kompas vazifasini ham

Foydalanish uchun: bajarardi, o‘tardi, yozilar edi, qiziqardilar, yurar edilar, tuzar edilar, bilar edilar.

2- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

Ulug‘ bobomiz

Yosh Ulug‘bek xayolin
Sirli ko‘k tortar edi.
Boqqan sari savoli,
Hayrati ortar edi.
 Yulduzlar ham yarqirab
 Porlar edi tunlari.
 Yosh yurakni parpirab,
 Chorlar edi tunlari.
Yillar o‘tdi Ulug‘bek
Kuch, ilmga to‘lgandi.
Qancha-qancha yulduzlar
Sirini u o‘rgandi.
 Olim bo‘lib taratdi,
 El shonini jahonga.
 Ulug‘ bobomiz qadri
 Yetdi bugun osmonga.

(Dilshod Rajab)

hayrat — удивление
qadr — ценность
chorlamoq — призывать

sirli — таинственный
shon — слава
porlamoq — сиять

Uyga vazifa. She'rni yod oling.

2 - dars

3-topshiriq. Rasmni diqqat bilan kuzating va suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

Muзей xodimi: — Sizlarni Ulug'bek rasadxonasida ko'rganimizdan xursandmiz. Rasadxona uch qavatdan iborat bo'lgan. Hozir faqat ikki qavati saqlanib qolgan. Rasadxonaning yonida yulduzlar holatini tekshiradigan maxsus yerto'la mavjud bo'lgan. Bu yerda Mirzo Ulug'bek o'z shogirdlari bilan yulduzlar harakatini kuzatar edi. Siz turgan binoda esa kuzatishlar natijalarini tahlil qilishar, ma'lumotlar asosida jadvallar tuzishardi.

Sayyoh: — Mana bu suratda kimlar tasvirlangan?

Muзей xodimi: — Dunyo astronom olimlari tasvirlangan. E'tibor bersangiz, Mirzo Ulug'bek Kopernikning o'ng tomonida turibdi.

Sayyoh: — Mana bu asbob-uskunalar qaysi asrga oid?



Muzey xodimi: — Ular Ulug‘bek yashagan davrga mansub. Bu asbob-uskunalaridan yulduzlarni kuzatishda foydalanishgan.

Sayyoh: — Mirzo Ulug‘bekning nomini abadiylashtirish bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?

Muzey xodimi: — Vatanimizda uning nomi bilan ataladigan tuman, shaharchalar, universitet, metro bekati, istirohat bog‘i, ko‘chalar bor. YUNESKOning qarori bilan hatto bitta yulduzga Ulug‘bek nomi berilgan.

abadiylashtirish — увековечить
asbob-uskuna — прибор
tahlil qilmoq — анализировать

yerto‘la — подвал
qaror — решение



O‘tgan zamon davom fe‘lining bo‘lishsiz shakli **-mas** qo‘shimchasi orqali hosil qilinadi va quyidagicha tuslanadi:

	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	o‘qimas edim	o‘qimas edik
II shaxs	o‘qimas eding	o‘qimas edingiz
III shaxs	o‘qimas edi	o‘qimas edilar

O‘tgan zamon davom fe‘lining qisqargan shakli esa **-masdi** qo‘shimchasini orqali hosil qilinadi. Masalan: *Bulutli osmonda yulduzlar ko‘rinmasdi.*

5- mashq. Berilgan fe‘llarni bo‘lishsiz shaklga aylantiring.

Kelardi, charchar edim, borardik, tinglar edingiz, yurardilar, tushuntirar edingiz, qiziqardilar.

6- mashq. Berilgan gaplardagi fe‘llarni bo‘lishli shaklga aylantirib yozing.

1. Osmonda bulutlar ko‘rinmas edi. 2. Biz u paytlar bu to‘garakka qatnashmas edik. 3. Zebo bolalagida she‘r yozmas edi. 4. Bu ko‘lda qayiqalar suzmas edi. 5. Biz tabiatning bu mo‘jizalariga

ishonmas edik. 6. Osmonga termilib yulduzlarni kuzatish unga yoqmas edi.

7- mashq. Matnlarni davom ettiring. O'tgan zamon fe'lining qaysi shaklidan foydalanganingizni ayting.

Shahrimiz qadimda Afrosiyob, Marokand deb atalar edi. Afrosiyob qadimgi So'g'd davlatining poytaxti hisoblanar edi. Hozirgi Samarqand shahri yaqinida Afrosiyob shahrining qoldiqlari bor

Mirzo Ulug'bek sohibqiron Amir Temurning eng sevimli nabirasi hisoblanardi. Mirzo Ulug'bek doim bobosi bilan birga yurardi. Biroq u urushlarni yoqtirmasdi. Shahzoda ilm-fanga, sirli yulduzlarga juda qiziqar edi. U o'zi hukmdor bo'lgandan so'ng... .



Adabiy o'qish

Mirzo Ulug'bek

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek 1394- yilda Sultoniya da tug'ilgan. U bolalik davrida bobosi Amir Temur bilan ko'p mamlakat va shaharlarni ko'rgan. Amir Temur vafotidan keyin hokimiyat Ulug'bekning otasi Shohrux qo'liga o'tadi. Shohruh Xurosonda hukmronlik qiladi. Movarounnahrni esa o'g'li Ulug'bekga topshiradi.

Ulug'bek hukmronlik davrida Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi, Shohizinda inshootlarining qurilishini tamomladi, ko'plab bog'lar yaratdi. 1417—1420- yillarda ajoyib madrasa qurdirdi. U tarixda Ulug'bek madrasasi deb ataldi.

Keyinchalik Samarqandda rasadxona qurdirdi. Rasadxonani o'sha vaqtdagi mukammal asboblardan ta'minladi.

Ulug'bek o'z davrining buyuk olimi, astronomi, shoiri va faylasufi edi. U rasm, musiqa bilan ham shug'ullangan. Ulug'bek davrida Samarqand ilm markaziga aylangan.


Ulug'bekning «Astronomiya jadvali» asari o'rta asr Sharq astronomiyasining eng mukammal asari hisoblanadi.

Uyga vazifa. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

XXIII MAVZU. BOBOM XOTIRALARI

(-gan edi shaklli o'tgan zamon fe'lining tuslanishi
va qo'llanishi)

1 - dars



1- topshiriq. Savollarga javob bering va suhbatni davom ettiring.

1. Bobongiz bilan nimalar haqida suhbatlashasiz?
2. Bobongiz qaysi kasb egasi bo'lganlar?
3. Bobongizni ko'rgani tez-tez borib turasizmi?

1- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Bobom xotiralari

Bu voqea urush yillari **sodir bo'lgan edi**. Dadam urushga ketgan, biz besh farzand oyim va buvim bilan **qolgan edik**. Hovlimizda bir tup katta tut bor bo'lib, shu tut bizni **boqar edi**. Oyim bilan buvim shu tut mevalaridan qoqi, shinni tayyorlar va uni bozorda yeguliklarga almashtirib kelib, ro'zg'orimizni yuritardilar. Biroq bir kuni o'qishdan kelsam, tutimiz **kesib ketilgan**, oyim bilan buvim **yig'lab o'tirgan ekanlar**. Tutdan ayrilish oilamiz boshiga katta musibatlar keltirdi. O'sha yili kenja ukam ochlikdan vafot etdi. Bu g'amni ko'tarolmay oyim ham **yotib qolgandilar**. Har yili tut pishig'ida shu voqealar yodimga tushadi.

sodir bo'lish — происходить
ro'zg'or — хозяйство

ochlik — голод
yegulik — съедобное



Uzoq o'tgan zamon fe'li harakatning nutq so'zlanayotgan paytdan ancha oldin bajarilganini bildiradi va fe'llarga **-gan** qo'shimchasi hamda **edi** to'liqsiz fe'lini qo'shish orqali hosil qilinadi. Uzoq o'tgan zamon fe'llari **-gan** qo'shimchasi bilan ham hosil qilinishi mumkin.

Uzoq o'tgan zamon fe'llarining tuslanishi

Birlik

I shaxs o'qigan edim
II shaxs o'qigan eding
III shaxs o'qigan edi

Ko'plik

o'qigan edik
o'qigan edingiz
o'qigan edilar

Birlik

I shaxs o'qiganman
II shaxs o'qigansan
III shaxs o'qigan

Ko'plik

o'qiganmiz
o'qigansiz
o'qiganlar

2- mashq. Berilgan fe'llarni uzoq o'tgan zamon shakllarida tuslang.

Eslamoq, hurmat qilmoq, suhbatlashmoq.

3- mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarni uzoq o'tgan zamon shakli bilan almashtirib yozing.

Namuna: Bu voqea ancha oldin sodir bo'ldi.

— Bu voqea ancha oldin sodir bo'lgan edi.

1. O'tgan yili bobomlar 80 yoshga to'ldilar.
2. Mening bobom hammamizga o'z xotiralarini so'zlab berdilar.
3. Xotira va qadrlash kuni bobomni ko'rgani do'stlari kelishdi.
4. O'shanda bobomdek bo'laman deb orzu qildim.

2- topshiriq. Matnni o'qing. Oxirgi abzasdagi gaplarning mazmunini tushuntiring.

Soat

Biz ko‘pchilikmiz: dadam, oyim, men va yana to‘rtta ukam ham bor. Oyim bilan dadam ishlashadi. Men o‘qiyman, ikkita ukam ham o‘qiydi. Ikkita kichkina ukam bog‘chaga borishadi. Uyimizning har bir xonasida soat bor. Mehmonxonada katta osma soat, boshqa xonalarda kichkina soatlar. Lekin biz bu soatlarga qaramaymiz. Hammamiz vaqtni dadamlardan so‘raymiz.

Dadamlarning qo‘l soatlari bor. Bu soat buvamlardan qolgan. Buvam urushda halok bo‘lganlar. Uyga qora xat bilan shu soat ham kelgan ekan. Dadamning ishxonadan sovg‘a qilishgan boshqa soatlari ham bor. Lekin uni taqmaydilar, shu soatni taqadilar. Tanish-bilishlar ba‘zan:

— Boshqasini taqing, bu eskirib ketibdi-ku, — deyishadi. Shunda dadam:

— Bu oddiy soat emas, dadamlarniki, — deydilar. Yaqinda men kollejga o‘qishga kirdim. Shunda dadam soatni qo‘llaridan yechib:

— O‘g‘lim, katta bo‘lib qoldingiz. Endi bu soatni siz taqing, — dedilar.

Endi uyda hamma vaqtni mendan so‘raydi. Dadamning o‘zlari ham vaqtni mendan so‘raydilar. Soat juda ham katta, siferblati ham eski, raqamlariga dog‘ tushgan. Lekin oddiy emas, buvamlarniki...

(O‘lmas Umarbekov)

osma soat — стенные часы
tanish-bilish — знакомый

halok bo‘lgan — погибший
qora xat — похоронка


Uyga vazifa. Hikoyani so‘zlab bering.

2 - dars

4- mashq. Matnni o‘qing. Fe‘llarning zamonini aniqlang.

Xotira maydonida

O‘tgan yili ustozimiz bizni Xotira maydoniga olib borgan edilar. Hamma yoq top-toza. Gullar ochilgan. Naqshlar bilan bezatilgan



Shahidlar maydoni



Xotira maydoni

ayvonlar, «Xotira kitobi»ni ko‘rib qoyil qoldik. Bu kitobda 431 mingdan ortiq o‘zbekistonlik jangchilar haqida ma’lumot berilgan. «Xotira kitobi» ikkinchi Jahon urushida halok bo‘lgan va bedarak yo‘qolgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida nashr qilingan. Bizning baxtimiz, tinchligimiz uchun kurashgan bobolarimizga ta’zim qilamiz.

(«Tong yulduzi» gazetasidan)

3- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz Xotira maydoniga borganmisiz?
2. U yerda kimlarni ko‘rgansiz?
3. Maktabingizda ham qahramonlar bilan uchrashuvlar bo‘lganmi?
4. Xotira va qadrlash kunida kimlarni borib ko‘rgansiz?



Uzoq o‘tgan zamon fe‘lining bo‘lishsiz shakli **-ma** qo‘shimchasini yoki **emas** to‘liqsiz fe‘lini qo‘shish orqali hosil qilinadi. **Masalan:** *Biz bu voqealarni eshitmaganmiz. Biz bu voqealarni eshitgan emasmiz.*



Ushbu fe'llarning bo'lishsiz shaklining tuslanishi:

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	o'qimagan <i>edim</i>	o'qimagan <i>edik</i>
II shaxs	o'qimagan <i>eding</i>	o'qimagan <i>edingiz</i>
III shaxs	o'qimagan <i>edi</i>	o'qimagan <i>edilar</i>
	Birlik	Ko'plik
I shaxs	o'qimagan <i>man</i>	o'qimagan <i>miz</i>
II shaxs	o'qimagan <i>san</i>	o'qimagan <i>siz</i>
III shaxs	o'qimagan	o'qimagan <i>lar</i>

5- mashq. Fe'llarni uzoq o'tgan zamon shaklida qo'llab, savollarga mos birikmalar tuzing.

1. Bormoq — qayerga? kimlar bilan?
2. Gaplashmoq — kim bilan? nima haqida?
3. Xotirlamoq — kimni? qachon?

4- topshiriq. Berilgan javoblarga mos savollar tuzing.

— ... ?

O'tgan yili ustozimiz bizni Xotira maydoniga olib borgan edilar.

— ... ?

— Biz tinchligimiz uchun kurashgan bobolarimiz bilan faxrlanamiz.

— ... ?

— «Xotira kitobi» vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida nashr qilingan.

— ... ?

— «Xotira kitobi» da 431 mingdan ortiq o'zbekistonlik jangchilar haqida ma'lumot berilgan.



Adabiy o'qish

Bobo va nabira

9- may — Xotira va qadrlash kunida ukam Abdulhamid bilan istirohat bog'iga bordik. Abdulhamid arg'imchoq uchgani ketdi. Shu

payt yo‘lak bo‘yidagi o‘rindiqlarda o‘tirgan bir otaxonni ko‘rib qoldim. Xuddi katta bobomga o‘xshar ekanlar. Jigarrang kostyumining o‘ng ko‘ksi orden va medallarga to‘lib ketibdi. Bugun bayramga ordenlarini taqib chiqibdilar. Kim bilan kelgan ekanlar?

— Beri kel, bolam, hassam tushib ketdi, olib ber, — deb yonlariga chaqirdilar.

— Mana, bobojon, — dedim yonlariga uchib borib.

— Rahmat, o‘g‘lim. Maktabda o‘qiysanmi?

— Ha, bobojon, Toshkentdagi 54- maktabda o‘qiyman.

— O‘qishlaring yaxshimi?

— Ha, chorak baholarimning hammasi «besh».

— Barakalla, — maqtab qo‘ydilar meni.

— Bobojon, urushda bo‘lganmisiz?

— Qo‘y, o‘g‘lim, urushdan gapirma, — e‘tiroz bildirdilar otaxon.

— Urush yomon-a? Kinoda ko‘rganman.

— Juda yomon. Urush oxirlab qolganda jangga kirib Berlindan urushni tugatib qaytganman, — dedilar og‘ir xo‘rsinib.

— Nemislar shunaqa yomonmidi?

— Nemislar emas, fashistlar yomon edi.

— Fashistlar kim o‘zi? — so‘rayman qiziqishim ortib.

— Fashistlarmi, Gitlarga o‘xshagan ajdarholar. Boshini kessang, yana bosh o‘sib chiqadi.

— Ertaklardagi ajdahoga o‘xshagan deng. Hozir yo‘qmi ular?

— Yo‘q. Mabodo qolgan bo‘lsa ham, boshini yanchib tashlaymiz. Endi, bor, o‘yna.

— Bobojon, sizga muzqaymoq olib kelib beraymi?

— Rahmat, bolam, o‘zing yeyaver. Arg‘imchoq uchib, o‘yna.

Ordenli bobo bilan xayrlashar ekanman, kayfiyatim ko‘tarilganini his etdim.

(Abdulhay Nosirov)

istirohat bog‘i — парк
yo‘lak — коридор

arg‘imchoq — качели
ajdarho — дракон


Uyga vazifa. Hikoyaga o‘z munosabatingizni bildiring.

XXIV MAVZU. O'QUVCHINING KUN TARTIBI


(-moqchi shaklli kelasi zamon fe'lining
tuslanishi va qo'llanishi)

1 - dars


1- topshiriq. Ko'rsatilgan vaqtlarda nimalar qilishingizni aytib bering.



Soat 7.



Soat 12.



Soat 15.



Soat 20.30.

2- topshiriq. Suhbat matnini o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

- Ravshan, bugun darsdan keyin bo'shmisan?
- Yo'q, bugun tennis bo'yicha mashg'ulotimga **bormoqchiman**.
- Men esa ingliz tilini yaxshiroq o'rganish uchun Til markaziga **bormoqchiman**. Birga borsang, bir guruhda o'qir edik.
- Afsus, mashg'ulotga bormasam bo'lmaydi. Yaqinda respublika musobaqasida **qatnashmoqchiman**.
- Senga omad tilayman, do'stim.
- Rahmat. Keyinroq, albatta, men ham boraman.



Kelasi zamon fe'li kelasi zamonda maqsad qilingan ish-harakatni bildirib, **-moqchi** qo'shimchasi bilan hosil qilinadi va quyidagi shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanadi: Kelasi zamon maqsad fe'lining tuslanishi:

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	o'qimoqchiman	o'qimoqchimiz
II shaxs	o'qimoqchisan	o'qimoqchisiz
III shaxs	o'qimoqchi	o'qimoqchilar

1- mashq. Berilgan fe'llardan kelasi zamon maqsad fe'llarini hosil qiling va tustlang.

Namuna: Qatnashmoqchiman, qatnashmoqchisan, qatnashmoqchi, qatnashmoqchimiz, qatnashmoqchisiz, qatnashmoqchilar.

O'rganmoq, bormoq, a'zo bo'lmoq.

2- mashq. Nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan fe'llarni kelasi zamon maqsad fe'li shaklida qo'llab gaplarni to'ldiring.

1. Ozod bilan Behzod bugun birga dars 2. Sevara yozgi ta'tilda oyisidan ovqat pishirishni 3. Bolalar darsdan so'ng sport maydonchasida voleybol 4. Biz endi kun tartibiga qat'iy 5. Sinfdoshlarim bilan barcha fanlardan a'lo baholarga 6. Men yozgi ta'tilda tog'da dam

Foydalanish uchun so'zlar: o'ynamoq, dam olmoq, tayyorlamoq, o'rganmoq, rioya qilmoq, o'qimoq.

3- mashq. Matnni o'qing. Fe'llarning zamon shakllarini aniqlang.

Do'stim Jasur matematikadan masalalarni tez va to'g'ri yechadi. Boshqa fanlardan uyga berilgan topshiriqlarni ham o'z vaqtida bajaradi. Maktabimizdagi barcha o'qituvchilar uni doim maqtashadi. Jasur bahorda fan olimpiadalarida qatnashmoqchi. Buning uchun astoydil tayyorlanmoqchi. Men do'stim bilan faxrlanaman. Jasurga yetib olish uchun harakat qilmoqchiman.



4- mashq. Rasmlarni kuzating. Soʻzlarni oʻzaro bogʻlab, gaplar tuzing va qaysi oʻquvchi vaqtdan unumli foydalanganini ayting.

1. Aziza, tayyorladi, darsini, oʻynadi va shaxmat. 2. Komila, berdi, oyisiga, yordam. 3. Nodir oʻynadi koʻchada, futbol. 4. Behzod koʻrdi televizor va oʻyin kompyuterda oʻynadi.

Uyga vazifa. Keyingi haftada bajarmoqchi boʻlayotgan ishlaringiz rejasini tuzing.



Adabiy oʻqish

Bebaho boylik

Bobo nabirasi bilan suhbatlashib oʻtirgan edi. Nabirasi Dur-dona:

— Buvajon, «Vaqting ketdi — baxting ketdi» degani nima oʻzi?
— deb savol berib qoldi.

Bobo nabirasiga javob berishdan oldin dunyoda eng qimmatli boylik nima ekanligini Durdonadan soʻradi. Nabirasi oʻylab turdi-da:

— Oltin, — deb javob berdi.

— Yoʻq, — dedi bobo. — Agar bilsang, dunyoda oltindan qimmatroq boylik bor. Uning nomi «vaqt» deb ataladi. Vaqtni behuda oʻtkazgan odam eng qimmatli narsasini yoʻqotadi.

Kuzda qishloqdagi doʻstim Dehqonboyini koʻrgani borgan edim. Dehqonboy betob boʻlib qolibdi. Xotini Oftob aya u bilan ovora boʻlib, ishga chiqolmay qolibdi. Bemor sal tuzalganidan keyin, unga nabirasi qarab turadigan boʻlibdi. Oftob aya boʻlsa, ishga borib kelar ekan.

— Dastyorginamdan aylanay, foydasi tegadigan boʻlib qoldi. Choy qaynatish, ovqat pishirishni uddalaydi, baraka topkur! — deya nabirasini maqtadi Oftob aya.

Men buni eshitib:

— Buvangga qarar ekansan-ku, darsni qay vaqtda tayyorlaysan?
— deb soʻradim. Shunda u:

— Buvajonim uxlaganlarida, — deb javob berdi. — Ana, Bar-noning javobini eshitding-a? U kasal buvasiga qarab, yana darslarini

tayyorlashga ham ulgurarkan. Bu Barnoning biror daqiqani bekor o'tkazmay, qimmatli vaqtdan unumli foydalanishidan.

Vaqt hammaga shunchalar aziz. Shu sababli uni bebaho boylik deymiz. Vaqtni astoydil qadrlab, undan to'g'ri foydalangan kishi baxtga erishadi.

Bobosining hikoyasini tinglab o'tirgan Durdona «Vaqting ketdi — baxting ketdi» deb bergan savoliga javob oldi. U chaqqon, ishchan bo'lishga ahd qildi. Bobosiga Barnoga o'xshab vaqtdan unumli foydalanishga va'da berdi.

(*Hakim Nazir*)

naqd — наличный
uddalamoq — справляться
dastyor — помощник

vaqt — время
ulgurmoq — успевать
unumli — плодотворный

Uyga vazifa. Keyingi haftada bajarmoqchi bo'layotgan ishlaringiz rejasini tuzing.

2 - dars

3- topshiriq. Suhbat matnini o'qing va o'zingizning kunlik rejangiz haqida so'zlab bering.

Jahongir: — Qahramon, sening kunlik ish rejang bormi?

Qahramon: — Ha, albatta. Bizning oilamizda mening ham, singlimning ham kun tartibimiz bor. Dadam bilan oyim biz qachon qayerda nima bilan mashg'ul bo'lishimizni bilishadi. Kun tartibi bizga ishlarimizni to'g'ri rejalashtirishga yordam beradi.

Jahongir: — Endi men ham ishlarimni rejalashtirib olaman va kun tartibiga rioya qilmoqchiman.

Uyga vazifa. Yozgi ta'til rejasini tuzing.

5- mashq. Matnni o'qing va savollarga javob bering.

Kun tartibi nima?

Jahongir kechqurun yarim tungacha kompyuterda o'yin o'ynadi,

natijada ertalab uxlab qoldi va darsga kechikib keldi. O'qituvchi undan uy vazifasini so'radi, u esa daftari uyda qolib ketganini bahona qildi. Chindan ham Jahongir portfelini kechagi kun jadvali bo'yicha ko'tarib kelgan edi.

Bolalar, ayting-chi, Jahongir nima uchun bunday holga tushdi?

Siz har kuni qiladigan ishlaringizning vaqtini rejalashtirib olasizmi?

6- mashq. Berilgan fe'llarni kelasi zamonning bo'lishli va bo'lishsiz shakllarida yozing.

Bormoq, ishlamoq, dam olmoq, o'rganmoq, tayyorlamoq, so'zlab bormoq.



Kelasi zamon maqsad fe'lining bo'lishsiz shakli **-moqchi** qo'shimchasi so'ng **emas** to'liqsiz fe'lini qo'shish orqali hosil qilinadi va quyidagicha tuslanadi:

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	ayt moqchi emasman	ayt moqchi emasmiz
II shaxs	ayt moqchi emassan	ayt moqchi emassiz
III shaxs	ayt moqchi emas	ayt moqchi emaslar

7- mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni kelasi zamon maqsad fe'li shakliga qo'yib matnni ko'chiring.

Men bugun darsdan keyin kutubxonaga (bormoq). U yerdan «O'zbek xalq ertaklari» kitobini (olmoq). Barcha darslarimni tayyorlab bo'lgach, bu ertaklarni (o'qib chiqmoq). Har kuni bittadan ertak o'qib, o'n kun ichida kitobni o'qib (tugatmoq). Shu rejamni amalga oshirish uchun astoydil (harakat qilmoq).

4- topshiriq. Maqollarning ma'nosini tushuntiring.

1. Bugungi ishni ertaga qoldirma.
2. Qolgan ishga qor yog'ar.
3. Vaqting ketdi — baxting ketdi.

LUG‘AT

A

abadiylashtirish — увековечить
 abjir — ловкий
 aft — лицо
 ahil, inoq — дружный
 ajdarho — дракон
 ajib — изумительный
 aks-sado — эхо
 almashtirmoq — менять
 antiqa — редкостный
 aralashtirmoq — смешивать
 arg‘imchoq — качели
 arzimoq — быть равным
 asbob — прибор
 asbob-uskuna — прибор
 asl — подлинный
 asramoq — защитит
 atama — термин
 atrof — вокруг
 aylantirmoq — превратить
 ayvon — веранда
 azaliy — давнишний

B

badan — тело
 bag‘ishlanmoq — посвященный
 bardamlik — бодрость

barpo etilmoq — создавать
 barq urmoq — расцветать
 batafsil — полностью
 behosdan — вдруг
 beshik — колыбель
 bezatmoq — украшать
 binokorlik — профессия

строителя

bir qarich yer — пядь земли
 bisot — приданое

bitkazmoq — закончить
 bo‘lakcha — по-другому
 bog‘liq — связанный
 bo‘linma — часть
 borliq — вселенная
 boychechak — подснежник
 bukchaymoq — гнуться
 buloq — родник
 bulutsiz — безоблачный
 bundan buyon — далее
 bunyodkorlik — созидание
 bunyodkorlik — творение
 butun — весь

D

daha — квартал
 dala — поле
 darvoqe — кстати
 dastxat — подпись
 dastyor — помощник
 davlat — государство
 davr — период, время
 deyarli — почти
 dildor — красавица
 diydorlashmoq — встречаться
 dovyurak — смелый
 duradgorchilik — плотник

E

egat — грядка
 ehson — дар

F

faoliyat — деятельность
 farovon — изобильный,
 благоустроенный
 farq — разница
 faxrlanish — гордиться
 fikr — мысль

fikr yugurtirish — мыслить
fikrlash — мыслить
foydali — полезный
fusun — очарование

G

galma-gal — поочередно
ganchkorlik — штукатурное
дело
gilamdo'zlik — ковроделие
giyoh — растение
gumbaz — купол

H

haligi — тот же
halok bo'lgan — погибший
haq — право
haqiqiy — реальный
harbiy xizmat — военная
служба
harbiy mashq — военная
подготовка
hasharchi — помощник
havza — бассейн
hayqirmoq — бушевать
hayrat — удивление
hazil qilmoq — шутить
hazm qilish — переваривать
(пищу)
hil-hil — зрелый
his — чувство
hordiq — отдых
horib-charchab — уставший
hovli — двор
hovuz — бассейн
hukmdor — повелитель
hunar — ремесло

I

ichki — внутренний
ifloslanish — загрязнение

ilm markazi — центр науки
imorat — постройка, здание
in'om etmoq — дарить
intilmoq — стремиться
iqlim — климат
irmoq — речушка
irmoq — ручей, приток реки
ishchan — работоспособный
ishkom — подпорки для
виноградных лоз
ishonchli qo'l(da) — в надёж-
ных руках
istirohat bog'i — парк
ixtiro — изобретение
ixtiro qilmoq — изобретать

J

jamlangan — собранный
jangovor — боевой
jar — овраг
jasorat — храбрость, смелость
jismoniy tarbiya — физическое
воспитание
juft — пара

K

kamalak — радуга
kamol — зрелость
kasb — профессия
kashf qilmoq — изобретать
kashfiyot — изобретение
kavlamoq — копать
kayfiyat — настроение
ko'kat — зелень
ko'chat — саженец
koinot — вселенная
ko'kish — синеватый
ko'rgazma — выставка
kosibchilik — кустарное дело
kuch — сила

kulolchilik — гончарное ремесло
kurash — борьба
kurtak — почка

L

loyiha — проект
loyihachilik — проектирование

M

maftun et(moq) — очаровывать
mag'iz — ядро, смысл
mag'rur — гордый
maysa — трава
mahsulotlar — продукты
majmua — комплекс
maktab ko'rgan — обученный
maktab yaratgan — создавший

школу

ma'lumot — сведения
ma'naviyat — духовность
manzara — вид, картина
manzil — адрес
mard, jasur — отважный
marhabo — добро пожаловать
ma'rifatparvar — просветитель
maroq — удовольствие
marvarid — жемчуг
maslahat — совет
mavjud — существующий
maxsus — специальный
maydoncha — площадка
mazali — вкусный
mazmun — содержание
ma'zur tut(moq) — извинять
meros — наследие
me'yor — мера
me'yor — норма
minnatdor — благодарный
mintaqa — регион
mohir — умелый

moslama — прибор
mo'tabar zot — священная
личность

muammo — проблема
muassasa — учреждение
muhayyo — готовый
muhim — важный
muhit — среда
muntazam — постоянный
muqaddas — священный
murabbiy — воспитатель
musaffo — чистый
mutolaa (etmoq) — читать
me'morchilik — зодчество

N

na (nima) — что-то
namoyish — демонстрация
naqd — наличный
naqqoshlik — живописца
naqsh — орнамент
nariroqda — чуть дальше
narvon — лестница
navbatchilik — дежурство
navo — музыка
navqiron — молодой
nihoyatda, benihoya — очень
pomma-pom — поимённо
poyob — антиквар

O

obod bo'lmoq — расцветать
ochlik — голод
og'rimoq — болеть
oid — относящийся
omil — фактор
on — секунда
oqim — поток
oshqozon — желудок

osma soat — стенные часы
orastalamoq — чистить
osma yo'l — канатная дорога

Р

pahlavon — богатырь
pala-partishlik — безалаберность
palla — время
parhez — диета
parvarishlamoq — ухаживать
pasaytirmoq — снижать
pasttekislik — низкая равнина
piyoda — пешком
pog'ona — этап
poklik — чистота
poliz — огород
poliz ekinlari — огородные
растения

porlamoq — сиять
posbon — защитник
posbon — стража
royabzal — обувь
pushta — грядка

Q

qaddi-qomat — телосложение
qadr — ценность
qahramonlik — героизм
qalb — сердце
qalqon — щит
qamrab olmoq — охватывать
qarindosh-urug' — родственник
qasam — клятва
qaynamoq — кипеть
qazimoq — копать
qiyoslamoq — сравнивать
qo'rqmoq — бояться
qo'llamoq — использовать
qo'lyozma — рукопись
qon aylanish — кровообращение

qora xat — похоронка
qovurmoq — жарить
qo'zg'atuvchi — возбуждающий
quchoq — объятие
qudratli — могучий
quduq — колодец
qulay — удобный
qurilish — строительство
quyosh tafti — солнечное тепло

Р

rangdor — разноцветный
raqam — цифра
ravon — ровный
ravshan — ясный
risoladagiday — правильно
ro'zg'or — хозяйство
rozi (bo'lmoq) — быть

довольным

rejalashtirmoq — планировать

S

sahro, dasht, cho'l — степь
salbiy — отрицательный
salkam — почти
salobatli — видный,
авторитетный
san'at muzeyi — Музей
искусств

sarg'aymoq — желтеть
sarguzasht — приключение
savdo rastalari — торговые ряды
semirmoq — полнеть, толстеть
sepib qo'ymoq — сыпать
sersuv — многоводный
sevimli — любимый
sirli — таинственный
siymo — образ
siyrak — редкий
so'lim — красивый

sodir bo'lmoq — происходить
 sog'inmoq — скучать
 sog'lom turmush tarzi —
 здоровый образ жизни
 so'qmoq yo'l — тропинка
 somoncha shaklida — в соломку
 sopol buyum — глиняный
 предмет
 sovrin — приз
 sukut — молчание
 surunkali — постоянно

Т

taassurot — впечатление
 tabiat — природа
 tabiat muzeyi — Музей природы
 tabib — лекарь
 tafakkurli — мыслящий
 tahlil qilmoq — анализировать
 tajriba — эксперимент
 ta'kidlamoq — утвердить
 takomillashtirish — совершен-
 ствовать
 tanbeh — замечание
 tanilmoq — быть знаменитым
 tanish-bilish — знакомый
 taom — еда
 tarjimon — переводчик
 tarozi — весы
 tartibga keltirmoq — навести
 порядок
 ta'sir — влияние
 tasvir — изображение
 tasviriy san'at — изобрази-
 тельное искусство
 tavallud — день рождения
 tayyorlash — готовить
 tekislik — равнина
 teleko'rsatuv — телепередача
 tengsiz — бесподобный

teskarisi — обратный
 tetik — бодрый
 tezkor — быстрый
 tikuvchi — портной
 tinch — мирный
 tinimsiz — беспрестанно
 tiniq, tip-tiniq — прозрачный
 tiyrak — чуткий
 to'plam — сборник
 tog' oldi — пригорье
 tong yorishmoq — рассветать
 to'yimli — калорийный
 turar-joy — местожительство
 tuyg'u — чувство
 tuyulmoq — казаться

У

uchrashuv — встреча
 uddalamoq — справляться
 udum — обычай
 ulg'aymoq — повзрослеть
 ulgurmoq — успевать
 ulkan — громадный
 ummon — море, океан
 umumxalq — общенародный
 unumli — плодотворный
 urf-odat, udum — обычай
 ushoq — крошка
 usta — мастер
 ustun — колонна
 uyali aloqa — мобильная связь

В

vaqt — время
 varaqlamoq — перелистать
 vosita — средство

Х

xasta — больной
 xayolparast — фантазёр

140

MUNDARIJA

1. OBOD O'IKAM (Aniq va mavhum otlarining qo'llanishi)	3
2. OROMGOHDA (O'rin-joy otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi)	9
3. BILIM - XAZINA (Kasb-hunar otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi)	15
4. SINF RAHBARI (Narsa-buyum otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi)	20
5. ADABIYOT MUZEYIDA (Otlarda -day, -dek, kabi, xuddi shakllarining qo'llanishi)	25
6. MEN SEVGAN KO'RSATUV (Egalik qo'shimchalari bilan kelgan o'zlik olmoshlarining qo'llanishi)	31
7. KUZGI NE'MATLAR (Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan bo'lishsizlik olmoshlarining qo'llanishi)	37
8. KUTUBXONADA (Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarining qo'llanishi).....	42
9. QADIMIY VA NAVQIRON SHAHARLAR (Ozaytirma darajadagi sifatlarning qo'llanishi.).....	48
10. TABIAT VA IQLIM (Orttirma darajadagi sifatlarning qo'llanishi).	54
11. CHIMYON TOG'LARIDA (Chama sonlarning yasalishi va qo'llanishi)	60
12. YANGI YIL REJASI (Jamlovchi sonlarning yasalishi va qo'llanishi)	65
13. ONA YURT POSBONLARI (Butun va kasr sonlarning yasalishi va qo'llanishi)	70
14. SPORT — SALOMATLIK GAROVI. (Daraja-miqdor ravishlarining qo'llanishi).....	75
15. SALOMATLIK — TUMAN BOYLIK (Haqida, to'g'risida ko'makchilarining qo'llanishi)	80
16. BUYUK ALLOMALARIMIZ (Vaqtini ifodalash)	86

17. BAHORGI ISHLAR (Payt ravishlarining yasalishi va qo‘llanishi)	91
18. MILLIY TAOMLAR (Holat ravishlarining yasalishi va qo‘llanishi)	96
19. NAVRO‘Z UDUMLARI (O‘rin ravishining qo‘llanishi)	102
20. DAM OLISH KUNI (Hozirgi-kelasi zamon fe‘lining yasalishi va qo‘llanishi)	109
21. ONA SHAHRIM (-moqda qo‘shimchali hozirgi samon fe‘lining qo‘llanishi).....	113
22. BUYUK ASTRONOM. (-r (-ar) edi shaklli o‘tgan zamon fe‘lining tuslanishi va qo‘llanishi).....	118
23. BOBOM XOTIRALARI (-gan edi shaklli o‘tgan zamon fe‘lining tuslanishi va qo‘llanishi)	124
24. O‘QUVCHINING KUN TARTIBI (-moqchi shaklli kelasi zamon fe‘lining tuslanishi va qo‘llanishi)	130

**Xadicha Sobirovna MUXITDINOVA,
Yashnarbek Ibragimovich AVLAKULOV,
Dildora Abrorovna NURIDDINOVA**

O‘zbek tili

***Ta’lim rus tilida olib boriladigan
maktablarning 6- sinfi uchun darslik***

Muharrir	Akbar Mirzo
Rassom	L. Dabija
Texnik muharrir	Y. Kim
Musahhiha	E. Nurmatova
Sahifalovchi	H.Xo‘jayeva

Nashriyot lisenziyasi AI № 185. 10.05.2011. Bosishga ruxsat etildi 15.08.2013.
Bichimi 70x90 $\frac{1}{16}$. Kegli 12,0. SchoolBook garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Nashr bosma tabog‘i. 8,2. Bosma tabog‘i 9,0. Nuxxasi ...
Buyurtma №

Darslik original-maketi «MITTI YULDUZ» MCHJ da nashrga tayyorlandi va egalik huquqi
unga tegishlidir. Toshkent sh. Navoiy ko‘chasi, 30- uy.

«YANGIYO‘L POLIGRAPH SERVICE» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Yangiyo‘l sh. Samarqand ko‘chasi, 44.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

1	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.